



## MUNDARIJA

### SIYOSATSHUNOSLIK

Almagul BAYRIYEVA. Vakillik hokimiyyati to'g'risidagi zamonaviy konsepsiylar.....2

Nargiza SEYDABULLAYEVA. Kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy prinsiplar.....11

### SOTSOLOGIYA

Shohida SODIQOVA. Maqsadni belgilash va uning funksiyalari.....7

### FALSAFA

Jaxongir USMANOV. Nizomiy Aruziy Samarqandiyning mashshaiyyunlarning buyuk vakili ibn Sino haqidagi qarashlari.....14

### TARIX

Diyorjon ABDULLAYEV. Temur tuzuklarida rag'batlantirish, taqdirlash ishlari tahlili.....18

Abdulla QURBONOV. Quiy Amudaryo hududida ilk o'rta asr jamiyatining iqtisodiy rivojlanishiga doir ba'zi bir chizgilar.....22

### FILOLOGIYA

Alijon ALLABERDIYEV. Buxoro o'g'uz shevalarida lab undoshlarining qo'llanishi .....26

Иzzat ШЕРМАТОВ, Назира ДЖУМАНИЯЗОВА. Географические и топографические фразеологизмы в русском и узбекском языках.....28

Дилфуза АБДУЛЛАЕВА. Использование артпедагогики в образовании.....32

Navbahor SA'DULLAYEVA. Xorazm oraliq shevalarida frazeologik birliliklar.....35

Oysuluv URALOVA, Bibinora RAXMONQULOVA. Ingliz va o'zbek tillarida iqtisodiy terminlarning leksik- semantik munosabatlari.....38

Farxod KENJAYEV. Tarixiy qahramon va badiiy obraz.....41

Shahnoza NORQULOVA. Gadoiy g'azallarida qosh va ko'z timsoli.....45

Xayriniso JO'RAYEVA. Jurnalistikada yo'nalishlar aro soxta axborot tarqatilishining oldini olish va ekojournalistikada olib borilayotgan ishlар natijasi.....48

Мунаввара КУРБАНБАЕВА. Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью.....52

Adiba BOTIROVA. So'z turkumlariga asoslangan o'quv lug'atlar tizimini ishlab chiqish.....77

### PEDAGOGIKA

Raziya SEYDABULLAYEVA. Studying the pedagogic-psychological significance of teaching young children to imaging activities.....56

Gulistan GANIYEVA. Talaba-yoshlarda sog'lom diniy dunyoqarashini shakkantirish.....58

### PSIXOLOGIYA

Ozoda YADGAROVA. Talaba yoshlarda kommunikativ malakalarini rivojlantirishda psixologik kommunikativ trening-larning ahamiyati.....62

### QISHLOQ XO'JALIGI

Zokir RAJABOV. Rajabboy PO'LATOV. Amudaryo katta va kichik soxtakurakburunlari.....68

### BIOLOGIYA

Умарбек АБДУРАХИМОВ. Хоразм вилояти тупроқ-иқлим шароитида ўткир баргли сано (*cassia acutifolia* del.) ва тор баргли сано (*cassia angustifolia* vahl.) турларининг транспирация жадаллиги.....72

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi, "Tafakkur-tamaddun" OOO

**HAMKORLARIMIZ:**

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Sirojiddin SAYYID

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Guliston MATYOQUBOVA

O'rozboy ABDURAHMONOV

**TAHRIR HAY'ATI:**

**BOSH MUHARRIR:**

Munavvara QURBONBOYEVA

**BO'LIM MUHARRIRI:**

Anvar ALLAMBERGENOV

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., (DSc)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Yaxshibeka ABDULLAYEVA, t.f.d., prof.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., (DSc), k.i.x.

O'tkir ABDULLAYEV, t.f.d., (DSc)

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d., (DSc)

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Shohida SODIQOVA, sots.f.d., (DSc)

Abdug'ani XOLBEKOV, sots.f.d., (DSc)

Sobir XODJAYEV, sots.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVIY, f.f.d., prof.

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots.

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., (DSc)

Safo MATJONOV, p.f.d., (DSc)

Qaxramon IBADULLAYEV, f.-m.f.n., p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d., (PhD)

Svetlana MAMBETULLAYEVA, b.f.d., prof.

Otanazar RAHIMOV, b.f.n., ped.f.d.(DSc), prof.

Umarbek ABDURAHIMOV, b.f.f.d. (PhD)

Nuraddin RO'ZIBOYEV, q.x.f.d., (DSc)

Ne'matullo XUDAYBERGANOV, q.x.f.d., (PhD)

Zokir RAJABOV, q.x.f.d., (PhD), k.i.x.

Roza XOJAMURATOVA, g.f.d., (DSc)

Sattorbergen AVEZOV, g.f.n., dots.

Keunimjay ALLANAZAROV, g.f.n., dots.

Furqat RAJABOV, g.f.d., (PhD), dots.

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilbar URAZBAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Mels QOBULOV, tib.f.d., prof.

Bozorboy ORAZALIYEV, t.f.n.

Davlatyov BOLTAYEV, t.f.n., dots.

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani. Web-sayt: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com). Telegram: <https://t.me/tamaddunnuri>.

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Bosishga 15.05.2023-yilda ruxsat berildi. Qog'oz bichimi 60x84 %. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.

Indeks - 960. ISSN 2181-8258. Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

"ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 200 dona. Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2023-yil, 4-son (43). **Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi.

**Rassom:** Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:** G'iyosiddin O'NAROV

# VAKILLIK HOKIMIYATI TO‘G‘RISIDAGI ZAMONAVIY KONSEPSIYALAR



*Almagul  
BAYRIYEVA,  
Berdaq  
nomidagi  
Qoraqalpoq  
davlat  
universiteti,  
siyosiy fanlar doktori  
(DSc)*



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada vakillik hokimiyati to‘g‘risida zamonaviy konsepsiyalar, vakillik hokimiyati va vakillik demokratiyasini tushunchalari, vakillik va vakillik hokimiyatining vujudga kelishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Mashhur siyosatshunos olimlarning vakillik to‘g‘risidagi qarashlari tahlilga tortilib, vakillik hokimiyatining bugungi kundagi funksiyalari talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** vakillik, hokimiyat, demokratiya, qonun, vakillik institutlari, fuqarolik jamiyati.

**Аннотация:** В статье рассматриваются современные концепции представительной власти и представительной демократии. Анализируются взгляды известных политологов на представительную власть и интерпретируются функции представительной власти на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** представительство, власть, демократия, право, представительные институты, гражданское общество.

**Annotation:** The article deals with modern concepts of representative power, concepts of representative power and representative democracy. The views of well-known political scientists on representative power are analyzed and the functions of representative power today are interpreted.

**Key words:** representation, power, democracy, law, representative institutions, civil society.

**M**a’lumki, xalq hokimiyati organi – bu huquq normalari doirasida ko‘zda tutilgan vakillik prinsipi asosida xalq irodasini ifoda etish vositasidir.

Vakillik hokimiyati deganda esa, mohiyatan odamlar o‘z suveren huquqlarini ta‘minlaydigan davlat hokimiyatining bir bo‘g‘inini tushunadi. Vakillik hokimiyatini amalga oshiradigan asosiy organlar hokimiyatning vakillik organlari hisoblanadi. Hokimiyatlarning bo‘linish tamoyiliga

binoan, davlat hokimiyati tarmoqlari orasida vakillik alohida o‘rin tutadi. Ikkala tushuncha, ya’ni “vakillik hokimiyati” va “qonun chiqaruvchi hokimiyat” o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

O‘z navbatida, vakillik demokratiyasi – bu eng muhim davlat va jamoat ishlariga oid qarorlarni saylangan vakillar tomonidan qabul qilinishi demakdir. Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlar ko‘pincha aholining juda oz qismining xohish-irodasiga asoslanadi, ammo tabiatiga ko‘ra ular butun aholiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shunday qilib, qonun orqali aholining kichik bir qismining xohishi universal bo‘lib qoladi va uning ijrosi ijro etuvchi hokimiyat zimmasiga tushadi.

Vakillik demokratiyasi nafaqat davlat hokimiyati vakillik organlarini o‘z ichiga oladi, balki mahalliy aholi tomonidan tuzilgan o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, elektoratning saylovchilar bilan aloqalarini tavsiylovchi boshqa institutlarni ham o‘z ichiga oladi: bu deputatning saylov okrugidagi ishi, siyosiy partiyalardagi aloqalar, shuningdek, ichki parlament faoliyatining demokratik shakllari – ochiq sessiyalar, qo‘mitalar va komissiyalar majlislari, parlament va jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish kabilardir.

Olimlar tomonidan demokratiya davlat va jamiyatning barcha talablarini to‘la qondira oladigan yagona boshqaruv shakli ekanligi e’tirof etiladi. Fuqarolarning hatto eng ahamiyatsiz ko‘ringan davlat funksiyalarini bajarishda ishtirok etishlari ham samaralidir, shuning uchun jamiyat taraqqiyoti imkon qadar keng ko‘lamli bo‘lishi kerak. Ammo, jamoat ishlarida barchaning shaxsiy ishtirokini birdek ta’minlash imkonni bo‘lmagan uchun vakillik hokimiyati ideal boshqaruv shakli bo‘lib xizmat qiladi [1].

Bugungi davrda shakllangan vakillik tizimi klassik andozaga tayanadi. Uning mohiyati – hokimiyat erkin va adolatli saylovlarda o‘z vakillariga vakolat berish orqali o‘z fuqarolarining siyosiy tengligini ta’minlashi, hukumatning hisobdorligi va fuqarolarning jamiyat boshqaruviga ta’siridan iborat.

Siyosatshunos tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, o‘rta asrlarda cherkov doirasida, shuningdek, shaharlar yoki imperatorlar bilan munosabatlardan tarixida ham vakillik ildizlarini ko‘rish mumkin. Ya’ni, vakillik Yevropada cherkov hukmronlik qilgan o‘rta asrlarda markaz va periferiyalar

o‘rtasida aloqa o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

O‘rta asrlarda davlat qonunchiligi asosan shartnoma tamoyillari asosiga qurila boshlandi. Har ikki turdagilarning tizimlari, ya’ni ham diniy, ham dunyoviy hamjamiyatlar – vakillik fuqarolik qonunlari bilan tartibga solinishi kerak, degan xulosaga kelishdi. Bu xulosa nemis professori Otto fon Girke ta’kidlaganidek, “har qanday siyosiy hokimiyatga bo‘ysunuvchi hamjamiyatning muqarrar ravishda “vakili” bo‘lishi kerak” degan g‘oya bilan mutanosib edi [2].

Biroq, 1736-yilda Shipione Maffei (Scipione Maffei)ning respublika boshqaruv shakllarining qiyosiy-tarixiy tadqiqiga bag‘ishlangan asarida – hatto rimliklar ham imperiyalariga kirgan ko‘plab xalqlar o‘z manfaatlarini ifoda eta olishlari uchun vakillik tamoyiliga murojaat qilishganini yozgan [3]. Tatsit (lot. Publius Cornelius Tacitus) o‘zining “Germaniya” asarida nemis qabilalari Rim Senati oldida o‘z talablarini bildirganini, turli vakillik va parlament institutlarini tasvirlagan [4]. Shunday qilib, o‘z davrida vakillik respublikaning ulkan hududini o‘ziga xos federal tizimga birlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Tabiiyki, vakillik funksiyalari vakillik institutlari tomonidan amalga oshiriladi, ularning mohiyati XIX asrda hokimiyat yoki ma’lum huquqlar tegishli bo‘lgan institutlar sifatida izohlangan. Chunki ular xalq irodasini yoki uning biron bir qatlaming manfaatlarini ifodalaydi.

XIX asrning oxirida tuzilgan ensiklopedik lug‘atda “vakillik institutlari” tushunchasi shunday ta’riflangan: “... bu shunday tuzilmaki, xalqning yoki uning biron bir qismining xohish-irodasini ifodalaganligi sababli tegishli hokimiyat yoki ma’lum bir huquqlarga ega bo‘lgan institutladir” [5].

Tarixan qaraydigan bo‘lsak, vakillik institutlarining demokratik tarzda shakllanishi, bиринчи navbatda, ingliz va fransuz burjua inqiloblari tarixi bilan bog‘liq. Aynan shu davrda u yevropalik olimlar J.Lokk (John Locke), Sh.Monteske (Charles Montesquieu), Amerikaning “federalistlari” tomonidan nazariy jihatdan asoslangan edi. Ya’ni, amalda hokimiyatlarning bo‘linishi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning mustaqil bo‘g‘inga aylanishi, tegishli tashkiliy tuzilmalarining shakllanishi kabi jarayonlar

kuzatildi. Keyingi davrda mohiyatan vakillikning mavjud shakllari rivojlantirildi va takomillashtirildi.

F.Fukuyama vakillik hokimiyatining paydo bo‘lishi haqida yozar ekan, “Parlament davlatchiligi ancha-muncha jipslashgan davlat tizimi va o‘z manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘lgan jamiyat o‘rtasida nisbiy muvozanat ta’minlangan davrda vujudga kelgan”ligini ta’kidlaydi [6].

Hokimiyat vakillik organlarining faoliyati davlatning siyosiy rivojlanishidagi asosiy masalalarini o‘zida mujassam etadi. Garchi qadimgi dunyo va o‘rta asrlarda birinchi parlamentlar haqida aytilgan bo‘lsa-da, vakillik institutining rivoji yaqin tarixda boshlandi. Angliya – zamonaviy parlamentarizmning vatani hisoblanadi, 1222-yilda Jon Lakland (John Lackland) “Buyuk Nizom”ga imzo chekdi. Keyinchalik mazkur hujjat mamlakat konstitutsiyasining asosiga aylandi. XVII asrda Angliyada ro‘y bergen konstitutsiyaviy inqilob vakillik boshqaruvining yaratilishiga kuchli turtki bo‘ldi.

Fransuz olimlari F.Demichelle (F.Demichelle) va M.Pikemal (M.Piqemalle) yangi burjua boshqaruvda xalqni chalg‘itish mumkinligini taxmin qildi, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiyada fuqarolarning bevosita ishtirok etishi dargumon edi. Olimlar maxsus saylovlar orqali parlamentda xalqning vakillari bo‘lgan elita shakllanishi lozimligini yoqlab chiqishdi [7].

Hokimiyatda xalq vakillik organlari, xalq hokimiyatini tashkil etishga erishish muammosi asrlar davomida turli xil siyosiy guruuhlar va ijtimoiy qatlamlarni “hayiqtirib turadigan to‘sif” bo‘lib kelgan. Bir necha bor hokimiyat tepasiga kelgan siyosiy kuchlar o‘z qonunchiligidagi “xalq vakilligi va xalq suvereniteti”dan eng muhim g‘oya sifatida foydalanganlar.

XVIII-XIX asrlarda rivojlangan vakillik tizimi fuqarolarga o‘z vakolatlarini vakillik organiga topshirish imkonini berish bilan chegaralanmadı. Parlament deputati nafaqat uni saylaganlar, balki butun xalqning vakiliga aylandi, shuning uchun u o‘z saylovchilariga qaram emas va ularni chaqirib olishlari ham mumkin emas edi.

XVII asrning oxiridan boshlab XIX asrga qadar parlamentarizm G‘oyalari shakllanib,

hokimiyatni ajratish doktrinasini ishlab chiqilganida parlamentga qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida alohida o‘rin berildi. Bundan tashqari, o‘sha paytda ham vakillik organlari xalqning irodasini ifoda etishi, qonunchilik faoliyati esa saylovchilarning ommaviy irodasi bilan bog‘liq, degan xulosaga kelgingan edi.

Hatto, J.Lokk o‘zining “Fuqarolik boshqaruvining haqiqiy kelib chiqishi, qamrovi va yakuni borasida risola” degan asarida ta’kidlagandiki, “Qonun chiqaruvchi hokimiyat, albatta, eng oliv hokimiyat bo‘lishi kerak va dunyodagi jamiyatlarning boshqa hokimiyatlari yoki har qanday a’zosi unga bo‘ysunadi” [8].

Amerikalik olim Bernar Manenning “Vakillik boshqaruvi tamoyillari” kitobida ko‘rsatib o‘tilgan vakillik hokimiyatining to‘rtta prinsipi bo‘yicha muallifning keltirgan izohi ham vakillik hokimiyati va fuqarolar hamda fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning mohiyatini ifodalab bergan [9]. Ushbu tamoyillar quyidagilar:

1. Boshqaruvchilar muntazam ravishda vaqtiga bilan saylov orqali saylanadi. Vakillar kengashi nafaqat mansabdor shaxslarning saylov asosida saylanishini, balki bunday saylovlarning takrorlanishini ham tasdiqlaydi. Saylovlarning ma’lum bir vaqt orasida takroriyligi juda katta natijalarga olib keladi. Vakolatlari doirasidagi faoliyati paytida hokimiyatda bo‘lganlar vakolat muddati tugagach, saylovchilar ularning faoliyatini qanday baholayotganlarini doimo yodda tutishlari kerak. Shunday qilib, saylovlar nafaqat liderlarni aniqlaydi, balki hokimiyatdagi guruhlarning siyosati va harakatlariga bevosita ta’sir qiladi. Vakolat muddati tugagach mansabdor shaxslardan hisobot talab qilinadi. Vakil hokimiyatda turganida elitani boshqaradi, ammo ular oddiy fuqarolar oldida ham hisob berishadi.

2. Vakillar o‘z faoliyati davomida siyosiy qarorlar qabul qilishda muayyan erkinlikni saqlab qolishadi. Bu, ular saylovchilarning xohishlari yoki saylov paytida ular hokimiyatga kelgan siyosiy platformalar bilan chambarchas bog‘liqligini anglatmaydi. E’tibor bersak, ushu holat saylovchilarni saylangan mansabdor shaxslarga ta’sir o‘tkazish imkoniyati nisbiyligini namoyon etadi. Faqat birinchisining istaklari va

ikkinchisining faoliyatida ijro izchilligi majburiy emas.

3. Boshqaruvchilardan mustaqil ravishda boshqarilayotganlar ham o‘zlarining fikrlari va siyosiy manfaatlarini ifoda etishlari mumkin. Vakillar ma’lum harakatlar erkinligiga ega bo‘lishlariga qaramay, umuman olganda, aholining har qanday qatlami singari odamlar ham o‘z nuqtai-nazarlari yoki noroziliklarini bildirish va istalgan paytda o‘z mansabdon shaxslarini tanlash huquqini saqlab qolishadi. Hattoki vakillar uchun majburiy saylovlar mandatiga qarshi kurashning eng ashaddiy raqiblaridan biri bo‘lgan Edmun Byork ham o‘zining tinchlik o‘rnatalishini to‘xtatish to‘g‘risidagi uchinchi maktubida (1796-1797) “xalq har qanday vaqtda o‘z qarashlari va xohishlarini ifoda etish huquqini o‘zida saqlab qoladi”, deb aytadi.

4. Qarorlar bahs-munozaralar orqali sinovdan o‘tkaziladi. Vakillik hokimiyati boshqaruvni muhokamalar orqali amalga oshirishi mumkin. Fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish va ularni ro‘yobga chiqarish fuqarolar saylagan vakillar zimmasiga yuklanishi, vakillar esa fuqarolar manfaatlarini davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirishi fuqarolik jamiyatni taraqqiyotini ta’minlaydi.

Vakillik hokimiyati – bu, xalq tomonidan yoki ularning bir qismi o‘zlarining saylangan vakillariga aniq belgilangan muddatga bergan, maxsus kollegial institutga birlashtirilgan vakolatlar to‘plami hisoblanadi. Shu bilan birga, vakillik hokimiyati saylangan vakillik organlari orqali ham mahalliy, ham davlat darajasida amalga oshirilishi mumkin.

Shu jihatdan biz qonun chiqaruvchi hokimiyatni oliv vakillik organlari amalga oshirishini ta’kidlashimiz mumkin. Biroq, ilmiy adabiyotlar, Konstitutsiyalarga (nizomlarga) oid sharhlarda va publisistikada kamdan-kam hollarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning vakillikka oid mohiyati aks ettirilgan.

Hokimiyatning vakillikka doir mohiyatida uning ko‘p qirrali ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish, demokratiyaning eng muhim muammolari, qonunchilikning dolzarbligi va to‘liqligi, davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari bilan samaradorligi haqida xulosa chiqarishimiz

mumkin. Bu yerda jamiyat va shaxs, davlat va davlat apparati o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Demokratiya va xalq hokimiyati hokimiyat nafaqat xalqqa tegishli ekanligini, balki ular tomonidan turli shakllarda to‘liq amalga oshirilishini anglatadi. Bunda davlat hokimiyati vazifalarini bajarishda aholining haqiqiy ishtiropi ta’milnadi.

Ma’lumki, Senat – bu vakillik organi bo‘lib, Senat a’zolarining ko‘pchilik qismi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining deputatlari sifatida mamlakatimiz oliy qonun chiqaruvchi organida ana shu mahalliy Kengashlarning vakolatli vakillari hisoblanadi va ularga hisob beradi [10]. Ayni vaqtida Senatda o‘zları vakil bo‘lgan hududlarning manfaatlarini himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq Senat va uning a’zolariga qonunchilik tashabbusi huquqi berilmagan (Parlamentning yuqori palatalari Rossiya, Belarus, Polsha, Chexiya, Ruminiya, Germaniya, Ispaniya, Sloveniya, AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Yamayka, Barbados, Beliz, Shveytsariya, Irlandiya, Ispaniya, Avstriya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda ham faoliyat ko‘rsatmoqda [11]).

Parlament o‘zining vakillik vazifasini amalga oshirar ekan, hokimiyat manbai bo‘lgan xalqning davlat hokimiyati bilan birlamchi, asosiy va doimiy aloqasini ta’minlab turadi. Shuning uchun qonun ijodkorlari, bir tomonidan, fuqarolarning haqiqiy hayotini bilishlari, uning qiyinchiliklari va muammolarini tushunishlari, turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlarini ko‘ra olishlari, boshqa tomonidan, davlat hokimiyati faoliyatini qonun ijodkorligi orqali belgilashlari, uni jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilishga majbur qilishlari kerak. Shu bilan birga, ijro hokimiyati ustidan nazorat o‘rnata olishlari kerak. Bunday munosabatlarning mavjudligi qonun chiqaruvchi hokimiyat davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari faoliyatiga befarq bo‘lmasligi yoki uning faoliyatini qonunlar amalda qanday bajarilayotganiga e’tibor bermasdan, faqat qonunchilik faoliyatini bilan cheklashi mumkinligidan dalolat beradi.

Vakillik hokimiyati to‘g‘risida mualliflik ta’rifini keltiradigan bo‘lsak, Vakillik hokimiyati – bu, qonunchilikda nazarda utilgan vakillik prinsipi asosida xalq irodasini ifoda etuvchi hokimiyat,

xalqning suveren huquqlarini amalga oshiradigan davlat hokimiyatining bo‘g‘inlaridan biridir.

Vakillik fuqarolarning davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish shaklini o‘z ichiga oladi. Xalq hamisha hokimiyat va kuchga ega, uni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bu aynan klassik demokratiyaning ko‘rinishi hisoblanadi [12].

Vakillik hokimiyati qonunlarning ijro etilishi, konstitutsiyaviy tuzumning saqlanishi va mustahkamlanishi uchun zamin yaratishi kerak. Agar qonun chiqaruvchi hokimiyat fuqarolar va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari va hayotiy maqsadlarini haqiqatan ham ifoda etmasa, unda qabul qilingan qonunlarning ijrosi ta’milanmaydi. Hatto kuchli hokimiyat ham buni amalga oshirishga qodir emas, chunki ayrim befarq fuqarolar eng jiddiy o‘zgarishlarni ham sezmaydilar. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyoti uchun eng kerakli, eng zarur qonunlar ham xalq tomonidan tushunmaslik yoki majburan kiritilishi bois bajarilmaydi.

Vakillik uning xalq (saylovchilar) oldida o‘zlarining, umuman, davlat hokimiyatining darajasi, vakolati va harakatlari uchun javobgarligini belgilaydi. Chunki ijro etuvchi va sud hokimiyati qanchalik mustaqil bo‘lmasin, ular qonunlar asosida hamda ularni amalda bajarish maqsadida tashkil etiladi va ishlaydi. Agar biz ijro hokimiyati o‘zi uchun tartibga soluvchi qoidalarni yaratganiga va sud hokimiyati jinoyatchilikka qarshi kurashda kuchsiz ekanligiga guvoh bo‘lsak, buning uchun, eng avvalo, qonun chiqaruvchi hokimiyat javobgar bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, vakillik demokratiyasini hokimiyat faoliyatini doimiy ravishda yuritish imkonini berdi va ular o‘zlar qabul qiladigan qonunlarda yoki qarorlarda xalq irodasini ifoda etish va shunga muvofiq davlat siyosatini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu fuqarolik jamiyatining ravnaq topishida katta ahamiyat kasb etdi.

#### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Миль Дж. С. Представительная власть // Теория и практика демократии. Избранные тексты: пер. с англ. / под ред. В. Л. Иноzemцева, Б. Г. Капустина. М.: Ладомир, 2006. –С.265.

2. Gierke O. Deutsches Privatrecht. Erster Band. Allgemeiner Teil und Personenrecht Dritte Auflage (Unveränderter Nachdruck der zweiten Auflage von 1936), Duncker & Humblot. Berlin.- P.895.

3. XVIII asrda Italiyada yashab ijod etgan shoir, san’atshunos.

4. Тацит Публий //О происхождении германцев и местоположении Германии. «Ладомир», 1993.

5. Энциклопедический словарь, Т. XXV. — СПб.: 1898. –Б.29-28.

6. Fukuyama, Francis. The origins of political order: from prehuman times to the French Revolution I st ed. 2011. –P. 587.

7. Институты и власть во Франции: пер. с фр. / А.Демишель, Ф.Демишель, М.Пикемаль; ред. М. А. Крутоголов. М.: Прогресс, 1977. –Б.12–14.

8. John Locke. An Essay concerning the true original, extent and end of civil Government (1690), Chapter 11. // Two Treatises of Government. Prepared by Rod Hay for the McMaster University Archive of the History of Economic Thought. www.yorku.ca/comminel/courses/3025pdf/Locke.pdf.

9. Bernard Manin. The Principles of Representative Government (Themes in the Social Sciences) //Cambridge University Press. 2010.

10. Сидиков Д. Олий Мажлис Сенати ва маҳаллий вакиллик органлари ўзаро ҳамкорлигининг янгича талқини // Халқ сўзи. – 2011 йил 12 апрель.

11. Иванова Е.Н. Порядок формирования парламента в России и зарубежных странах // Вестник Российского государственного гуманитарного университета. - 2010. - № 4. –С.11-19.

12. Батуев Ц. Б. Представительная власть как ключевая проблема общественно-политической жизни //Власть. 2012. №3.– С.108-

109.https://cyberleninka.ru/article/n/predstaviteley-na-vlast-kak-klyuchevaya-problema-obschestvenno-politicheskoy-zhizni.

UDK:316.1

## MAQSADNI BELGILASH VA UNING FUNKSIYALARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “maqsad” kategoriyasining mazmuni va mohiyati, o‘zgarishlar jarayonida maqsad va uning funksiyalarini aniqlash, boshqaruvda maqsadni qo‘yishning o‘rnini va samaradorlikka erishish yo‘llari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “maqsad” tushunchasi, maqsadni belgilash funksiyalari, maqsadni belgilashga yondashuvlar, ijtimoiy rivojlanish, boshqaruvda maqsadni belgilash, o‘zgarishlar jarayoni.

**Аннотация:** В данной статье анализируется сущность и значение категории “цели”, определение цели и его функции в процессе изменения, место постановки цели в управлении и пути его эффективного достижения.

**Ключевые слова:** понятие «цель», функции определения цели, подходы определения цели, социальное развитие, определение цели в управлении, процесс изменения.

**Annotation:** This article analyzes the content and essence of the “goal” category, defining the goal and its functions in the process of change, the role of goal setting in management, and ways to achieve efficiency.

**Key words:** the concept of “goal”, functions of goal setting, approaches to goal setting, social development, goal setting in management, change process.

Jamiyat taraqqiyotini ilmiy tahlil qilishda “maqsad” kategoriyasining o‘rnini aniqlash va o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsad odamlar faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘lib, o‘tmish, hozirgi va kelajak munosabatlari: maqsadlar – vositalar – natijalar zanjirini aks ettiradi. Shu bilan birga, vositalar o‘tmishning dialektik birligini ifodalaydi, mehnat qiladi, natijada kelajakdag‘i ideal obrazning yaratilishiga olib keladi. Atrofimizni o‘rab turgan obyektiv dunyoga nisbatan maqsad uni inkor etayotganga o‘xshaydi. Unda insonning ehtiyojlari va o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda ularning qoniqish ehtimoli o‘rtasidagi ziddiyat mayjud. Ushbu ziddiyatlar jamiyat amaliyoti jarayonida hal etilib, maqsad insonlar faoliyatining natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Maqsad” tushunchasi olimlarni anchadan beri qiziqtirib keladigan kategoriyaadir.



**Shohida SODIQOVA,**  
O‘zbekiston xalqaro islam  
akademiyasi professori,  
sotsiologiya fanlari doktori



Ijtimoiy rivojlanishda maqsadni ikki xil yondashuv: teleologik (natija, maqsadga erishilganlik) va deterministik (aniqllovchi)lar bilan asoslash mumkin. Tabiatning rivojlanishi oldindan belgilangan maqsadlar asosida sharhlanadi. Unda inson o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘z hayotining shart-sharoitlarini kengaytirish orqali ijtimoiy hayotda rivojlanishga imkon beradi. Ongli maqsadlarni belgilash qobiliyati ushbu xususiyatlar toifasiga kiradi. Ijtimoiy hayotning asosiy omillaridan biri – ongli ravishda amalga oshirilgan maqsadlarni aniqlash. Maqsad inson amaliy faoliyatining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatadi, o‘zgaruvchan, moddiy va ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq ravishda boshqariladi. Ular insonning faol tabiatini ongli anglatish imkonini beradi. Maqsad – harakatlar orqali yuzaga keladigan aqli natija qiyofasi. U kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqeliklarni tasvirlaydi.

Maqsad – muayyan natijaga erishish uchun kelajakdagi harakatlarning modeli.

Maqsad – faqat insonlarning ongida haqiqatning aksi bo‘libgina qolmay, balki u tashqi sharoitlarga, rivojlanish imkoniyatlari, harakatlarning foydasiga bo‘lgan munosabatlar ifodasi. Shu nuqtai nazardan, u ehtiyojlarning vazifasi sifatida xizmat qiladi. Bu hali mavjud bo‘lmagan, ammo amaliy insoniy harakatlar natijasida yaratiladigan predmet hisoblanadi. Maqsadda qadriyatlar munosabatlari aks etadi, bu bilish – baholash – amaliyotdir. Inson faoliyati birligida maqsad bilish va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lib xizmat qiladi. Xullas, ushbu maqsad amaliy va o‘zgaruvchan inson faoliyatining omillarini boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Faoliyat tuzilmasiga oid shart-sharoitlar, amaliy harakat va natijalarni birlashtirish mexanizmini shakllantiradi, shuning uchun ham bu obyektiv jarayonning ichki qonuni sifatida faoliyat yuritadi. Maqsad vositalar bilan bog‘liq, bu ularning natijasi bo‘lmasa ham. Vositalar insonning maqsadlariga nisbatan harakatlaridir. Vositalar orqali o‘zlarini natija bilan bog‘laydi va ular tufayli haqiqatni o‘zgartiradigan kuchga aylanadi. Vositalarga nisbatan maqsad birlamchi bo‘lib, subyektiv maqsad harakatlari sifatida oldinga chiqadi. Shu bilan birga, natijaga aylantirilgan faoliyat yangi maqsadlar vositasi hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida bu maqsad va vosita, sabab va oqibat, boshlanishi va natijasi,

subyektivlik va xolislik bo‘la oladi. “Maqsad – vositalar – natija” zanjiri inson faoliyatining yo‘nalishi va oxir-oqibatda ijtimoiy rivojlanishni belgilovchi sababchi munosabatlarning bir shakli hisoblanadi. Shuning uchun “maqsad” kategoriyasi ijtimoiy munosabatlar tizimida organik tarzda bog‘langan. Inson transformatsion faoliyati tizimli bo‘lib, u ham ijtimoiy rivojlanish mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda maqsad insonlarni doimo o‘zgaruvchan, tabiiy, moddiy va ijtimoiy hayot sharoitlariga moslashtirish funksiyasini amalga oshiradi. Amaliy faoliyatning maqsadlari orqali ikki qarama-qarshi, biroq o‘zaro bog‘liq rivojlanish shakllari mavjud: tasodifiy omillar va kelajakdagiga nisbatan noaniqlik ta’sirini aks ettiradigan o‘zgaruvchanlik hamda barqarorlikni tafsiflovchi tarixiy davomiylik, ijtimoiy munosabatlar va ularning takrorlanuvchanligi.

O‘zgaruvchanlik tufayli biz tabiat va atrofimizdagi ijtimoiy hayotda turlarning xilmalligi, ularning tug‘ilishi va vayrongarchiliklarni kuzata olamiz. Maqsadni belgilash har doim muayyan harakatlar majmuini tanlash va keng ijtimoiy ma’noda muayyan harakat turi bilan bog‘liq. Insonda u psixologik vositachilik qiladi, jamiyatda esa bu bilim, baholash va amaliyotda namoyon bo‘lgan ijtimoiy harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Axborot jarayoni, asosan, ilm-fan, mafkura va siyosat, moddiy ishlab chiqarish sohalaridagi haqiqiy moddiy-obyektiv faoliyatda baholanadi. Biroq, bilish, baholash va amaliyotga qaramasdan o‘z hayotiy faoliyatlarini ta’minlash uchun inson hamda jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan birgina aqliy va jismoniy jarayonning uch nuqtasini tasvirlaydi. Ushbu jarayonda maqsadni belgilash ichki omillar va ijtimoiy rivojlanishning tashqi sharoitlari ta’sirini muvozanatlashiruvchi moslashuv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqsad orqali insonning erkinligi amalga oshadi. O‘zgarishlar jarayoni insonning munosabatini, uning tanlovi, qarori, atrof muhit ta’siriga qarshi turish qobiliyatini aks ettiradigan jarayondir. Maqsad nafaqat qadriyatlarga tegishli, balki u erkinlikning ichki jihatini ham anglatadi. Shu ma’noda, erkinlik insonning hozirgi vaqt imkoniyatlariha yakuniy va oraliq, tez va uzoq maqsadlar tizimining amalga oshirishidir. Bu jarayon murakkab, bir tekis emas, chunki

insonlarning ko‘plab maqsadlari, jumladan, ziddiyatli kishilar tufayli ba’zi narsalarni tark etishi va boshqa maqsadlarga o‘tishi mumkin, vaziyatga qarab ularni o‘zgartirishi mumkin, bunda uning harakati moslashuvchan bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, maqsad – harakatning modeli. Bu harakatni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan belgilanadigan natijalariga qadar aks ettiradi. Shuning uchun ijtimoiy maqsadlarni o‘rganish va ilmiy asoslash ijtimoiy rivojlanish qonunlariga muvofiq boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ijtimoiy maqsad bevosita shaxsiy xatti-harakatlarni tartibga solish mexanizmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiradi. Maqsad insonni atrofdagi ijtimoiy dunyoga qaramligi, uning o‘zgaruvchan faoliyatda ishtiroti va maqsadlarni aniqlash jarayonida ijtimoiy tajribaning assimilyatsiyasiga asoslanadi. Maqsadni belgilashda inson turli imkoniyatlarni tanlaydi, uni amalga oshirishda tegishli vositalardan foydalanishda qaror qabul qiladi, unga erishishdagi to‘siqlarni belgilaydi. Shu bilan birga, bu tanlov shaxsiy maqsadni ijtimoiy maqsadlar tizimi va ularni qabul qilish bilan uyg‘unligini ta’minlaydi. Inson faoliyatini maqsadlarining determinizmi masalasini o‘rtaga qo‘yish kerak, shuni ta’kidlash kerakki, ilgari faylasuflar, sotsiologlar, iqtisodechilarning o‘zaro bahs-munozarasi bo‘lgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida uni yechishning muqobil an’anasi shakllandı. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish maqsadini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, eng asosiysi, ijtimoiy ishlab chiqarish hisoblanib, nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, balki inson hayot faoliyatining shart-sharoitlari sifatida tushuniladi. O‘z navbatida, ijtimoiy rivojlanish, uning shakli va tashkil etish vositalari ijtimoiy tizim yo‘nalishini belgilaydi. Manfaatlar jamiyat tomonidan ishlab chiqiladi, uni qayta ishlab chiqadi va o‘zgartiradi. Agar manfaatlar natija bermasa, uni boshqa yo‘nalishlarda o‘zgartirish talab etiladi. Manfaatlar rivojlanishning ayrim jihatlari bilan bog‘liq. Uning asosida ijtimoiy guruhlar, sinflar shakllanadi. Umumiylar manfaatlar maqsad va amaliy harakatlar birligi uchun zarur shart-sharoit hisoblanadi. Shuning uchun, muayyan jamiyatning rivojlanish maqsadlarini bilish, anglash uchun manfaatlarning ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqarish vositalari orqali ta’minlanishini bilish kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy ehtiyoj va ularning vositalari qanday

qondirilishi kerakligini ham bilib olish zarur. Xullas, maqsadni belgilash ko‘p tomonlama va ko‘p faktorli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi, u ko‘plab yechimlar va boshqaruv ishlarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Inson manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy maqsadlar turlicha bo‘ladi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, maqsadlar tasniflashni taqozo etadi. Umumiylar o‘ziga xos ijtimoiy rivojlanish qonunlarining o‘zaro ta’siri yakunlovchi, oraliq, o‘z maqsadi, darajali maqsadlarni aks ettiradi. Tanlangan o‘zaro munosabatlarning muayyan mazmuniga, faoliyatining mohiyatiga befarq emasligini yodda tutish kerak. Bu yakuniy maqsadga to‘g‘ri keladi, ya’ni asosiy maqsadni belgilovchi omil, insoniy sa’y-harakatlar faoliyat yo‘nalishlarida birlashib turishning asosiy maqsadi, oraliq maqsadga yo‘naltirilgan uzoq va murakkab qator tadbirlarga olib keladi, to‘g‘ri yakuniy maqsad esa rivojlanish jarayonining mohiyatini ifodalaydi. Uning mavjudligi ijtimoiy taraqqiyot modeli ta’siriga bog‘liq. Bu esa, harakatning yo‘nalishi, vaqt va makonda cheksizligini aks ettiradi. Ijtimoiy rivojlanishning yakuniy maqsadini aniqlash ijtimoiy va ma’naviy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyat rivojlanishi vositalari jarayonida o‘z maqsadi va darajali maqsadning muvofiqligi maqsadlar dialektikasini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatadigan odamlarning faoliyati aniq bo‘lgani sababli ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnik va ekologik maqsadlarni ajratib olish maqsadga muvofiq. Ushbu tizimda ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish qonunlari asosida ijtimoiy maqsadlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Inson manfaati maqsadlarda o‘z aksini topadi. Maqsad uzoq muddatli, kunlik, umumiylar, jamoaviy va shaxsiy bo‘ladi. Shu munosabat bilan muhim va ahamiyatsiz, uzoq, yaqin va bevosita, umumiylar va xususiy maqsadlarni ta’kidlash o‘rinli. Ijtimoiy maqsadlar tabiatan jamiyat maqsadlari bo‘lib, shaxs maqsadlaridan ko‘ra, shakllanish va amalga oshirishning turli mexanizmlariga ega. Zamonaliviy jamiyatda boshqaruv, jumladan, ijtimoiy prognozlash, ijtimoiy rejalashtirish va ijtimoiy dasturlash ijtimoiy maqsadlarni belgilash mexanizmi hisoblanadi. Ijtimoiy maqsadlar prognoz, reja va dasturlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, prognozlarda – uning ma’no-mazmuni, ya’ni kelajakdagide ideal

tasavvuri, rejalarda – boshqaruv qarori sifatida, lekin bu qarorni amalga oshirish uchun harakatlar ketma-ketligini hisobga olish zarur. Nihoyat, dasturlarda maqsad maqsadli tizim sifatida paydo bo‘ladi, ya’ni ideal tasvirning ajralmas birligi, faoliyatning tuzilishi va mavjud resurslar. Shu bilan birga, bu birlik faqat prognoz va rejalar mavjudligida erishiladi. Shuning uchun samarali maqsadlarni belgilash faqat uchta vositalar ijtimoiy boshqaruv tizimida organik ravishda birlashtirilganda amalga oshirilishi mumkin. Maqsadni belgilashning asosiy nuqtasi – vosita (amalga oshirish mexanizmi) orqali maqsad aniqlanadi. Bir vositaning ta’rifi bo‘lmagan maqsad hali haqiqiy maqsad emas, balki faqat dastlabki aqliy loyihadir. Maqsadni belgilash jarayonida muayyan vositalar yordamida ta’rifni olish orqali maqsad to‘liq shaklga ega bo‘lib, inson faoliyatida samarali omil bo‘ladi. Maqsad tashqaridan belgilanmasdan subyektning o‘zi maqsadni belgilasa, unga erishish yo‘li murakkab bo‘lib, mas’uliyat, ijodiy munosabat va tashabbuskorlikni talab etadi. Qo‘yilgan maqsad uchta asosiy qismdan iborat bo‘lishi zarur: umumiy vazifalar (tashkiliy maqsadlar), missiya, tashkilot mazmun-mohiyati. Umumiy vazifalar tashkilot mavjudligining asosiy sababini aks ettiradi. Uning ahamiyatini ifodalash, odatda, tashkilot faoliyat yuritadigan muayyan vaziyatdan kelib chiqib, olinadi. Masalan, oliy o‘quv yurtining asosiy vazifasi raqobatbardosh va yuqori malakali yosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Tibbiy muassasalarning vazifasi esa inson salomatligini tiklashdir. Umumiy vazifani shakllantirishda tashkilotning tashkil etilishi va faoliyat uchun manfaatdor tomonlar doirasiga e’tibor qaratish zarur. Odatda, ularning soni iste’molchilarni, xodimlar, tashkilot rahbarlarini o‘z ichiga oladi. Tashkilot vakolatlari umumiy maqsadning bir qismidir, tashkilotni boshqalar bilan taqqoslab, uning faoliyati ko‘lamini, shuningdek, mahsulot yoki xizmat turini belgilaydi.

Tashkilotning topshirig‘i, tashkilotning tuzilmasi aniq, izchil bo‘lishi kerak. Missiya tashkilotning maqsadlariga erishishning bir usuli hisoblanadi. Missiya tashkilotning maqsadlarini shakllantirish va amalga oshirish orqali uning

bajarilishiga mas’ul bo‘lgan yuqori boshqaruv tomonidan shakllantiriladi. Missiyani rivojlantirishda quyidagi asosiy elementlarga e’tibor qaratish kerak: asosiy mahsulot yoki xizmat ishlab chiqaradigan tashkilot; mahsulot yoki xizmatni sotish bozorini aniqlash; ishlab chiqarish texnologiyasining ko‘rsatkichi. Tashkilotning mazmun-mohiyati uning ijtimoiy maqsadi, ijtimoiy ahamiyatga egaligi va jamiyat uchun ijtimoiy foyda haqida tushuntirishdir. Tashkilotning mazmun-mohiyati axloqiy kategoriyada paydo bo‘lib, uning obro‘-e’tiborini ifodalaydi. Tashkilot obro‘sining jozibadorligini oshirish uchun rahbariyat ijtimoiy dasturlarda uning rolini oshirishga e’tibor berishi kerak.

### **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-sон farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasining dolzarb masalalari. Monografiya.– T.:Yoshlar nashriyoti uyi, 2020 yil.16,0 b.t.
3. Romanov P.V. Sotsiologicheskie interpretatsii menedjmenta: issledovaniya upravleniya, kontrolya i organizatsiy v sovremennom obijectve. – Saratov, 2000.
4. Sotsiologicheskaya entsiklopediya. V 2 t. T. 2. – M., 2003.
5. Sodiqova Sh. O‘zgarishlar sotsiologiyasi.O‘quv qo‘llanma.- T.: Akademiya, 2019 yil.
6. Sodikova Sh. The Neighborhood and the Family - The Basis of Educating Perfection/ International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume 9 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>, Germaniya. P. 96-104.

UDK:316.772(043)

## KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI ASOSIY PRINSIPLAR

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy prinsiplar – qonuniylik, sohaga yagona yondashuv, tizimni yaratishda (davlat xaridlarida) mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish, xalqaro hamkorlik uchun ochiqlik tushunchalari olib berilgan.

**Kalit so`zlar:** tizim, qonun, prinsip, kiberxavfsizlik, davlat, shaxs.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются основные принципы обеспечения кибербезопасности - законность, единый подход к сфере, приоритет местных производителей при создании системы (при государственных закупках), открытость к международному сотрудничеству.

**Ключевые слова:** система, право, принцип, кибербезопасность, государство, лицо.

**Annotation:** This article reveals the basic principles of ensuring cybersecurity - legality, a unified approach to the field, the priority of local manufacturers when creating a system (in public procurement), openness to international cooperation.

**Key words:** system, law, principle, cyber security, state, person.

**K**irish. 2022-yil 15-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonuni imzolandi. Hujjat Qonunchilik palatasi tomonidan 25-fevral kuni qabul qilingan, Senatda 17-mart kuni ma’qullandi. 40 ta moddadan iborat mazkur Qonun rasman e’lon qilinganidan 3 oy o‘tib, 2022-yil 17-iyuldan qonuniy kuchga kirdi [1]. **Yangi qabul qilingan “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonunga binoan, Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi deb belgilandi. Qonun bilan DXXga davlat tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga to‘sinqiliksiz kirish, ularni ko‘zdan kechirish va boshqa huquqlar berildi.** Qonunda sohadagi asosiy tushunchalarga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, kiberjinoyatchilik – axborotni egallah, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’midot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi hisoblanadi.



Nargiza  
SEYDABULLAYEVA,  
Qoraqalpoq davlat  
universiteti,  
yuridika fakulteti  
“Milliy g‘oya,  
ma’naviyat  
asoslari va huquq  
ta’limi” kafedrasi  
assistenti



Kibermakon esa – axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhitdir. Shuningdek, Qonunda boshqa ko‘plab zaruriy atamalarga ham izoh berilgan.

**Kiberxavfsizlikni ta’minlashdagi asosiy prinsiplar** – qonuniylik, shaxs va davlat manfaatlarini himoya qilish, sohaga yagona yondashuv, tizimni yaratishda (davlat xaridlarida) mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish, xalqaro hamkorlik uchun ochiqlik hisoblanadi [2].

**Dolzarbliyi:** Ushbu Qonunda ham, boshqa ko‘plab hujjatlar kabi O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan boshqacha qoidalarda ustuvorlik berilgan. Ya’ni, xalqaro shartnomada «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonundan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi.

Davlat organlari va tashkilotlari ham kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida vakolatli davlat organidan kibertahdidlar, dasturiy ta’minotdagi, uskunalar va texnologiyalardagi zaifliklar to‘g‘risidagi axborot va maslahatlar olish huquqiga ega. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari vakolatli organni kiberhujumlar to‘g‘risida ogohlantirishi, kiberhimoya uchun sertifikatlashtirilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanishi, sohaga doir normativ va texnik hujjatlarni vakolatli organ bilan kelishishi shart.

Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari hamda resurslari ma’lumotlarining saqlanishini ta’minlash ma’lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi, **ularning saqlanish muddati oxirgi 3 oydan kam bo‘lmasi** kerak.

Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza majburiy tartibda yoki kiberxavfsizlik subyektlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladi. Quyidagilar kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan majburiy tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi lozim:

- davlat organlarining axborot resurslari;
- davlat organlarining axborot tizimlari;
- muhim axborot infratuzilmasi obyektlari toifasiga kiritilgan axborot tizimlari.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari hamda resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalar majburiy tartibda sertifikatlashtirilishi lozim (19-modda).

**Kiberxavfsizlik hodisalarini vakolatli davlat organi yoki kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ishchi organning mansabdor shaxslari tomonidan** tekshiriladi. Shuningdek, texnik imkoniyatlarga ega bo‘lsa, axborot resursining o‘zi ham tekshiruv o‘tkazishi mumkin. Bunda u vakolatli organni natijalardan xabardor qilishi kerak [3].

**Tajriba qismi:** Haqiqiy muloqotdan farqli o‘laroq, ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa yuqori darajadagi hissiy ishonch bilan tavsiflanadi. Bu subyektiv xavfsizlik hissi va mas’uliyatning yetishmasligi kabi omillar bilan bog‘liq. Bularning barchasi internetdagي muloqotni haqiqiy dunyoga qaranganda ochiqroq qiladi [4].

Tarmoqli jamiyat bu jamiyatni o‘zgartirishning yangi vektori bo‘lib, uning keyingi rivojlanishini bashorat qilish nuqtai nazaridan doimiy e’tibor va tahlilni talab qiladi. Xusan, bu siyosiy tarmoqlar nazariyasi va yangi davlat menejmenti va davlat boshqaruvi mafkurasini anglash zarurligini bildiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning shaxsga va umuman, jamiyatga ta’sirining salbiy oqibatlari ham mavjud. Chunki, axborot oqimlarining tez o‘sishi, olingan ma’lumotlarni yetarli darajada baholash, tahlil qilish imkoniyatlarini susaytiradi.

**Natijalar tahlili:** Mamlakatimizda elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda.

Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtiroy etishi, jamiyat ahamiyatiga molik qonunlar va qarorlar loyihalarida faoliyk ko‘rsatishi maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalining yangi tizimi ishga tushirildi. Portalda bugungi kunga qadar 9461 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

joylashtirilgan bo‘lib, ular bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 38291 ta takliflar kelib tushgan, shuningdek, jamoatchilik vakillari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali ([regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz))da joylashtirilgan loyihalarni checklist to‘ldirish orqali korrupsiyaviy omillarni aniqlash nuqtai nazaridan baholashi mumkin.

**Xulosa:** Siyosiy jarayonlarda kommunikatsiya vositalarini qo‘llash, elektron hukumatni joriy etish har bir rivojlangan mamlakatga xos bo‘lib bormoqda. Jamiyatni boshqarish, davlat boshqaruvini xalq irodasi asosida amalga oshirish, fuqarolik jamiyatni qurish vazifalari yildan yilga takomillashib va demokratlashib borishi davlat hokimiyati oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ularning tubida inson uchun farovonlik, qulaylik yaratish, insonlarni

hamjihatlikda yashashi uchun boshqaruvning samarali usullarini topish va joriy etish yotadi.

Siyosiy kommunikatsiya insoniyatning ana shu yo‘ldagi eng katta olg‘a tashlangan qadamlaridan biridir .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.04.2022 y., 03/22/764/0313-sон.
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.04.2022 y., 03/22/764/0313-sон.
3. Nesterov V. Что выплавляют из «тонн словесной руды» или попытка реабилитации чатов. – URL: <http://flogiston.ru/articles/netpsy> (дата обращения: 23.05.2019).
4. Qirg‘izboev M. Siyosatshunoslik. Andijon davlat universiteti. —Toshkent: Yangi asr avlod, 2013. –B.420.

## **MA’NOLAR                  MAHZANI**

### **“QUTADG’U BILIG” HIKMATLARI**

Xalqni boshqarish sharafiga erishsang, amalda va so’zda faqat ezgulik qilgin.

Yigitlik davri o’tadi, tiriklik ham ketadi, bu rabot kabi dunyodan o’zing tez ko’chasan.

Hayotni zoye ketkazmasdan ezgulik qilishga intil, ezgulik kelgusida yegulik va kiygulik bo’ladi.

Tillarda ikki turli ot takrorlanib yuradi, bir yaxshi va bir yomon nom dunyoda saqlanib qoladi.

Yomonlar qarg’aladilar, yaxshilar oqlanadilar, o’ylab ko’r, qaysi biri senga ma’qul.

Ezgu bo’lsang maqtovga loyiqdirsan, agar yomon bo’lsang, tahqirga mahkumdirsang, ey latif.

Pastkash Zahhok nima uchun tahqirga loyiq bo’ldi, qutli Faridun nima uchun maqtovga sazovor bo’ldi?

Biri ezgu edi, uni maqtadilar, biri yaramas edi, uni qarg’adilar.

Sen uchun yaxshi nom ma’qulmi yoki yomon nom, tahqirni istaysanmi yoki maqtovnimi?

Qaysi birini itasang o’shanisini tanlagin, tanlaganining yaxshilikmi yoki yomonlikmi, so’ngra afsuslanmagin.

***Yusuf Xos Hojib***

UDK: 133.092

# NIZOMIY ARUZIY SAMARQANDIYNING MASHSHAIYYUNLARNING BUYUK VAKILI IBN SINO HAQIDAGI QARASHLARI



**Jaxongir USMANOV,**  
**Toshkent kimyo-**  
**texnologiyalari**  
**instituti Yangiyer**  
**filiali,**  
**katta o'qituvchi**



**Annotatsiya:** Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining "Majma' an-navodir" asarida mumtoz o'rta asr arab-musulmon falsafasi, ilm-fani oqimi Mashshaiyyun va bu oqimning Sharqdagi ikkinchi asoschisi Shayx-ur-Rais Abu Ali ibn Sino haqidagi ma'lumotlarni keltirgan. Maqolada Aruziy bilan Bayhaqiyning Ibn Sino haqidagi fikrlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Renessans, Mashshaiyyunlar, Shayx-ur-Rais, nodir hikoyatlar, falsafa tarixi.

**Аннотация:** Низами Арузи Самарканди в своём произведении «Собрание редкостей» приводит сведения о направлении перипатетизма в классической средневековой арабо-мусульманской философии, науке и о втором основателе этого направления Шайх ур-Раисе Абу Али ибн Сине (Авиценне). В статье проанализированы мнения Арузи и Байхаки об Авиценне.

**Ключевые слова:** Ренессанс, перипатетики, Шайх ур-Раис, редкие рассказы, история философии.

**Annotation:** Nizami Aruzi Samarqandi in his work "Collection of Rarities" provides information about the direction of peripatetism in classical medieval Arab-Muslim philosophy, science and about the second founder of this direction, Shaikh ur-Rais Abu Ali ibn Sina (Avicenna). The article analyzes the opinions of Aruzi and Bayhaki about Avicenna.

**Key words:** Renaissance, peripatetics, Shaikh ur-Rais, rare stories, history of philosophy.

**K**irish. Ma'lumki, qadimda va o'rta asrlarda Sharq, xususan Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri bo'lgan. Hozirgi O'zbekiston tuprog'ida ham Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va ko'plab boshqa buyuk allomalar yetishib chiqqanki, ularning ilmiy asarlari jahon ilm-fani va madaniyatining oltin merosiga kirgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblarida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans haqida fikr yuritib, quyidagilarni ta'kidlagan edilar: "Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa "Renessans" – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga

ayon. Ma'lumki, bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinci (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. Bu jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir” [1]. Nizomiy Aruziy Samarqandiy Birinchi Renessans vakili bo'lib, bizgacha uning yakka-yu yagona asari - “Majma’ an-navodir” yetib kelgan.

Sharqda qadimgi yunon falsafasi deganda, Arastu va uning Sharqdagi izdoshlari Kindiy, Forobiya va Ibn Sinolarni – “Sharq Arastuchilari”ni nazarda tutishgan. Ularning “peripatetiklar” degan nomi arabchasiga “Mashshaiyyunlar”, ya’ni “yurib, kezib yurgan holda falsafa ilmi, san’atini o’rganuvchilar” degan ma’noni bildirgan. Ana shu Mashshaiyyunlarning buyuk vakillaridan biri Abu Ali ibn Sino hisoblanadi. Aruziyning ibn Sino haqidagi fikrlari bugungi kungacha ko‘pchilikka noma'lumligi tufayli, yoritilayotgan mavzumiz dolzarb hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Maqolani yozishda asosiy manba bo'lib Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Majma’ an-navodir” asarining o'zbekcha tarjimasи “Nodir hikoyatlar” nomli kitobi xizmat qildi [2]. Mazkur asarda o'rta asr Renessansi davrida faoliyat ko'rsatgan va obro' qozongan buyuk mutafakkirlar, jumladan, ibn Sino haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asr davrida ibn Sino haqida Bayhaqiy ham yozib qoldirgan [3]. Ibn Sino o'zi yozgan tarjimayi holida asarlari va hayot yo'li haqida qisqa ma'lumotlarni bayon qilgan [4]. Beruniy va ibn Sinoning epistolyar, ya’ni maktublar orqali munozarasi qo'lyozma manbalarga tayanib 1975-yilda chop etilgan [4]. Ibn Sinoning hayoti va merosi A.Irisov, Yu.N.Zavadovskiy va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

**Muhokama.** Aruziydan sal oldin yashagan diniy va falsafiy ta'limotlar tarixchisi Abu-l-Hasan Bayhaqiy o'zining “Tatimma Sivan-al-hikma” asarining Fozil Shayh, Hakim Forobiya bag'ishlangan biobibliografik tarixida: “Aytadilarki, to'rt faylasuf bo'lgan – ikkitasi islomgacha. Bu Arastu va Iskandar (Aleksandr Afrodiziyskiy). Va yana ikkitasi – islom kelgandan so'ng. Bu – Abu Nasr (al-Forobi), ..., va Abu Ali...” [5], deb yozgan. Ibn Sino to'g'risida esa Bayhaqiy quyidagilarni yozgan: “Abu Nasr vafoti (950) va Abu Alining tug'ilishi (980) orasi – o'ttiz yil. Abu Alini uning shogirdi deb

hisoblash mumkin, buni uning (ya’ni ibn Sinoning) asarlariga qarab aytса bo'ladi. Abu Ali aytganki: “Men (Arastu) “metafizikasi maqsadlari” nimadan iboratligini bilishga qaratilgan urinishlardan, bu masalaga uning (Forobiyning) kitobiga to'qnash kelgunimga qadar, deyarli hafsalam pir bo'lgan, umidimni ham deyarli uzgan edim” [6]. Turli o'rta asr mualliflari o'z asarlarida keltirilgan Abu Ali ibn Sino “Tarjimayi holi”da ayni shu ahvolning bevosita izohini o'qiymiz: “Nihoyat mantiq, tabiat va riyoziy (matematika, geometriya) ilmlarni pishiq o'rgandim. Keyin ilohiyotni o'qishga o'tib... – “Metafizika” kitobini o'qidim. Unda yozilganlarni tushunolmasdim; bu kitobni yozgan kishi (ya’ni Arastu)ning maqsadlari mendan bekik edi. Hatto uni qirq bir bor qayta o'qidim, menga u hatto yod bo'lib ham qoldi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, men uni va uning (Metafizika) maqsadlarini tushuna olmadim...”

Kunlardan bir kuni asr vaqtida kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Unda bir dalol qo'liga muqovalangan (bir kitobni) tutib, uni maqtardi... Men uni sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning “Metafizika” kitobi maqsadlari haqida yozgan asari ekan. Uyimga qaytib, darrov uni o'qishga tushdim. (“Metafizika”) dilimda yod bo'lib qolGANI sababli, o'sha paytdayoq bu kitobning maqsadlari menga ochildi” [4:100].

Nizomiy Aruziy o'zining “Nodir hikoyatlar” asarida qadimgi yunon, Arastu falsafasi, peripatetiklar – Sharq Arastuchi peripatetiklari – Mashshaiyyunlar oqimining keyingi 1,5 ming yillik rivoji, mavqeい va o'ziga xosligini chuqr bilganligini ko'rsatib, ana shu ta'limotning mohiyati va ahamiyati to'g'risidagi talqinni ibn Sino ta'limoti misolida ilgari suradi. Ibn Sinoning “Al-Qonun fit-Tubb” asarini tanqid va rad qilib, unga qarshi “Islohi Qonun” kitobini yozgan kaltafahm bir muallifga o'z ta'na-dashnomalarini bildirar ekan, Aruziy quyidagilarni yozadi: “Qonun” kitobini qo'lga olganda, birinchi masalasiniyoq tushunishdan ojiz bo'lgan kishi qanday qilib shunday ulug' kishiga e'tiroz bildirishi mumkin?!

Eng qadimgi hakimlar falsafa ilmini ishlab chiqish uchun jon kuydirganlari, tinimsiz ter to'kkanylari, ammo uddasidan chiqa olmaganliklariga to'rt ming yil bo'ldi. Shundan keyingi muddatda haqiqiy hakim va buyuk faylasuf Aristotolis bu boylikni mantiq tarozusida tortib, chegarasini mahak

toshi bilan sinab va miqyos o‘lchovi bilan o‘Ichagach, bu fandan shak-shubha ko‘tarildi, ravshanlashdi va o‘z isbotini topdi. Undan keyin esa, bir ming besh yuz yil o‘tiptiki, keyingi avlodlarning eng afzali, Mashriq hakimi, xalq uchun “Hujjat-ul-haqq” Abu Ali ibn Sinodan o‘zga biror faylasuf Aristotolis so‘zlarining mohiyatiga yeta olmadi va fikrlarining katta ko‘chasidan o‘ta olmadi. Kimki bu ikki ulug‘ zotga e’tiroz bildirsa, o‘zini Aql ahlining doirasidan chiqaradi, tentaklar ahlining qatoriga kirgizadi va aqlsizlar ahlining jamiyati ichra o‘zini jilovgar qiladi” [4:72-73].

Aruziyning yuqoridagi bir oz mubolag‘ali, bir muncha tarafkashlikka yo‘l qo‘yan ta’rif va talqinida 1) qadimgi yunon falsafasining boshqa mакtab, oqimlari ta’siri hisobga olinmagan; 2) O‘rta va Yaqin Sharqdagi Yangi-platonchilik (neoplatonizm) mакtabining suryoniy-nasoro vakillari Plotin, Yamvlix, Porfiriy, musulmon Yangi-platonchilar Kindiy, Forobiyning falsafaga qo‘shgan hissalarini tilga olinmagan; 3) Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino, Umar Xayyom va boshqalar yaratgan, Mashshaiyyun vakillarining ilm va falsafadagi tub o‘zgarishlari tilga olinmagan; 4) barcha buyuk xizmat ibn Sinoga mansub, degan biryoqlamalik yaqqol ko‘rinib tursa-da, biroq Arastu falsafasining asl mohiyati, mavqeい va ahamiyati, uning rivojida Sharq mashshaiyyunlari qo‘shgan katta hissa ibn Sino timsolida bo‘lsa-da, to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

Aruziy ibn Sino haqida III maqolasida, yulduzlar ilmi va munajjimlikka bag‘ishlangan debochasida yozgan. Unda ibn Sinoning “Shifo kitobi”ning “Majistiyga sharh” bobini Aruziy Ptolomeyning astronomiya va jug‘rofiya asoslariga bag‘ishlangan “Almagest” asarining arab-musulmon Sharqidagi ikki tafsiri va sharhlaridan biri deb ko‘rsatadi: “Uning eng yaxshi tafsiri va eng yaxshi sharhi Nayriziy tafsiri va (ibn Sinoning) “Shifo” kitobining “Majistiy (sharhi)”dir”. Shu III maqola, 3-hikoyatida esa Aruziy Sulton Mahmud G‘aznaviyning “Abu Ali ibn Sinodan o‘zga unga (Beruniyga) teng kela oladigan kishi yo‘q!”, - degan bahosini keltirib o‘tgan. Bu ma’lumotda ibn Sinoning falsafa yoki tabobatdagina emas, astronomiya va munajjimlikda ham obro‘ qozonganligiga urg‘u qilingani diqqatga sazovor.

**Natijalar.** Aruziyning ma’lumotlari falsafa tarixi talablari nuqtai nazaridan aniqlashni,

isbotlashni talab qiladigan Beruniy va Ibn Sinolarning ilm-fandagi nufuzi bilan bog‘liq bahsmunozaralarga ham nuqta qo‘yadigan ahamiyatga molik. Beruniy bilan Ibn Sino o‘rtasida 996-997-yillari boshlangan qizg‘in falsafiy bahs-munozara I-III turkumlarda davom etgan. Maktublar vositasidagi bahs davomida ibn Sinoga buyuk Arastuchi-Mashshaiyyun sifatida savol bilan murojaat qilgan Beruniy uning javoblaridan qoniqmay, unga qattiq e’tiroz bildirib, kinoyalar qilgan edi. Ibn Sino esa bahs-munozarani o‘zi davom ettirmay, unga javoblarni o‘z shogirdi Abu Abdulloh Mas‘umiya topshirgan edi [6]. Bayhaqiy o‘z asarida ibn Sinodagi qiziqqonlik, o‘jarlik, kibr va manmanlik kuchli bo‘lganlini, u Jasaliq, Beruniy, keksa ibn Miskavayhga va yana ko‘plab boshqa olimlarga nisbatan “beadab munosabatda bo‘lishiga”, natijada o‘z atrofidagi ko‘plab kishilar bilan oqilona murosayu madora qila olmay, doimo nizo, fisq-u fasod bilan umr o‘tkazganligini ta‘kidlagan [7].

Ibn Sinoning qiziqqonligi, o‘jarligi va kibri, ba‘zan noxolis munosabatiga keladigan bo‘lsak, uning ilmiy va falsafiy yutuqlari, 17-18 yoshidayoq O‘rta va Yaqin Sharqda mislsiz tabib deb shuhrat qozonganligi, Somoniylar saroy ulamolari, davlat arboblari, ayniqsa keng xalq ommasining olqish, alqovlariga sazovor bo‘lganligi, o‘z davri ilmlarining deyarli barcha sohalarini 19-20 yoshida chuqur egallab, falsafa, mantiqda yutuqlarga erishib, “Shayxur-Rais” [4:95-112] degan faxrli obro‘ qozonganligi, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Mahmud G‘aznaviy, Qobus ibn Vushmagir, Buvayhiylarning shahanshohi A‘louddavla, Shamsuddavla va boshqalarning ibn Sinoni o‘z saroylarida, xizmatlarida ushlab turish maqsadida talashib-tortishib, hatto o‘zaro urush e‘lon qilishlari (masalan, Mahmud G‘aznaviyning Xorazmshohlarga ibn Sino va boshqa olimlarni yuborishni ultimatum vositasida talab qilishi) [2:74-75, 79-82] va nihoyat Bosh vazir, qo‘shin qo‘mondoni bo‘lish kabi ijtimoiy-shaxsiy va davlatdorlik juda yosh ibn Sinoda yuqoridagi ba‘zi salbiy xususiyatlarni, o‘zini tabobatda, falsafada Arastudan keyingi yagona avtoritet deb hisoblashlarini talab qilishi, bu borada “aytganini qildiradigan”, o‘z azmi-jahidan qaytmaydigan, o‘zini hamma narsada haqligiga aminlik tuyg‘usi, irodasi, fe'l-atvorini tug‘dirgan obyektiv va subyektiv sabablar bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Aruziy ibn Sinoning fundamental tabiatshunoslik fanlari, falsafa va mantiqda, siyosatdagi yutuqlariga shu qadar yuqori baho berib yuborganki, “Abu Ali ibn Sinodan o‘zga biror faylasuf Aristitolis so‘zlarining mohiyatiga yeta olmadi va fikrlarining katta ko‘chasidan o‘ta olmadi”, degan Aruziy so‘zlarini mubolag‘ali baho, talqinlarini bir ixlosmand, izdosh shogirdning jo‘shqin so‘zlari sifatida tushunish mumkin. Asaridagi ibn Sino bilan bog‘liq o‘rinlarida Aruziy ibn Sinoni, Umar Xayyomni nafaqat ilmda, adabda, falsafada, balki maslak va e’tiqodda ham o‘zining ma’nnaviy ustozlari sanashini qayta-qayta ta’kidlab o‘tadi [2:85].

Xorazm davri va Jurjon, Ray va Hamadon davrlariga oid Aruziy ma’lumotlari ibn Sinoning o‘zi va izdoshi Abdulvohid Juzjoniyning Shayx-ur-Raisdan eshitib yozib qoldirgan “Ta’rix ahvoli Shayh-ur-Rais”, Qiftiy, Ibn Abi Usaybia, Bayhaqiy, Yoqt kabi mashhur o‘rta asr arab-musulmon tarixchilarini, tazkirashunoslari qoldirgan xabarlar, shohidliklarini yo to‘ldiradi, yoki aniqlik kiritadi. Shular orasida Xorazm “Ma’mun Akademiyasi”ga ibn Sinoning kelgan-ketgan yillari (999-1018), akademiya tarkibi, a’zolari, ularning hayot tartiboti va ta’minoti, Shayx-ur-Rais maktabi a’zolari ro‘yxati, ularning dars, yo‘nalish va mundarija, muammolari va hokazolarga ancha muncha qo‘srimchalar qo’shamdi. Shuningdek, ibn Sinoning shaxsiy, oilaviy hayoti, shogird va ixlosmandlariga dars berish usuli, metodlari, davlat arbobi sifatida Alouddavla Buvayhiyning vaziri yoki davlat a’yonisi sifatidagi faoliyati, xalqni qabul qilish kun tartibi, talabalarga har kuni subhdan tong otguncha – bomdodgacha dars berish, nomoz, bemorlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish tartiblari ancha-muncha mufassal, hatto Melanxoliya kasali bo‘yicha Alouddavla odamlaridan birini favqulodda davolash usuli – psixotrening usuli bilan davolaganligi haqida ma’lumotlar bergan. “Bu hikoyani keltirishdan maqsad, - deb yozgan edi Aruziy, - Hojaning (ibn Sino) bir daqqa ham bo‘sh vaqt bo‘lmaganligini ko‘rsatishdir” [2:85]. Hatto Vazir bo‘lib turganda, Armiyaga – askar va qo‘mondon – zabitlarga qat’iy oylik-maosh to‘lash tartibini joriy etishga uringanligi uchun ularning isyoni, ta’qibi, o‘lim xavfidan qutilish

uchun necha oylab qochib, yashirinib yashash kabi taxlikali hayoti, shaxsiy hayotining injiqqliklari, lekin olimning muttasil ilm o‘rganish, izlanish, tadqiqot olib borishga intilgani jonli, hatto sarguzasht va ibrat tarzida ko‘rsatib berilgan.

**Xulosa.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusida: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir” [1], deb ta’kidladilar. Shuning uchun bugungi kungacha o‘rganilmagan yoki kam o‘rganilgan manbalarni tadqiq qilish, tarjima qilib, keng ommaga yetkazish muhim vazifalardan hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:


1. Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston" gazetasiga bergan tarixiy intervyusi (to‘liq) // <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoevning-yangi-uzbekiston-gazetasiga-bergan-tarixiy-intervyusi-tuliq>
2. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар. - Т.: АЧН, 1985.
3. Абу-л-Хасан ал-Байҳаки. Татимма Сиван ал-хикма. // С.Г.Багирова. Сочинение «Татимма Сиван-ал-хикма» ал-Байҳаки как образец средневекового энциклопедического справочника. Т.:Фан, 1987.
4. Абу Али ибн Синонинг ўзи ёзган таржимайи ҳоли. // Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. Т.: Фан, 1959.
5. Беруни и Ибн Сина. Переписка. Т., 1975.
6. Абу-л-Хасан ал-Байҳаки. Татимма Сиван ал-хикма. С.40-41.
7. Мирзаев С. Ибн Синонинг Шарқшунослик институтида сақланаётган асарлари Библиографияси. Т.:Фан, 1955. 32-46 бб.; Ирисов А. Абу Али Ибн Сино. Ҳаёти ва ижодий мөроси. Т.:Фан, 1987. 208 б. - 42-87 бб.; Завадовский Ю.Н. Ибн Сина (Жизнь и творчество). Душанбе: Ирфон, 1980. 304 с. - С.77-204

UDK: 9509(575.1)

## TEMUR TUZUKLARIDA RAG‘BATLANTIRISH, TAQDIRLASH ISHLARI TAHLILI



**Diyorjon  
ABDULLAYEV,**  
Toshkent  
davlat pedagogika  
universiteti  
dotsenti,  
tarix fanlari  
doktori (DSc)



**Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishda yangi tadqiqot hisoblangan taqdirlash ishlari hamda mukofotlash tizimining Amir Temur sultanati davridagi holati “Temur tuzuklari” misolida tahlil etilgan. Taqdirlash hamda mukofotlash ishlari haqida Amir Temur fikrlari tarixiy dalillar bilan bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** rag‘batlantirish, mukofot, Temur tuzuklari, ulufa, tarkash, unvon, harbiy martaba, qimmatbaho buyumlar, amirlar, amaldor, taqdirlash.

**Аннотация:** В данной статье анализируются наградные дела, являющиеся новым исследованием в изучении истории узбекской государственности, а также состояние наградной системы в период правления Амира Темура на примере “Уложение Темура”. Мнения Амира Темура о награждении и наградных работах подкреплены историческими фактами.

**Ключевые слова:** поощрение, награда, Уложение Тимура, улуфа, таркаш, звание, военная карьера, драгоценности, эмиры, чиновник, награждение.

**Annotation:** This article analyzes the work of awarding, which was considered a new research in the study of the history of the Uzbek statehood, as well as the state of the reward system during the reign of Amir Temur as the example of “Timur’s Code of Conduct” (Temur tuzuklari). Amir Temur’s thoughts about awarding and awarding works are explained by historical facts.

**Key words:** encouragement, reward, Timur’s code, ulufa, tarkash, rank, military career, jewelry, emirs, official, awarding.

**K**irish. Mavarounnahrda ikkinchi renesans nomini olgan va gurkirab rivojlangan davr Amir Temur va Temuriylar davrida o‘z cho‘qqisiga erishganligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, ijtimoiy sohalarning rivojlanishida albatta, sohibqiron Amir Temurning siyosiy irodasi, davlat va jamiyat boshqaruvining asosiy qomusi sanalgan “Temur tuzuklari”ning o‘rnini beqiyos. Sababi, tuzukda saltanatning har tomonlama rivojlanishi va ilm-fan sohalari taraqqiy etishida Temur strategiyasi asosiy omil bo‘lgan.

**Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati.** Davlatchiligidan turli bosqichlarida shakllangan hamda rivojlanib borgan taqdirlash va mukofotlash masalalari ham aynan Amir Temur va Temuriylar davrida o‘z statusiga ega bo‘lib, ma’lum bir darajada bu sohaning rivojlanish bosqichini belgilab beradi. Taqdirlash hamda mukofotlash ishlari bayoni, uning yo‘riqnomasi Temur tuzuklarida ham keng va atroficha bayon etilgani va amaliyotda keng qo‘llanilgani bunga misol bo‘la oladi. Amir Temur va Temuriylar davrida taqdirlash ishlarini tahlil qilishda sohibqiron tomonidan yaratilgan “Temur tuzuklari”ni o‘rganib chiqish katta ahamiyatga ega. Aynan uning tuzuklarida keltirilgan har bir noma o‘sha davr hayotida qo‘llanilgan hamda amaliyotga tatabiq etilgan.

**Tajriba qismi.** Temur tuzuklarini o‘rgana turib, undagi mukofotlashga oid masalalar Qonunlar, ularda ra‘iyat ahli manfaati ko‘zda tutilgan jihatlarga oid tuzuklar; Temurning saltanatni o‘z erkida tutish tuzugi, tanho va ulufalar berish tuzugi; o‘g‘illar va nabiralarga ulufa berish tartiblari; in’om va sovg‘alar berish tuzugi; vazir tutish tuzugi, amirlik va hukmdorlik tuzugi; sipohiylarni eng quyi darajadan oliy martabagacha ko‘tarish tuzugi, ya’ni harbiy huquqqa oid qoidalar; amirlar, vazirlar, sipoh hamda ra‘iyatni taqdirlab, in’om va sovg‘alar berish; navkarning begiga, bekning navkarga muomalasi tuzugi; do‘s-t-u dashmanga muomala qilish tuzugi, mamlakatlarni zabit etish tuzugi; ra‘iyatdan mol-xiroj olish tuzuklarida garchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kengash yoki alohida modda bag‘ishlangan bo‘lmasa-da, ularda, ra‘iyat ahli manfaatini ko‘zda tutilgan jihatlar, inson va qonun masalasi, inson huquqlari muammolariga bag‘ishlangan qoidalarda ko‘p uchraydi.

“Tuzuklar”dagi ra‘iyat ahli uchun nazarda tutilgan qonunlar shuni ko‘rsatadiki, fuqarodan bir nima talab qilishdan oldin davlat unga tegishli shart-sharoit yaratib bermog‘i lozimligi, agar davlat xalq manfaati bilan hisoblashmasa, unda xalq davlatga berilgan huquqni olib, boshqa

ishonchlirog‘iga berishi lozimligi ifoda etilgan [1, b.71].

Amir Temurning har bir voqeaga, har bir fuqaroga, olim-u fuzaloga, sipohga adolat bilan qaragani, ularni turli sovg‘a va in’omlar bilan taqdirlaganini uning bir umrlik muvaffaqiyatini ta’minalashga asos bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, “Qaysi amirga tiyul berilar ekan, – deb yozadi Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da, – uni uch yilgacha o‘z holiga qo‘ysinlar. Uch yil o‘tgandan so‘ng uni tekshirib ko‘rsinlar. Agar mamlakat obod, ra‘iyat rozi ekan, shu holicha qoldirsinlar. Agar ahvoli bunga xilof ravishda bo‘lsa, ul viloyatni xolisa (davlat ixtiyoridagi barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv)ga o‘tkazib, uch yilgacha o‘sha jogirdor (in’om etilgan yer-suv (tiyul) egasi)ga ulufa berilmasin” [5, b.71-72]. Bundan anglash mumkinki, birinchidan, Temur tomonidan har qanday xayrli ish rag‘batlantirilgan, ikkinchidan, inson o‘z xatosidan saboq olishi, qayta takrorlamaslikka, eng muhim qonunni qayta buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi nazarda tutilgan.

Amir Temur o‘zining siyosatini amalga oshirishda, davlatni boshqarishda ulamolar, ilm-fan ahllari va yuqoridagi tabaqa vakillariga qattiq tayangan. Amir Temur ana shu tabaqalarning xizmatidan ularning ijtimoiy mavqeiga qarab foydalangan hamda ularni taqdirlab turgan. Uning davrida feodal mulkchilik rivojlangan, jumladan, askar boshi, shoir va katta martabali ruhoniylarga, devon xizmatchilariga suyurg‘ol tariqasida mulklar in’om qilib berilgan, alohida xizmat ko‘rsatgan beklarga, lashkarboshilarga beriladigan yer, suv mulki yoki bo‘lmasa ma’lum joydan tuman, viloyatdan o‘z foydasiga soliq yig‘ib olish huquqini beradigan – suyurg‘ol mulki\* vujudga kelgan [3, b.78].

Amir Temur suv chiqarib tashlandiq, quruq va bo‘z yerni obod qilgan kishilarni rag‘batlantirib, ularga katta imtiyozlar bergen. Masalan, “Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili ra‘iyat roziligi bilan

\* Suyurg‘ol – (eski o‘zbekcha) – in’om, sovg‘a, marhamat. O‘rta asrlarda qo‘shin boshliqlari, ko‘zga ko‘ringan saroy shoirlari, yirik mansabdorlar, yirik musulmon ruhoniylari va shu kabilarga davlat oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari evaziga xon va podshohlar tomonidan qilinadigan turli-tuman in’om, yer-suv, kiyim-kechak, mol-u mulk va boshq..

berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar” [5, b.99]. Bu yerda yana ahamiyatli tomoni shundaki, xiroj yig‘ishda ham ko‘r-ko‘ronalikka, pala-partishlikka yo‘l qo‘yilmagan, balki shaxsan Amir Temur farmoni bilan xirojni ekindan olingan hosilga, yerning unumdorligiga va boshqa shart-sharoitlarga qarab olganlar.

Amir Temur davlatining harbiy sohasida harbiy unvon hamda darajalar bilan taqdirlash ishiga ham katta e’tibor qaratgan. Aynan, Sohibqiron “Tuzuklari”da bu jarayonlarni quyidagicha izohlagan: “...amirlarim va sipohiyalarimni martaba va unvonlar bilan, zar-u zevarlar bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga (o‘z yonimdan) o‘rin berdim, shuning uchun jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig‘ tutmadim...” [5, b.53].

Jumladan, amirlar darajasiga qarab, qo‘shinga bosh bo‘lgan. Masalan, birinchi amir - ming kishiga, ikkinchi amir - ikki ming kishiga, uchinchi amir - uch ming kishiga bosh bo‘lgan. Amirlar o‘z darajalariga qarab bir-biriga noib etib tayinlanganlar. Masalan, birinchi amir ikkinchi darajali amir noibi bo‘lgan. To‘rt nafar beklarbegi darajasi harbiy darajalarining eng oliysi hisoblangan [4, b.136]. O‘n ikkinchi darajali amir esa amirul umaroning noibi hisoblangan. Amirul umaro esa Amir Temurning noibi deya e’tirof etilgan.

“Temur tuzuklari”ning “Amirlar, vazirlar, sipoh hamda ra‘iyatni taqdirlab, in’om va sovg‘alar berish tuzugi” deb nomlangan qismini o‘rganish natijasida Amir Temur va Temuriylar davrida taqdirlash, mukofotlash ishlariga alohida e’tibor qaratilganligini anglaymiz. Jumladan, tuzukda bayon etilishicha, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa yoki dushman askarini yengsa, uni uch narsa bilan mukofot etganlar. Birinchisi, faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, bahodir nomi berilgan. Ikkinchisi, uni davlat va saltanat sherigi hisoblab, kengash majlislarida ishtirok etishga ruxsat berganlar. Uchinchisi, unga chegara viloyati topshirilib, o‘sha yerlik amirlar unga bo‘ysungan [5, b.80-81]. Shuningdek, amirlardan qaysi biri dushman tasarrufidagi hududni ozod qilsa, unga o‘sha yerlar uch yilga in’om tariqasida berilgan. Qaysi bir askar qilich chopib bahodirlik ko‘rsatsa, unga in’om tariqasida chumoq, qimmatbaho toshlar

qadalgan o‘tog‘a, kamar, turna bellik qilich va bir dona ot berilib, u o‘nboshilik martabasiga ko‘tarilgan. Ikkinchisi, uchinchi bor bahodirlik ko‘rsatsa, yuzboshi va mingboshi martabasiga yetishgan [5, 82].

“Temur tuzuklari”ning “Katta nog‘ora va bayroq ado etish tuzugi” deb nomlangan qismida ham amirlarni turli belgilar bilan rag‘batlantirish hamda mukofotlash tartibi bayon etilgan. Jumladan, unga ko‘ra, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq (alam) va bir nog‘ora berilgan. Amirul umaroga bayroq va nog‘ora, tumon tug‘i va chortug‘ (bayroqning ikki xili yoki amirlarning darajasini bildiruvchi uchi o‘tkir nayza) taqdim etilgan. Mingboshiga bir tug‘ va karnay (nafir), yuzboshi va o‘nboshiga bittadan katta nog‘ora (tabal) berilgan. Aymoqlarning amirlariga bittadan burg‘u, to‘rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortug‘ va burg‘u topshirilgan. O‘n ikki amirdan qaysi biri dushman ruhiyatini sindirsaga yoki dushman qo‘lidagi biror hududni fath etsa uni taqdirlab, amirlik darajasidan kelib chiqib uning martabasi oshirilgan. Har bir darajadagi amirga darajasidan kelib chiqib shuncha miqdorda tumontug‘ va chortug‘ olish martabasiga yetkazilib rag‘batlantirilgan [5; b.82-83].

**Olingen natijalar tahlili.** Amir Temur o‘zining harbiy yurishlari davrida lashkarlarini uyushtirish hamda sodiqlik bilan xizmat qilishi uchun ularni rag‘batlantirib, har doim taqdirlab turganini o‘z asarida shunday ifodalagan: “...ularning hammasini umid va qo‘rqinch orasida saqladim. Har biriga bittadan noib va kutvol tayinladim. Qolgan sipohiyarlari ham yemakichmak, kiyim-kechak umidi, shirin so‘z, ochiq yuz bilan o‘zimga rom etdim. Bir xizmatini o‘n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud ayladim. Natijada, meni qo‘llab-quvvatlaganlar ham, teskari bo‘lgan munofiqlar ham, barchasi atrofimda birlashdi. Har ishda birlik-ittifoqliqni mahkam tutishga, amrimdan chiqmaslikka va’da berib, men uchun mol-jonlarini ayamay, maydonda jonbozlik ko‘rsatishga ahd qildilar”[5; b.32]. Masalan, Sohibqiron sipohiylardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o‘tog‘a (bosh kiyimga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynatli belgi), kamar va tarkash (sadoq-o‘qdon) taqdim etib, martabalarini ko‘targan. Masalan, Rum (Vizantiya)ga yurish vaqtida

ularning xizmatlari mukofoti sifatida yetti yillik ozuqalarini birdaniga topshirgan [5; b.65].

Amir Temur o‘rtalasharoitida katta yoshdagi sipohiylargacha ham e’tibor bergen. Buxususida, “Tuzuklar”da jumladan shunday deyiladi: “Qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetar ekan, uni oylik haqdan mahrum etmasinlar va martabasidan tushirmasınlar. Hech bir sipohiyning xizmati nazardan chetda qolmasin. Chunki ular davlat xizmatida ekan, boqiy hayotlarini foniylar dunyo naqdi uchun ayamaganining o‘zi ham in’omga va moddiy ta’minotga loyiqligini bildiradi. Uni in’omidan mahrum qilib, xizmatlarini ko’rsatmasalar, noinsoflik qilgan bo‘lurlar”[5; b.79].


Tarixiy manbalarda ham Amir Temurning urushda jarohat olgan, keksayib qolgan harbiylarga e’tibor bilan qaragani, kerak bo‘lsa, ularga alohida nafaqa tayin etganligi, tegishli mukofot va sovg‘alar taqdim etganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, qo‘shinda har bir mansabdar shaxsga bir-biridan farqlanuvchi harbiy anjom-aslahalar berilgan. Amir Temur o‘z davlatining harbiy sohasida navkarlarning urushdagini har bir harakati va muvaffaqiyatini befarq qoldirmasdan ularni ham rag‘batlantirish hamda martabasini oshirishga e’tibor qaratgan. Sohibqiron tomonidan “Agar navkarlardan biri qilich chopishib, g‘animni sindirar ekan, g‘arazgo‘y odamlarning uning haqida aytgan gaplariga qulq solmasinlar. Uning qilgan xizmatlarini yashirmslik lozim, aksincha, bir xizmatini o‘nga yo‘ysinlar, martabasini oshirsinlar, toki boshqa navkarlar buni ko‘rib jonbozlik qilishga rag‘batlansinlar”[2; b.14] deb ta’kidlanganligi hamda amalda qo‘llanilganligi Amir Temur

davlatining zafarli g‘alabalariga asosiy omillardan biri bo‘lganligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillardan aytish mumkinki, “Temur tuzuklari”da qayd etib o‘tilgan taqdirlash, mukofotlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bu davrda aynan shu sohadagi tadrijiy ko‘tarilish yuz bergenligini ifodalaydi. Amir Temur siyosatida rag‘batlantirish hamda taqdirlash ishlarining yuqori e’tiborda o‘rin olganligi va ularning to‘xtovsiz amalga oshirilganligi saltanat taraqqiyotidagi muhim bir omillardan biri sanaladi. Shuningdek, taqdirlash ishlarining aynan Temuriylar davrida keng qo‘llanilganligi davlatchilik tariximizda mukofotlash tizimining XIV-XV asrlardagi bosqichi yuqori rivojlanganligidan dalolat beradi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Амир Темур: Ривоят ва ҳақиқат. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996.
2. Амир Темур ўйтлари. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007.
3. Муқимов З. Амир Темур тузуклари (тарихий-хуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008.
4. Одилов А. Амир Темур тузуклари – давлат бошқаруви асоси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016.
5. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси, Б.Ахмедов таҳрири. - Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.



UDK: 74. 521.

# QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ILK O'RTA ASR JAMIYATINING IQTISODIY RIVOQLANISHIGA DOIR BA'ZI BIR CHIZGILAR



**Abdulla  
QURBONOV,**  
Urganch davlat  
universiteti tarix  
fakulteti mustaqil  
izlanuvchisi



***Annotatsiya:** Maqolada milodiy V-VI asrlar birinchi yarmi Xorazm vohasi jamiyatida iqtisodiy munosabatlarda yuz bergen o'zgarishlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Tolstov S.P., Egamberdieva N., Askarov A., Lukonin V.G., Schmidt A.E., Nerazik Ye.E. Kuyi Amudaryo, Qizilqum, Qoraqum, Sosoniylar, Afrig'iylar, Kerdar.*

***Аннотация:** В статье анализировано изменение экономических отношений в обществе в половине V-VI в Хорезмского оазиса.*

***Ключевые слова:** Толстов С.П., Эгамбердиева Н., Аскаров А., Луконин В.Г., Шмидт А.Э., Неразик Е.Е. Низовья Амудары, Хорезм, Кызылкум, Каракум, Сасонаиды, Эфталиты, Афригиды, Кердер.*

***Annotation:** The article analyzes the changes in economic relations in the society of Khorezm oasis in the first half of the 5th-6th centuries AD.*

***Key words:** Tolstov S.P., Egamberdieva N., Askarov A., Lukonin V.G., Schmidt A.E., Nerazik E.E., the Lower Amu Darya, Kyzyl-kum, Karakum, Sassanids, Afrighians, Kerdar.*

Xorazm vohasi geografik o'rniga ko'ra, Amudaryo quyi qismida joylashgan bo'lib, bu hududda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar Markaziy Osiyo xalqlari ilk o'rta asr tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, ilk o'rta asrlar davri (V-IX asrlarning birinchi yarmi) da bu jarayonlarning yangi bosqichga ko'tarilishi kuzatiladi. Buning tasdig'i sifatida XX asrning o'rtalarida, S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida o'z ma'nosini topgan. Bu ekspeditsiya xodimlari bir necha o'n yillar mobaynida Xorazm vohasi va unga tutash hudud bo'lgan Sariqamish havzasida izlanishlar olib borishi natijasida olingan arxeologik ashyolarga ko'ra, umrguzaronlik qilgan ajdodlarimiz bu hududlarni o'zlari tomonidan o'zlashtirishgan. Turar joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini asos qilib olgan nashrlarda qayd qilinishicha, Xorazmda antik davr aholi turar joylari mil. avv. VI asrning birinchi yarmida me'moriy

uslubini saqlab qolgan [1.2020.164-bet]. Ilk o‘rta asrlarga kelib yangi bir ko‘rinish ola boshlagan shaharlar yirik ma’muriy markazlar vazifasini bajargan, etnik munosabatlar kechgan. Shaharlarning asosi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy munosabatlar bo‘lgani bois ilk o‘rta asrda ular negizida madaniy-xo‘jalik markazlarning ahamiyati saqlanib qolgan. Bu markazlar doirasida faoliyat olib borgan mikrovohalarda esa o‘ziga xos iqtisodiy munosabatlar kechganligini arxeologik yodgorliklardan olingan manbalar asosida yoritish imkonи mavjud.

Tarixiy-geografiyaga oid abiyotlardan ma’lumki, Xorazm vohasi Qizilqum va Qoraqum oralig‘idan kesib o‘tuvchi Amudaryo o‘ng hududi O‘zbekistonidagi ilk sug‘orma dehqonchilik an‘analari aynan o‘ziga xoslik namoyon qilib, qo‘shni hududlardan farqli ravishda rivojlanib borgan [2. 2015. Б-207].

Mintaqa tarixiga oid ilmiy nashrlarda qayd qilinishicha, milodiy III asrda Eronni boshqargan Sosoniylar davlati tashqi siyosatida qo‘shni hududlarni egallash, shu orqali davlatning sarhadlarini geografik jihatdan kengaytirish maqsadida, O‘rta Osiyoga nisbatan olib borgan harbiy harakatlar natijasida qadim Sharqning yirik sultanatlari Parfiya va Kushon kabi davlatlari tarix sahifasidan davlat sifatida barham topgan [3.1996-Б-154-159].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyoda kechgan bu siyosiy jarayonlardan Xorazm vohasi ham chekkada qolgan emas. Xususan, A.E.Smidt, N.V.Pigulevskaya, Ye.E.Nerazik asarlarida Sosoniylar podshosi Ardasher boshqarishi davri (224-239-yillar) da Balx, Marv va Xorazmga yurishlar qilib, u yerlarni egallashga harakatlar qilganligi yozma manbalarda qayd qilingan. Xususan, Suriya manbasi “Arbeli solnomasi”da Sosoni hukmdori Shopur I davri (239-272-yillar)da sosoniylar xorazmiylar bilan urush olib borganligi qayd etilgan [4.2009.T-I.-C-492-496; 1968.-C.125-126.]. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, Xorazmning qadimiy-ma’muriy-siyosiy markazlari bo‘lgan Tuproqqa‘a sosoniylarning harbiy harakati natijasida inqirozga uchraganligi qayd qilingan [5.1958. – C-422. 1956 -C-158-159]. V.G.Lukonin fikriga ko‘ra, Xorazm hududiga yurish qilgan Shopur I farmoni bilan 262-yilda bitilgan “Zardusht ka’basi”dagi bitikda yozilishicha, sosoniylar O‘rta

Osiyoning Kesh (Qashqadaryo vohasi), Sug‘d (Zarafshon vodiysi) va Choch (Toshkent vohasi) tog‘igacha bo‘lgan hududni egallaganligi da‘vo qilgan bo‘lsa-da, bu ro‘yxatda Xorazm qayd qilinmagan, degan xulosaga kelgan [6.1997.Вып.1.–C-43.]. Mazkur masalada tadqiqotchi fikriga qo‘shilish mumkin. Aslida Tuproqqa‘ning xarobaga aylanishi masalasini boshqa omillardan qidirishga to‘g‘ri keladi. Ya’ni, ekologik fojiadan yoki ichki nizolar hamda tashqi siyosiy omillarga e’tibor berish lozim. Xususan, B.I.Vaynberg Xorazmdagi pul munosabatlarining antik davrdan ilk o‘rta asrlar bosqichiga o‘tish davridagi holatini o‘rganish jarayonida kelgan xulosasiga ko‘ra, vohadagi siyosiy munosabatlarda yuz bergen o‘zgarishlarni aynan milodiy III asr ikkinchi yarmining oxirgi yillari va milodiy IV asr boshlari bilan belgilagan [7.1977-C-53-54.].

Bizning nazarimizcha, milodiy III asrda to VI asr birinchi yarmiga qadar o‘ng sohil Xorazm Afrig‘iyalar davlati (poytaxti Kat shahri) hamda vohaning shimoli-sharqiy qismidan Kerdar davlati (poytaxti Xayvonqal‘a) hamda Amudaryo so‘l sohilida mustaqil Xorazmshohlar davlati (poytaxti Mizzaxon) bo‘lgan. Chunki mil. avv. V asrda Ahamoniylar ta’siridan mustaqil bo‘lgan Xorazm davlati o‘ng sohil sarhadlarini o‘zlashtirish, Sariqamish havzasini hududini o‘z manfaatlariga xizmat qildirish maqsadida hududiy chegarasini kengaytirgan. Iqtisodiy maqsadlarda, ya’ni sug‘orma dehqonchilik qilish sernam va serunum tekisliklarga Amudaryo va uning Dovdon, Daryoliq irmoqlaridan magistral kanallarini chiqarish tadbirlarini olib borgan. Davlat ma’muriy-hududiy boshqarish usulidan keng foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan.

Xorazm vohasida dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirish o‘troq aholi tomonidan ancha oldin boshlangan. Jumladan, mil. avv. V asr oxiridan mustaqillikni qo‘lga olgan Siyovushiy-kayoniylar davlati vohaning Sho‘raxon va Sulton Uvays tog‘i oralig‘ida sernam va serunum tekisliklarni o‘zlashtirish bo‘yicha ichki siyosatini amalga oshirgan. Davlatning iqtisodiy siyosatini qo‘llab-quvvatlagan ziroatkor aholi Amudaryodan Qizilqum tomon Kaltaminor, Tozabog‘yob va Amirobod kanallarini chiqarilishi hamda Amudaryo sohil etaklari bo‘ylab qishloq va shaharlar bunyod qilganlar. Xususan, o‘ng sohil hududida Burliqal‘a,

Ayozqal'a, Katta va Kichik Qirqqizqal'a, Qo'y-qirqilganqal'a, Yonboshqal'a, Erisqal'a, Anqaqal'a, Bozorqal'a, Katta Buldursiq, Burgutqal'a, Uyqal'a, Odamlıqal'a, Katqal'a, Pilqal'a, Tuproqqal'a, Aqchaxonqal'a, Qizilqal'a; so'l sohilda esa Darg'on, Jigarband, Sarvar, Hazarasp, Qalajiq, Kat-qal'a, Mizedaxqon, Voyangan, Shohsanam, Zamaxshar, Yarbekirqal'a, Oybo'yirqal'a Oqchage-lin, Tuzqir, Ko'hna Urganch (Mullatepa) va Ichan-qal'a kabi aholi markazlari bino qilingan [8.1948.-C.25-315].

Ammo ba'zi aholi markazlarida madaniy xo'jalik hayoti barham topgan, (Bulaqal'a, Ayozqal'a, Quyqirilgan qal'a, Yonboshqal'a, Anqaqal'a, Pilqal'a Oqchaxonqal'a, Toshxirmon Akchagilin, Tuproqqal'a (Shovot), Tuproqqal'a (Yangiariq) mazkur aholi markazlarida ilk o'rta asrlar ilk bosqichlari madaniy hayot yuksak darajada rivoj topgan. Ammo ilk o'rta asrlarning so'nggi bosiqichida Arab xalifaligining yurishlari va undan keyingi siyosiy, iqtisodiy va hatto ekologik vaziyat bu shaharlarning aksariyatini xarobaga aylantirdi. Hozirgi vaqtida paxsa va xomg'isht asosli baland ikki qatorli mudofaa devorlari, ularning burchak va shinaklari qadimiy holati saqlanib qolgan, xolos.

O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davri shaharlarini iqtisodiy va madaniy rivojlanishi borasida tadqiqotlar olib borgan S.P.Tolstov va A.M.Belenitskiy mulohazalari ilmiy nashrlarda qayd qilinganligi ma'lum. Xorazm tarixi tadqiqotchisi S.P.Tolstov fikriga ko'ra, ilk o'rta asr shaharlarda umumi inqiroz "dehqonzoda"larning qasrlari va hukmdorlarning ma'muriy mahkamalarini nazarga olmaganda aksariyat hollarda, hunarmandchilik ustaxonalari, rastalari, shaharlarning o'zida amalga oshiriladigan obodonlashtirish tadbirlarining bo'shashganligi natijasida yuz bergenligini qayd qilgan [9.1948.-C.152-153]. A.M.Belenitskiy esa, Samarqand va Marv kabi bir qator yirik shaharlardan tashqari, aksariyat aholi markazlarining maydoni qisqarib borgan. Shahar maqomini aks ettiradigan aholi turar joylari esa, yondosh hududlarda qurilishi ommaviy tus olgan edi, degan xulosaga kelgan [10.1973.-C.7]. Bu masalada, yana S.P. Tolstov fikriga qaytdigan bo'lsak, uning fikricha, milodiy IV-V asrlarda soseniyalar va xioniyalar o'rtasida olib borilgan urush harakatlari munosabati bilan Amudaryoning o'ng va so'l sohil sarhadlarida antik davr aholisi tomonidan qad ko'tarilgan qal'alarda iqtisodiy rivojlanish barham topgan [11.1948. -C.

140]. Ammo, bu kabi tadqiqotchilarining Xorazm vohasi ilk o'rta asrlar jamiyatining iqtisodiy inqirozi aynan tashqi dushmanlar harbiy harakati natijasi bilan bog'liq degan g'oyalariga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki mazkur jarayon borasida B.I.Vaynberg o'rta tashlagan mulohaza diqqatga sazovor. Uning fikriga ko'ra, so'l sohil hududlari katta qismining yalanglikka aylanishi bevosita Amudaryo suvi sathining goh ko'tarilishi, goh pasayishi natijasida bo'lib, sug'orish inshootlarining barqaror bo'lmaganligi oqibatida shunday fojea ro'y bergan [12.1991.-C-80-81]. Tadqiqotchi yuz bergan reallik to'g'risidagi fikrida haq edi. Xorazm vohasining ilk o'rta asrlar davri tadqiqotchisi Ye.E.Nerazik tadqiqotlarida Amudaryo o'ng sohili (hozirgi Beruniy va To'rtko'l tumani) hamda shimoliy Turkmaniston hududidagi aholi turar joylarining topografik joylashishida mudofaa inshootlari tasvirlar orqali aks ettirilgan [13.1966. C-3-49; 1976. C-13-57]. Afsuski, tadqiqotlarda iqtisodiy munosabatlarning tadrijiy rivojlanishiga bo'lgan omillar masalalarini yoritishga e'tibor berilmagan. Shunday bo'lsa-da, XXI asr boshlaridagi tadqiqotchi tomonidan Xoramzni ilk o'rta asr jamiyatining moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid nashrlarda qayd qilingan ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahliliga asoslanib, ilk o'rta asr jamiyatini siyosiy, etnik va iqtisodiy munosabatlarini yoritilayotganligi diqqatga sazovor [14.2005. C.543-56; 2013. C.183].

Xoramzning antik davrdagi geografik holati, etnik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan jamiyatining barcha sohalardagi taraqqiyotiga Amudaryo o'zining o'zgarish va siyosiy jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ta'kidlash kerak-ki, milodiy III asr ikkinchi yarmi va IV asrda Tuproqqal'a saroyida yuz bergen siyosiy o'zgarishlar bevosita dehqonchilik vohalardagi iqtisodiy munosabatlarga ham ta'sir qilgan. Shu bilan birga, milodiy V asr birinchi yaridan Sirdaryo o'rta qismida yashagan chorvador qabilalar, xususan, eftaliylarning Xoramz vohasining shimoli-sharqiga, ya'ni Kerder davlati hududiga kelib joylashishi kuzatilgan, siyosiy, ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan bir-birini to'ldirgan, hunarmandlar va shaharning boshqa kasb-korli aholi qatlami o'z azaliy tajribasi va bilimlariga asoslanib amaliy kasblarini davom ettirganlar. Mahalliy aholi va eftaliylar tarixiy jarayon mobaynida tarkibga omuxtalashgan [15.2021.-C-205-217]. Amudaryo chap sohilidagi Xazarasp,

Ichantal'a, Katqal'a, Voyangan, Misdaxkon, Zamaxshar, Shohsanam, Jigarband (Vazir) shaharlarida ma'naviy-madaniy hayot davom etaverган.

Amudaryo va uning ilk o'rta asrlarda mayjud bo'lgan irmoqlaridan Dovdon va Daryoliq magistral kanallar shaxobchalari chiqarilib, mazkur sug'orish inshootlari faoliyati Afrig'iylar davlati tomonidan nazorat qilingan, aholi esa ekin maydonlarida sug'orish ishlarini olib borib maqsad qilingan natijalariga erishganlar [16.1959.Б-120-121].

Shu tariqa, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi: Amudaryo suv ta'minotiga bog'liq bo'lgan holatda milodiy IV-VI asr birinchi yarmida Xorazm vohasi, unga hududiy jihatdan tutash bo'lgan Sariqamishbo'yi havzasi antik davrda aholi tomonidan o'zlashtirilib, bu yerda qad ko'targan qal'alar siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlar vazifasini bajargan; Amudaryoning o'ng va so'l sohili etagiga ulanib ketgan vohalarning ilk o'rta asrlar davrdagi aholisining hayoti va turmush tarzi borasida qilingan izlanishlar va topilgan arxeologik yodgorliklar vonaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti darajasini ko'rsata oladi; milodiy IV asrdan boshlab, Xorazmning siyosiy hayotida Afrig'iylarning (poytaxti Kat) o'rni ortib bordi; eftaliy qabilalari Kerdar davlatidagi siyosiy munosabatlarni rivojlanirdi va eftaliy qabilalarining Xorazmning shimoli-sharqiy hududining iqtisodiy va madaniy rivojlanishi muhim o'rin egallagan holda siyosiy munosabatlarni o'zgartirib, hududning bo'linishiga olib keldi. Eftaliy qabilalari etnik, tili va moddiy madaniyati jihatidan mahalliy aholidan farqlansa-da, asta-sekin ular orasida assimiliyatsiyalashib bordi. Eftalitlar arablar istilosigacha Xorazmning milodiy VI asr ikkinchi yarmi siyosiy tarqoqligini izohlagan Arablar xalifligi Xorazmda hukmronligini o'rnatgandan keyin Kardar davlati barham topishi natijasida siyosiy tarqoqlikni shimoliy Xorazmda Xorazmshoxlar (Ma'mun 1) va janubiy Xorazmda (Abrig) bir-biriga raqobatda bo'lib, hududni kengaytirish maqsadida olib borgan tashqi siyosati klassik darajaga ko'tarilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Egamberdiyeva N. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: университет, 2015.
3. Баратов П.Ўзбекистоннинг табиий географияси Тошкент, Ўқитувчи-1996.
Narx (price) giperonim hisoblansa, demping narx (dumping price), chakana narx (retail price), premium narx (premium price), ulgurji narx (wholesale price), shartnoma narx (contract price), nufuzli narx (prestigious price) uning giponimlaridir.

Kredit (credit) – giperonim, ta’lim krediti (education loan), iste’mol krediti (consumer credit), avto kredit (auto kredit), ipoteka kredit (mortgage loan), xalqaro kredit (international credit) giponimlardir. Partonimiya terminologiyada xolo-meronimik (butun-bo‘lak) munosabatini reallashtiruvchi hodisa sanalib, tilning leksik-semantik sathida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Bunda, xolonim butunni, meronym esa bo‘lakni anglatadi. Iqtisodiy terminlar orasida bu kabi leksik-semantik munosabat unchalik ko‘p uchramasa-da, ularning barcha soha

terminlarida mavjudligini rad etolmaymiz. Narx diapazoni (price range) xolonim hisoblanib, quyi (lower), o‘rtta (middle), yuqori (upper) diapazonlar esa meronim hisoblanadi.

Keyingi leksik-semantik munosabat bu graduonomiya, ya’ni darajalanish hisoblanadi. Bunda, ma’lum bir sohaga oid termin o‘zining darajalari bilan ko‘rsatiladi. Iqtisodiy terminlarda bu turdagи leksik-semantik munosabat juda ham sanoqli deb topilgan va ular deyarli ikkidan ortiq bo‘lgan darajalanishni ko‘rsatmaydi.

Makroiqtisodiyot (macroeconomy) – mikroiqtisodiyot (microeconomy)

Makroqarz (macro debt) – mikroqarz (micro debt)

Makromarketing (macro marketing) – mikromarketing (micro marketing). Shuningdek, terminlarning chog’ishtirma tahlilini amalga oshirishda uning sinonimlik, antonimlik va omonimlik xususiyatlari ham o‘rganiladi. Bu turdagи xususiyatlarning barchasini badiiy uslubdan foydalansa bo‘ladigan sohalardan qiyinchiliksiz topish mumkin. Ammo, iqtisodiyot sohasiga kelganda sinonim va omonim xususiyatdagi terminlarni topish ancha mushkul. Shunga qaramasdan, terminlar lug’atini antonimlik, ya’ni qarama-qarshilik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar boyitadi.

Foya (profit) – zarar (loss). Foya – qo‘srimcha qiymatning o‘zgargan shakli, ma’lum davr vaqtida (odatda 1 yil) daromadlarning xarajatlardan oshishi sifatida namoyon bo‘ladi. Zarar – xo‘jalik faoliyatidan ko‘rilgan yo‘qotishlar; odatda pul shaklida namoyon bo‘ladi. Daromad (income) – xarajat (expense). Daromad – keng ma’noda kirim bo‘lgan har qanday pul mablag’lari yoki pul qiymatiga ega bo‘lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy sub’yekt o‘z faoliyati natijasiga ko‘ra oladigan pul va tovar – moddiy tushum hisoblanadi.

Xarajat – ma’lum muddatli oraliqda ma’lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o‘zgarmas xarajat va o‘zgaruvchan xarajatlarning yig’indisi hisoblanadi.

Eksport (export) – import (import) Eksport – tashqi bozorda ularni realizatsiya qilish uchun mahsulotlar, texnologiya va xizmatlarni chiqarish, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar hamda chetdan olib kelinib qayta ishlangan tovarlar ham eksport predmeti hisoblanadi.

Import – mamalakatlar ichki bozorida realizatsiya va taklif qilish uchun chet eldan olib keligan tovarlar, texnologiyalar va kapitallar; chet ellik sheriklardan ishlab chiqarish yoki iste'mol uchun to'lash sharti bilan xizmatlar olish.

Qadrli valyuta (valuable currency) – qadrsiz valyuta (worthless currency) Valyuta (ital. valuta, lot. valere — qadrlanmoq, qiymat) — 1) mamlakatning pul birligi va uning turi (oltin, kumush, qog'oz); 2) chet mamlakatlarning xalqaro muomalada qo'llanuvchi pullari, shuningdek shu mamlakatlarning pul birligida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to'lov hujjatlari (veksellar, cheklar, banknotlar va boshqalar).

Foizli depozit (deposit with interest) – foizsiz depozit (interest free deposit)

Depozit (lot. depositum — omonat, asrab qo'yilgan) — 1) bankka qo'yilgan omonatlar. Bunday Depozitlarning muddatli (muayyan muddatdan so'ng qaytarib beriladigan) va talab qilib olinadigan (omonat egasining birinchi talabi bilan beriladigan) turlari bor. Kredit muassasasi omonatchiga Depozitni olish huquqini beruvchi hamda mazkur pul mablag'inining bankka deponent qilinganini tasdiqlovchi yozma guvohnoma — Depozit sertifikati beradi; 2) bank daftaridagi mijozlarning bankka bo'lган muayyan talablarini ifodalovchi yoki tasdiqlovchi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar (aksiya va obligatsiyalar) va pul vositalari; 4) turli muassasalarga talab qilinadigan

to'lovlarni ta'minlash uchun oldindan o'tkaziladigan badallar.


Barqaror narx (stable price) – beqaror narx (unstable price)

Narx, baho — tovar qiymatining puldagi shakli; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak. Iqtisodiy tafakkur tarixidagi ayrim qarashlarda narxni qiymatning mehnat nazariyasiga asoslanib talqin qilishgan, unga qiymatning puldagi ifodasi deb qaralgan<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy sohaga oid terminlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish so'zning anglatayotgan ma'nosini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Faqat ushbu amaliyotni to'g'ri va har ikki tilda misollari bilan boyitib bergen holda taqdim etish ushbu tahlilni samarali amalga oshirilganligini belgilab beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Исломов Ф.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин хосил бўлиши. НДА. – Тошкент, 2011 – Б. 7-8.
2. A.Pardayev, D.B.Urinbayeva, D.A.Islamova – “O'zbek Terminologiyasi”, Samarqand-2020.
3. A. Ulmasov. Bozor iqtisodiyoti. Qisqacha lug'at – ma'lumotnoma. Toshkent-1991.
4. Hamidulla Dadaboyev – “O'zbek Terminologiyasi”, Toshkent-2009.
5. X.Raxmonqulov, B.Jo'ravey – “Biznes va tadbirdorlik sirlari”, Toshkent-2002.



<sup>1</sup> X.Raxmonqulov, B.Jo'ravey – “Biznes va tadbirdorlik sirlari”, Toshkent-2002.

UDK: 821.512.133.09'06-047.48

## TARIXIY QAHRAMON VA BADIY OBRAZ

(Shahodat Ulug‘ning “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romani misolida)

**Annotatsiya:** Maqola yozuvchi Shahodat Ulug‘ning “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romanining bugungi o‘zbek adabiyotiga qo‘sghan hissasi, yangi roman sifatidagi yutuqlari va kamchiliklarni ilmiy jihatdan yoritib berishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy haqiqat va badiiy mahorat, Xorazm shevasiga xos bo‘lgan so‘zlar, badiiylikka e’tibor.

**Аннотация:** Статья призвана научно осветить вклад романа Шаходата Улуга «Халоскор Султан Сайфиддин Кутуз» в современную узбекскую литературу, а также его достижения и недостатки как нового романа.

**Ключевые слова:** историческая правда и художественное мастерство, слова, характерные для хорезмского диалекта, внимание к художественности.

**Annotation:** The article aims to scientifically shed light on the contribution of Shahodat Ulugs novel "Khaloskor Sultan Sayfiddin Qutuz" to today's Uzbek literature, as well as its achievements and shortcomings as a new novel.

**Key words:** historical truth and artistic skill, words characteristic of Khorezm dialect, attention to artistry.

Biz o‘z tariximiz orqali o‘zimizni anglashimiz lozim, buning uchun bizga nafaqat tarix, balki adabiyot ham yordam beradi. Chunki, inson qalbiga adabiyot tez yuqadi va uni zabit etib, vatanga sadoqatli, jonkuyar,adolatli shaxs o‘larоq tarbiyalaydi. Bunday shaxslar esa, kelajak avlodimiz yuksalishi, boshqa xalqlarga raqib emas, o‘z Vatanini, xalqini yuksak qadamlarga chiqarish uchun suv va havoday zarur. Mana shundagina adabiyotning atomdan kuchliliginи his qilamiz.

Har qanday asar ma’lum bir g‘oya uchun xizmat qiladi. Yozuvchi Shahodat Ulug‘ning “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romani ham



**Farxod KENJAYEV,**  
O‘zR FA O‘zbek tili,  
adabiyoti va folklori  
instituti 2-bosqich  
doktoranti

Mahmud Sayfiddin Qutuz<sup>1</sup> obrazini badiiy qayta kashf etdi. Aynan shu asar Sayfiddin Qutuz obrazini o‘quvchilarimizga yaqindan tanishtiradi.

Jaloliddin Manguberdining hayoti davomidagi qahramonligi ming yillar keyingi avlodga o‘rnak bo‘lolygonidek, Sayfiddin Qutuz obrazining qahramon sifatidagi kechinmalari ham har bir avlod uchun namuna vazifasini bajarishi, shubhasizdir. Mana shuning uchun ham qahramonlarimizning obraz sifatidagi yangi qiyofalarini, haqiqatlarini yoritish, qachonlardir ko‘mib qo‘yilgan xazinalarni ochish, bugungi yosh avlod uchun juda muhim hisoblanadi. “Biz turkiy-o‘zbek o‘qiguvchilariga tarixiy mavzularda bitilgan ko‘plab, aniqlashtirish joiz bo‘lsa, yuzlab romanlar kerak. Chunki, juda ulkan makon va zamonga sochilib ketgan kechmishimiz bor. Ularni bilishimiz, ma’naviy o‘zligimizni ajdodlar o‘tmishining yodi ila oydinlatib olmog‘imiz shart. Zero, dunyoda eng ko‘p imperiya qurgan xalqlardan biri ham aynan turkiylardir. Shuning uchun ham “Yunondan imorat qurishni, turkiydan esa davlat qurishni o‘rgan”, deb bejiz aytishmagan eskilar”<sup>2</sup>.

Tarixiy janrda roman yozilarkan, o‘tmishga suyanadi, shuningdek, hissiyat va ruhiy olam bilan bog‘langan holda dunyoga keladi. Har bir asarning boshlanishi (kirish qismi) kitobxonning keyingi yo‘lini davom qilishda asosiy mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Lekin, Shahodat Ulug‘ning “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romanida bu vazifani asarning aynan o‘zi emas, balki yozuvchi Ulug‘bek Hamdamovning kirish so‘zi bajarib bergen, balki bu ijodkorning bismillohini ijodkor anglaganligidandir. Biroq so‘zboshida ham juz’iy xatolar uchraydi, masalan, kitobning 3-betida asar “Sulton Qutuz saboqlari” sarlavhani kirish so‘zida roman “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” deb emas, balki “Xaloskor sulton Qutuz” deya Sayfiddin nomi tushib qolgan, bu masalaga yozuvchi Ululg‘bek Hamdamov bilan aniqlik kiritildi: “Asar nomi bir necha bor qayt-qayta o‘zgartirildi va asar taqriz uchun berilganda “Xaloskor sulton Qutuz” deb

nomlangan edi, kirish so‘z yozib topshirilgandan keyin asar to kitob holiga kelguncha yana o‘zgarishga uchragan. Demak, nashriyot xodimlari bu o‘zgarishni hisobga olmoqlari lozim edi”<sup>3</sup>.

Shahodat Ulug‘ tarixiy romanini yozishda tarixiy manbalarni chuqur tahlil qilgan va shu davrdagi Xorazm shevasiga xos so‘zlarni ham qo‘llagan. Masalan, “Xadicha xalfa”, “bor siza” “adrasmon tutatib”, “Xadichaning og‘asi” kabi so‘zlarni ishlata-diki, bu nafaqat XII asrga doir, balki bugungi kunda ham Xorazm hududida iste’molda bo‘lgan so‘zlardir. Kitobxonning ajdodlar bilan ruhan bog‘lanishda o‘sha davrga xos so‘zlarni qisman ishlatalish maqsadga muvofiqdir. “Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Badiiy asarni yaratish davomida ijodkor tasavvuridagi o‘quvchi bilan muloqotga kirishsa, uni o‘qish jarayonida o‘quvchi ijodkor bilan muloqotga kirishadi”<sup>4</sup>. Har bir asarni o‘qish, uqish, tahlil qilish uchun vaqt va mehnat kerak. Ayniqa, tarixiy roman yozishda yozuvchini ortiqcha bo‘yoqlarga berilishi tarix va haqiqatni o‘ta badiylashtirishga, muvozanatning buzulishiga olib keladi. Ijodkor har qancha kuchli iste’dod egasi bo‘lmasin, asarniadolat tarozisida dunyoga keltirmasa, o‘quvchisini yo‘qotgan holda “men o‘sim uchun yozganman” qabilidagi asarlar qatoriga kirib qoladi. Shuning uchun yozuvchi asarda ko‘proq tarixiy haqiqat va badiiylikka e’tibor qaratgan.

Qutuz nomiga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, asarda unga shunday ta’rif berilgan: “U tabiatan qo‘rqmas, kuchli, o‘ziga jabr qilguvchilarga shafqatciz bo‘lgani bois unga qopag‘on it – Qutuz laqabini turklar bergen edi”,<sup>5</sup> - deb, asarning qirqinchisi sahifasida bu fikrni tasdiqlab, “Bilol Sayfiddinga qarab:

— Beri kel,- dedi. — Chakki emassan, qutuz!- deya xoxolab kului. Bolalarning uchoviga bir o‘zing bas kelding, yasha, o‘g‘il bola, qutuzsen!- deya Sayfiddinni yana olqishlagan bo‘ldi. — Qutuz ne ekanini bilurmisen?- deya so‘radi.

<sup>1</sup> Ahmad ibn Ali ibn Abduqodir Abul Abbas al-Husayniy al-Ubaydiy Taqyiddin al-Maqriziy. "As-suluk lima'rifati duvalil muluk". Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Abdulqodir Ato. - Livan \ Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya. Birinchi nashr: 1418 h/1997 m.y. T.I. - B. 520.

<sup>2</sup> Ulug‘bek Hamdamning “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romaniga kirish so‘zi. Toshkent : Akademnashr, 2022- y. 3-b.

<sup>3</sup> Filologiya fanlari doktori, professor Ulug‘bek Hamdamov bilan 13.03.2023. sanadagi suhbatdan.

<sup>4</sup> Quranov. D. Adabiyot nazaryasi asoslari. – Toshkent: Akademnashir, 2018. 55-b.

<sup>5</sup> Shahodat Ulug‘. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz. –Toshkent: Akademnashr, 2022. 30-b.

—Bilmasmen,- javob berdi Sayfiddin.  
—Qutuz turkiyda kimsadan qo‘rqmaydig‘on jangari, qopog‘on ko‘ppak demakdir. Eshitdinglar,- deya bolalarga yuzlandi u, — endi aning ismi Qutuzdir.<sup>6</sup> Qutuz laqabi asarning shu o‘rnida turklar qo‘ygan deyilsa, boshqa o‘rinda mo‘g‘il sipohi Monh-Orhil qo‘ygan deyilgan.

Misr podshohi Solih Najmuddin Ayyubiy huzuriga Sayfiddin Qutuzni chorlab,

—Demak,- dedi, — sen Muhammad Xorzams-hohning nabirasi, shavkatli Jaloliddinning jiyanisen...

— Aytdilarki, bul laqabni senga mo‘g‘illar bermish. Xo‘sh bu dediklari rostmi?- so‘radi u.

— Shundoqdur, podshohim! Mo‘g‘il sarbozi Monh Orhil bul laqabni menga bermishdi<sup>7</sup>.

Ko‘rinadiki, yuqorida asarning noaniqligidek ko‘rinayotgan, bir qahramonga bir nomni ikki inson qo‘yganligi va ularning turkiylar deya atalishi yozuvchi tomonidan o‘quvchini turkiylar va mo‘g‘illar tarixini yana bir bora izlanishiga yetaklaydi.

Qutuz nomiga manbalardan aniqlik keltiradigan bo‘lsak: “Qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o‘zbek tillarida undosh tovushlarda ham fonetik hodisalar sodir bo‘lgan. Moslashuv: taban (NAL, 581) — tovon; palchiq (NAL, 511) // balchiq (Tf, 18-b) — balchiq, p//m: tapa (Tf, 97) > tomon. T//d: tam (Tf, 7-b) // dam (Tf, 9-b). R>z: **qutur** (Suvr, 11) > **qutuz** (MQ, 1, 346) — **quturgan**<sup>8</sup>.

Demak, qutuz nomi haqiqatdan ham turkiy so‘z va u quturgan degan ma‘noni anglatadi. Bu nom hattoki bugungi zamonaviy turk tilida *kuduz*<sup>9</sup> shaklida saqlanib qolgan. Yozuvchi mana shunday tarixiy faktlardan butun asar davomida foydalangan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa quyidagicha izoh berilgan:

Quturmoq - 1-Quturish kasaliga yo‘liqmoq. Quturgan bo‘ri. It qutursa, egasini qopadi.

Asarning yigirma beshinchı betida: “Og‘udan o‘tkirrog‘i, shamshirdan keskirrog‘i yo‘q deyishadi. Bu aslida nisbiy fikr edi. Zahardan

o‘tkiri, qilichdan-da keskiri aqldir, illo, og‘u va shamshirni aql va iqtidor egalari o‘ylab topmishlar.

Inson bolasi umri davomida o‘tkinchi tashvishlaru ojiz o‘ylarning komida qolishi tayin. Shunda uni o‘sha yovuz o‘pqon komidan faqat o‘tkir aqli va bukulmas irodasi omon olib chiga olajakdur”<sup>10</sup>, deyiladi. Romanning o‘ttiz to‘rtinchi sahifasida ham shu matn aynan takror keladi.

O‘ttiz uchunchi bet o‘zida “Zo‘r-zo‘rni aqli va kuchi bilan yengajakdir”<sup>11</sup> so‘zi ikki marta takrorlangan.

Takror so‘zlar nasriy asarlarda o‘quvchini zeriktirib, asarni sayozlashtiradi. Ammo, ma‘noni kuchaytirish va g‘oyani yuksaltirish uchun asarda takrordan adabiy me‘yorlardan chekinmagan holda foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Takrorlik she’riyatda g‘oyani kuchaytiradi, ta’sirchanlikni oshirib, diqqatni jamlaydi va xotirada saqlanib qoladi.

Qani jangga, janga chiqing arslonlar,  
Janga chiqing, ey aziz qahramonlar.

Yuqorida Hamid Olimjon misralarda jangchilarining jang boshlanishidan oldingi kayfiyati jangovar ruhining yuqoriligi takrir vositasida tasvirlangan. Takrir arabcha “takror” so‘zidan olin-gan bo‘lib, u she’riy asarda so‘zning turli shakldagi takrordan iborat. Ushbu misralarda “jangga” so‘zi uch o‘rinda qo‘llangan, bu esa she’rdagi asosiy g‘oya “jangga” so‘ziga singdirilmoqchi bo‘lganligini anglatadi.

Takrorlanuvchi birliklar she’rga o‘ziga xos jilo baxsh etadi.

*Nafis chayqaladi bir tup na‘matak,*  
Yuksakda shamolning belanchagida.  
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida,  
*Nafis chayqaladi bir tup na‘matak.*

Ammo, bu ko‘proq she’riyatga xos, nasrda esa, ayniqsa roman janrida, takrorlik yozuvchi tomonidan mahorat bilan qo‘llanilmasa, o‘quvchi va asar orasiga jarlik soladi. Asarning qirq birinchi betida

<sup>6</sup> Shahodat Ulug‘. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz. –Toshkent: Akademnashr, 2022. 40-b.

<sup>7</sup> Shahodat Ulug‘. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz. –Toshkent: Akademnashr, 2022. 74- b.

<sup>8</sup> Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh. Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.

–Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2008. 70-b.

<sup>9</sup> O‘zbekcha-Turkcha lug‘at. - Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. 100-b.

<sup>10</sup> Shahodat Ulug‘. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz. - Toshkent: Akademnashr, 2022. 34-b.

<sup>11</sup> Shahodat Ulug‘. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz - Toshkent: Akademnashr, 2022. 33-b.

quyidagi matn bir yuz beshinchi betda ham aynan takrorlanadi.

*“Damashqlik Qobil Damashqiy erta tongda bozorga otlangandi. U odamlari qurshovida bozorni obdon aylanib chiqdi...*

– *Jahannamdan kelgan bola, isming ne sening?*

– *Qutiz!*

Adiba sal kam bir bet keladigan matnni nega aynan takror qilishi o‘quvchini o‘ylantiradi va romanning o‘qib o‘tilgan joyiga qaytishga chorlaydi, shu o‘rinda anafora ozgina kuchayib ketgalligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, romanning ellik to‘qqizinchisi betida “*Sayfiddinning bilagida yoshlik shijoati qaynab toshayotir*” degan qismi oltmish ikkinchi betda yana takrorlanadi.

Asarda nutqning ba’zi bir qismini e’tiborga olish yoki ajratib turish uchun bir yoki bir necha so‘zlarni takrorlash, endi tanilayotgan tarixiy obrazni kuchaytirish va yaqindan tanishtirish uchun muhim hisoblanadi.

Asarning ijobiy taraflaridan yana birini kuzatishimiz mumkin. Masalan, adiba mo‘g‘il sarbozi Monh Orhil yomg‘ir yog‘averib ichkariga qamalib olgan epizodni keltiradi. Mo‘g‘illar haqiqatdan yomg‘irni yomon ko‘rgani, (Chingizzon boshchiligidagi mo‘g‘illarni turkiylar degan qarashlar ham bor) ular hatto uzoq muddat, deyarli, cho‘milmagani (Chunki Chingizzon qonunlariga ko‘ra mamlakat hududidagi suv havzalarida kir yuvish, yuvinish man qilingan, bu qonun u olamdan o‘tgandan keyin qora o‘lat tarqagachgina bekor qilingan, bu ma’lumotlarni amerikalik tarixchi olim Lemp Gerold o‘zining “Chingizzon va mo‘g‘il o‘rdasi asarida” keltirgan va Rashididdin Fazliloh ham “Jome’-ut tavorix” asarida “mo‘g‘il askarlari noklardan tashkil topgan”, - deb ta’kidlab qo‘ygan)<sup>12</sup> haqida ma’lumotlar bor. Demak, yo‘zuvchi bunga o‘xshagan tarixiy ma’lumotlarni a’lo darajada o‘rganib, badiiylashtira olgan. Bundan tashqari asarni o‘qigan odam tarixdan o‘rnak olib, xalq sifatida qilgan xatolarimizga achinadi,

kuyinadi. Bu esa, asarda ta’kidlanganidek “Moziy moziyda qolib ketmagaydir. Moziy kelajakka daxl qiladur!” degan hikmatni esdan chiqarmagan holda dinimiz, ona yurtimiz, kelajagimiz uchun bir tan-u bir jon bo‘lib hayot kechirishimiz shart yekanligini uqtiradi. Ijodkor asarda XII asr ajdodlarimiz bilan ruhan bog‘langanligi va ularni tinglay olganini anglashimiz mumkin!

Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi” dramasi orqali Jaloliddin obrazini XX asrda ababiyot vositasida xalqimizga nechog‘li qayta tanitgan bo‘lsa, Shahodat Ulug‘ ham “Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz” romanini orqali Sayfiddin Qutuz obrazini turkiylarga qayta tanishtirdi. Lekin yuqorida ko‘rsatilgani kabi ayrim juz’iy kamchiliklarni bartaraf qilgan holda, asar qayta to‘ldirilishi va nashr qilinishi kerak. Bundan asar faqat yutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad ibn Ali ibn Abduqodir Abul Abbas al-Husayni al-Ubaydiy Taqyiddin al-Maqriziy. "As-suluk lima'rifati duvalil muluk". Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Abdulqodir Ato. - Livan \ Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya. Birinchi nashr: 1418 h/1997 m.y. T.I. - B. 520.
2. Abdurahmonov G‘. Shukurov Sh. Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 65-70-b.
3. Madvaliyev . A. tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Quranov. D. Adabiyot nazaryasi asoslari – Toshkent: Akademnashir, 2018. 55.
5. Gerold Lemb. Genghis Khan and the Mongol Horde – Random House Inc: 1954.01.01.
6. Shahodat Ulug‘. Xaloskor sulton Sayfiddin Qutuz – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 30-b.

#### Internet saytlari:

7. <http://www.hozir.org/takror-va-uning-sintaktik-stilistik-xususiyatlari.html?page=3>
8. <https://fayllar.org/badiiy-matnda-soz-takrorining-orni-i-i-i-ii.html>

<sup>12</sup> Gerold Lemb. Genghis Khan and the Mongol Horde – Random House Inc: 1954

UDK: 81'342. 41

## GADOIY G'AZALLARIDA QOSH VA KO'Z TIMSQLI

**Annotatsiya:** Maqolada Gadoiyning o'zbek she'riyatidagi roli tahlil qilingan. Gadoiy g'azallarida qosh va ko'z timsoli bilan bog'liq mavzu tevaragida fikr yuritilib, shoirning bu boradagi mahorati masalalariga urg'u berilgan. Shuningdek, shoir ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyati, adabiy merosi borasida ilmiy fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qosh, ko'z va kiprik, soch, la'l, xol, ashk, qora-chig', kiprik, qaboq, dur, jodu, charos, timsol, g'oya, talqin, mahorat.

**Аннотация:** В статье анализируется роль Гадои в развитии узбекской литературы. Затрагивается тема изображения брови и глаза в газелях Гадои, подчеркивается мастерство поэта в этом плане. К тому же его творческий путь и своеобразие его поэзии, а также даны научные мысли об исследовании его литературного наследия.

**Ключевые слова:** глаза, брови, губы, рубин, родинка, слёзы, зрачок, ресницы, чарующий, мастерство, искусство, образ, идея, изображения.

**Annotation:** The article analyzes the role of Gadoi in the development of Uzbek literature. Is touched upon the topic of depicting eyebrows and eyes in Gadoi's gazelles, emphasizing the skill of the poet in this regard. Moreover, there is an analysis Gadoi's creative direction and originality his poetry, literary heritage were devoted scientifically.

**Key words:** eye, eyebrow, lip, spot, tear, pupil, eyelash, eye-brow, pearl, magic, charos, emblem, idea, interpretation, skill.

**K**irish. Bugungi kunda mamlakatimizda Sharq she'riyatini o'rghanish, unda yashirin, purma'no g'azal va ruboilarni adabiyotshunoslik doirasida tadqiq etish masalasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mana shunday serqirra shoirlardan biri Gadoiy bo'lib, uning she'rlarini tahlil qilish, majoziy ma'noli vositalarni yoritish orqali biz shoir ijodini yanada teranroq anglash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Gadoiy g'azallarida qosh va ko'z timsoliga murojaat etilar ekan, bunda asosiy muddao ma'shuqa jamolini jonli ifodalashdan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili:** Gadoiy o'z davrida devon tartib bergan kam sonli shoirlardan bo'lib, uning "Devoni Gado" (ديوان گدا) devoni Parijdagi "Biblatique Nationale" ("Milliy kutubxona")ning «Departament des.



Shahnoza  
NORQULOVA,  
Termiz davlat  
universiteti  
O'zbek tilshunosligi  
kafedrasи  
katta o'qituvchisi



Manuscrits Suppl turc” (“Turk qo‘lyozmalari bo‘limi”)da 981- raqamli inventar ostida saqlab kelinmoqda [1]. Gadoiy she’riyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’no-mazmuni ko‘pgina adabiyotshunoslar uchun asosiy bahs mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Jumladan, zamonaviy tadqiqotchilardan biri H. Aslanova tomonidan shoir she’riyatiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotchi tomonidan shoir ijodi o‘rin olgan “Devoni Gado” kitobi nashrga tayyorlangan bo‘lib, ushbu tadqiqot ishi Gadoiy ijodini teranroq anglash imkoniyatini beradi. Yana bir tadqiqotchi E. Ahmadxo‘jayev tomonidan Gadoiy hayoti va ijodi borasida “Gadoiy hayoti va ijodiy merosi” nomli kitob nashrga tayyorlangan [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada Gadoiy g‘azallarining o‘ziga xos jihatlari uning ijodidan namunalar asosida tahlil qilingan bo‘lib, unda analiz va tahlil, qiyoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Biz mazkur maqolada shoir g‘azallarida mavjud qosh va ko‘z ta’rifi keltirilgan misra yoki baytlardan ayrimlarini tanlab, tahlil etishga intildik. Qizig‘i, biz shoir g‘azallari har ikki timsolning yonma-yon keltirib ta’riflangan misra va baytlariga e’tibor qaratdik. Har ikki timsolning bir g‘azal baytlarining turli o‘rinlarida kelishi odatiy hol, lekin ularning bir bayt ichida yonma-yon kelishi kam uchraydigan hodisa.

*Ey jamolingdin huvaydo qudrati zoti qadim,  
Ko‘z-u qoshing sun‘i «Bismillohir rahmonir  
rahim».*

Baytning zohiriyl (tashqi) va botiniy (ichki) ma’nosini tushunishga harakat qilamiz, chunki mumtoz she’riyatda aksar so‘z, ibora, misra, baytning sirtqi va ichki tag ma’nolari bo‘ladi. Shoir aytmoqchi, zoti qadimning qudrati sening husningdan ayon, ya’ni ko‘z-u qoshingning yaratilishidan maqsad, rahmli va mehribon Alloh nomi ila chambarchas bog‘liq. Baytning ichki ma’nosiga kelsak, zoti qadim – Alloh, uning qudrati tufayli inson chiroyli etib yaratilgan, bu hammaga ma’lum. Shundan Alloh bor hunarini ishga solib, sening husning husniga zeb bermoq niyati ila ko‘z-u qoshingni ijod etgan. Shuning uchun sen Alloh kabi rahmli va mehribon bo‘lishing lozim, taassufki, senda doimo buning teskarisiga moyillik

kuchliroqdir. Baytda «sun‘i» – ong shabadasi orqali ko‘z va qoshning tim qoraligiga ham ishora bor, ayni zamonda bomdod namozining, tongda g‘irashira qorong‘u (ko‘z va qosh qora)da o‘qilishi ham anglashilmoqda [1].

Gadoiyning boshqa bir baytida birato‘la qosh, ko‘z va kiprik ta’rifi beriladi, zero ular o‘zaro yonma-yon turadi, ularning qo‘nim joylari ma’shuqaning zebo yuzi. Darhaqiqat, she’rda aytilgani singari qosh va ko‘z oralig‘ida kiprik joylashgan, ayni zamonda kiprik o‘rtada:

*Qosh-u ko‘zungdin shikoyat qilsam, aytur  
kirpugung:*

*«Ayb emasdur bir-bir ustinda kelur kelsa  
balo».*

Baytning tub mazmuni: qosh, ko‘z, kiprik yoki qosh, kiprik va ko‘z ustma-ust joylashgan bo‘lib, balo – baxtsizlik, goho baxtilikning yonma-yon yurishiga majozan ishora etilmoqda [5].

Mumtoz she’riyatda qosh aksaran hilol (yangi oy)ga, yoy (kamon - qavs)ga, oshub (g‘avg‘ochilar)ga, mehrob (qayrilma shakl)ga, toq (yarim doira shakli)ga, xadang (o‘q)ga mengzaladi. Ko‘z bo‘lsa nargis (bo‘ta ko‘z)ga, kavkab (yulduz)ga, qiron (ikki sayyora to‘qnashuv)ga, g‘amza (ishva)ga va boshqalarga tashbih etiladi. Gadoiy g‘azallarida bu hadislarning bari uchraydi. Ta’kidlanganidek, biz olgan misollarda qosh bilan ko‘z yonma-yon ta’riflanadi. Biz tanlagan baytlardan birida:

*Ul xumori nargizi mastonasindin, oh-*

*oh,*

*Qoshi yosindin dag‘i kirpuuk o‘qidun  
yuz fig‘on.*

Tag‘in ko‘z, qosh, kiprik birgalikda kelmoqda, to‘g‘ri qosh va kiprik ochiq aytilgan holda ko‘z pinhon utilgan. Birinchi misrada to‘lig‘icha ko‘z ta’rifi bor, chunonchi: xumor, nargiz, mastona so‘zлari ayni ko‘zga ishoradir. Ikkinci misrada qosh va kiprik berilib, qosh – yoyga, kiprik – o‘qqa o‘xshatilib, qosh va kiprikka bir xil vazifa yuklatilmoqda [5].

Shoir goho qosh bilan ko‘z madhini yuz va soch madhi bilan hamohanglikda beradi:

*Ey yuzi qamar, ko‘zi qiron, qoshi hilolim.*

*Bir balodur qaro jonimg‘a  
soching,*

*Qoshi ko‘zung qaro balo singari.*

Shoir qosh va ko‘z ifodasi uchun barcha vositalardan istifoda etadi, an’anaviy holatlarga ham murojaat qiladi, noan’naviy timsollar ham ishlataladi. Uzoq bormay tag‘in misollarga murojaat qilsak:

*Ey ko ‘ngul, ul damki sevdung sen bu ko ‘z-u  
qoshni,*

*Xotirimda kechtikim bot o ‘ynag ‘ungdur  
boshni.*

\*\*\*

*Ikki ko ‘zungdur baloyi jon, dag ‘i  
qosh bir sari.*

*Boqmas dag ‘i ko ‘ngulga qoshing  
bir ko ‘z uchidin.*

\*\*\*

*Ko ‘zung ul qosh yosindin qachonkim o ‘q otar  
bo ‘lsa.*

\*\*\*

*Qoshing anlinda ajoyib kavkabi tug ‘mish  
ko ‘zung,*

*Kim, har oyning boshida ikki qironi ko ‘rnadur.*

\*\*\*

*Garchi mashhuri jahondur o ‘zlaring fattonligi,  
Qoshlaring sarfit navuo shubi olam  
ko ‘rnadur.*

\*\*\*

*Qoshi yosindin xadang g ‘amzakim otti ko ‘zung.*

**Xulosalar.** Yuqoridagi misollardan ayon bo‘ladiki, biz, asosan, qosh va ko‘z yonma-yon tavsiiflangan misra va baytlarni tanlab olganmiz. Gadoiy o‘z g‘azallarida qosh va ko‘z talqinlariga xos ijobjiy va salbiy ifodalardan ham o‘rinli foydalanadi, bu esa yuz a’zolari, inchunun, qosh va ko‘z timsollari badiiyatining nozik qirralarini

ixtiro etishda qo‘l keladi. Mavzu e’tibori ila yakun yasaydigan bo‘lsak, ushbu yuqorida aytigelanlar hali ibtidoiy so‘zlar ekaniga amin bo‘lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. «Devoni Gado» (دیوان گا) Parijdagi «Biblatique Nationale» («Milliy kutubxona»)ning «Departament des Manuscrits Suppl turc» («Turk qo‘lyozmalari bo‘limi»)da 981-raqamli inventar ostida saqlanib kelinayotgan qo‘lyozma.
2. E. Ahmadxo‘jayev Gadoiy (Hayoti va ijodiy merosi) - Toshkent, 1978. 198 b.
3. Navoiy A. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.I. G‘aroyib us-sig‘ar. Nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1963. – 496 bet.
4. Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. T.2. Navodirush - shabob. Nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1963. – 428 bet.
5. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari.II jild. (XIV–XV asrning boshlari). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: f.f.d., prof. Nasimxon Rahmon. – Toshkent: O‘zR FA “Fan” nashriyoti, 2007. – 320 b.

## ***SO‘ZLAR SALTANATIGA SAYOHAT***

### ***Bedananing tullagi***

Biz odatda yomon fe’lli, ayyor, tuban odamlarga nisbatan “tullak” so‘zini qo‘llaymiz. Bu so‘zni birovga nisbatan ishlatalish haqorat bilan barobar. Holbuki, “tullak” so‘zi u darajada yomon ma’noni anglatmaydi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da izohlanishicha, “tullak” – “bulturgi, bir yoshdan oshgan bedana” ma’nisini bildirib, uning tub ildizi “gullagan” fe’liga borib taqalar ekan.

Boshqa turkiy tillarda ham bu so‘z mavjud. “Oltoy-Olatog‘ lug‘ati”da “tullak” so‘zi “tulak” shaklida berilib, mazmuni “yalang‘och”, “kal”, “tuksiz”, “o‘tovda saxtiyon teridan qilingan to‘shama” deb izohlanadi.

Nima bo‘lganda ham, “tullak” so‘zi tilimizda yomonotliqqa chiqib bo‘lgan. Balki bu so‘zning bunday ramziy ma’noga kelishiga hayvonlarning tullaganda juda xunuk ko‘rinib qolishi sabab bo‘lgandir. Har holda, har kimni “tullak” degan nomdan saqlasin.

***Eshqobil Shukur, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi***

# JURNALISTIKADA YO'NALISHLARARO SOXTA AXBOROT TARQATILISHINING OLDINI OLIB VA EKOJURNALISTIKADA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR NATIJASI



**Xayriniso  
JO'RAYEVA,**  
Samarqand davlat  
chet tillar instituti  
Sharq tillari  
fakulteti  
Xalqaro jurnalistikada  
yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jurnalistikaning har bir yo'nalishi doirasida tarqatilayotgan soxta axborotlar va ularga yechim, ekojurnalistika yo'nalishi doirasida tarqatilayotgan soxta axborotni aniqlab olish, ekoturistik manzillarning davlat uchun olib kelayotgan ulkan foydasi, sayyohbop manzillar haqida tarqatilayotgan yolg'on axborotlarning oldini olish, ommaviy axborot vositalarida soxta ma'lumot tarqatishdagi axborotlarni ajratib olish va shuningdek, ekoturistik manzillarga sayyoohlар qatnovini oshirish haqidagi ma'lumotlarni o'qishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** OAV, parlament jurnalistikasi, sayohat jurnalistikasi, ekojurnalistika, soxta axborot, ekoturizm, ekomakon va eko-xabar.

**Аннотация:** В данной статье ложная информация, распространяемая в рамках каждого направления журналистики и путем ее решения, выявление ложной информации, распространяемой в рамках направления экожурналистики, большая польза экотуристических дестинаций для государства, предотвращение ложной информации, распространяемой о туристических дестинациях, общественность могут прочитать информацию о том, как развенчать информацию от дезинформации в СМИ, а также увеличить поток туристов в места экотуризма.

**Ключевые слова:** СМИ, парламентская журналистика, тревел-журналистика, экожурналистика, фейковые новости, экотуризм, экопротранство и эконьюс.

**Annotation:** In this article, the false information distributed within each direction of journalism and its solutions, identifying the false information distributed within the ecojournalism direction, the great benefits of ecotourism destinations for the state, prevention of false information distributed about tourist destinations, public you can read information on how to debunk information from disinformation in the media and also increase tourist traffic to eco-tourism destinations.

**Key words:** mass media, parliamentary journalism, travel journalism, ecojournalism, fake news, ecotourism, ecospace and.

**K**irish. Ma'lumki, hozirda XXI asr texnologiyalar asrida axborot olishning eng tezkor usuli - "Internet usuli" orqali axborot olish juda tez tarqalmoqda. Buning asosiy sababi shuki, ommaga taqdim etilayotgan ma'lumotning sof va tezkor yetkazilishi ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etiladi. Bu ommaga taqdim etiladigan axborotlarning tahririda jurnalistlar asosiy vazifani bajaradi. Faraz qilaylik, bugungi davr bilan axborot tarqatishda biror nojo'ya ma'lumot tarqatsa-yu, bu axborotning yolg'on emasligi tekshirilmasdan tomoshabinlar orasida tarqalganiga jurnalistning o'zi javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda yoritilayotgan axborotlarning xolis holda emas, noxolis tarqatilayotganiga javobgarlikni jurnalistlar o'z bo'yнига олганлигини haligacha ko'rganimiz yo'q.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Statistikaga ko'ra, 2018-yilda e'lon qilingan feyk materiallar soni 32 foizga ortgan. Bu kishilarning rasmiy axborot manbalariga bo'lgan ishonchi 32 foizga tushib ketganini anglatadi [1].

Feyk xabarlarning sariq matbuot va siyosiy propaganda bilan umumiy jihatlari ko'p. Lekin feyknii badiiy to'qimalar va mish-mishlardan farqlay olish lozim. Sariq matbuotdagi mish-mishlar asosan ommanning vaqtini chog' qilish, u yoki bu shaxsga e'tibor tortish uchun tarqatiladi va uning ijtimoiy zarari uncha katta bo'lmaydi. Feyklar esa jiddiy ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni yoki moliyaviy manfaatni ko'zlab tarqatiladigan yolg'on xabarlardir.

Shuningdek, hozirda axborotning jamiyatda quroq sifatida foydalilanayotganining guvohi ham bo'lishimiz mumkin. "Bu qay holda amalga oshiriladi?" degan savol barchada tug'ilishi mumkin va bu savolga quyidagicha javob olamiz.

**1. Axborotning xolis yoki noxolis tarqatilishi orqali** - davlatlar orasida katta urushlar kelib chiqmoqda.

**2. Axborotning noxolis tarqatilishi orqali** - insonlar o'z joniga qasd qilmoqda.

**3. Axborotning noxolis tarqatilishi orqali** - oilalar barbod bo'lmoqda.

**4. Axborotning noxolis tarqatilishi orqali** - shaharlarda urushlarning boshlanishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday holda ham ma'lum belgilangan jazo turlari bor. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilgan qo'shimcha (202-2-modda)ga ko'ra:

- Shaxsnинг qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan OAVda, telekomunikatsiya tarmoqlarida yoki internet tarmog'ida tarqatish – BHMning 50 baravari (1-fevralgacha 11 mln 150 ming so'm) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

- Jamoat tartibiga yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan OAVda, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internet tarmog'ida tarqatish – BHMning 50–100 baravari miqdorida (22 mln 300 ming so'm) jarima solishga sabab bo'ladi [2]. Bunday yolg'on axborot tarqatilishini jurnalistikaning alohida yo'nalishlari bilan o'rganish ham maqsadga muvofiqli.

**1. Siyosat jurnalistikasi** - ushbu yo'nalishda tarqatilayotgan soxta axborotlar ko'proq parlament ishiga yoki davlat ishiga aloqador hisoblanib, soxta axborot tarqatilishida xakker yoki davlat ishida ishlovchi shaxslar aloqador bo'ladi. Misol uchun, davlat ishida ishlovchi shaxs davlat sirini sotganligi uchun juda ko'p yillar oralig'ida qidiruvga berilgan edi va yaqinda amerika fuqaroligini qabul qildi. Bu hodisa qay tomondandir qiziq tuyulishi mumkin, ammo, o'z davlat sirlarini sotgan kishiga yurda o'lim jazosining berilishi mumkin yoki umrbod qamoqqa solinishi ham mumkin. Bu hodisalar yolg'on axborot tarqatishga misol bo'lmasa ham, davlat sirlarini ham ochiq va oshkora e'lon qilib bo'lmasligini anglatadi.

**2. Parlament jurnalistikasi** yo'nalishi doirasida qanday qilib soxta axborot tarqatish bo'yicha ko'p kishi hayron bo'lishi mumkin. Ammo bu yo'nalish bo'yicha tarqatiladigan soxta axborotlar kishining kuchli ishonishiga sabab bo'lishi mumkin. Faraz qilaylik, biror bir mashhur turistik manzillarning o'rmini insonlar qadami yetmagan yoki noma'lum joylarning manziliga almashtirib qo'yish orqali sayyoohlarni yolg'on manzilga yo'naltirish orqali katta mablag' topishni xayol qilgan uddaburonlar orqali insonlar talofat topishi mumkin. Yana boshqa misol bilan keltiradigan bo'lsak, ekstremal manzillarda kishilar yuqori energiya olishadi. Mobodo, shu kabi joylarda ko'p kishilarning vafot etgan soxta fake xabarlarini tarqatish orqali keladi-

gan kishilar sonini anchagina pasaytirish va bu sohadan tushadigan foydani yo'qotish ham amri maholdir.

**3. Ekojurnalistika** - yo'nalish tarkibida soxta axborot tarqalishini ko'p marotaba kuzatamiz. Misol uchun, hali sodir bo'limgan ob-havo falokatlarning soxta ravishda berilishi, tog'larda kuzatilmagan soxta qor ko'chishlar haqida soxta axborotlar tarqalishi shular jumlasidandir. Ko'pincha telefonimizga davlat xavfsizlik qo'mitasi tomonidan ogohlikka chorlab turadigan xabarlarni ko'p uchratamiz va bu xabarlardan tashqari ham ba'zi kishilar soxta axborot tarqatish orqali aholini qo'rquvga solib qo'ymoqdalar. Yana bir misol, yurtimizda kuzatilishi kerak, deb taxmin qilingan ob-havo haqidagi soxta axborot orqali ko'plab kishilar xato xulosaga kelishdi va natijada soxta axborotga ishongan kishilar havoning normal emasligidan, ya'ni issiq kutilayotgan havoning birdan sovib ketishi sababli ko'p kishilar sog'lig'ida muammo orttirishdi. Bu yo'nalish bo'yicha tarqalayotgan soxta axborotlar talayginani tashkil qiladi. Jumladan, davlat rivojiga foyda keltiruvchi ekoturistik manzillarning soxta joylashuvini tarqatish va shu kabi manzillardan soxta mablag' talab qilish orqali juda ko'plab ziyon keltirishi mumkin. Yoinki, biror-bir mashhur ekomakonga sayohat qilish uchun tashrif buyurgan sayyoh sayohat davomida yo'ldan adashsa-yu, yo'lni bilib olish uchun foydalangan telefon lokatsiyasidan soxta ma'lumot orqali biror xaroba joyga yoki begona hududga borib qolsa, bu vaziyatda kim unga yordam bera oladi.

Guvohi bo'lamizki, bugungi internet rivojlangan asrda xohlagan qurilmani buzish va bu qurilmani boshqarish imkoniga ega bo'lish mumkin, tarqatayotgan soxta axborotlar ham ishonchli tizimlarni buzish orqali tarqatilsa va bunga ko'rko'rona har bir kishi ishonsa qanday ahvolga olib kelishi mumkin. Lekin bunday yolg'on axborotlarning o'rniga aniq ma'lumotlar tarqalishi orqali jamiyatga qanchalik foyda olib kelishini faraz qilaylik.

Buni ekojurnalistika talqinida ko'rib chiqish, albatta, barcha uchun qulaydir. Biror bir ekojurnalistik manzilning sharhi, uning joylashgan manzillini barchaga aniq va oshkora ko'rsatib berish orqali u yerning go'zalligini ko'rish uchun kelgan sayyoohlarning qadami uzilmaydi. Chunki, har bir kishi dunyonи anglay boshlashi bilanoq sayohat

haqida orzu qiladi va bu orzu bora bora maqsadga aylanadi. Bu maqsad kelajakda, albatta, ro'yobga chiqishi dargumon. Bunday maqsadlarning ko'pi biror xushmanzara manzilga sayohat qilish haqida bo'lsa ne ajab. Sayohat qilish davomida bo'ladigan ajoyib hodisalar va ulardan qoladigan taassurotlar kishini yana shunday manzillarga sayohat qilishga undaydi.

**Muhokama va natijalar.** Mana shunday ajoyib sayohat davomida ekoadabiyotlar ham vujudga kelishi tabiiy va bu adabiyotlarda tasvirlangan ajoyib manzaralarning esda qolarli lahzalar bilan boyligi kitobning ekspressivligini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, ajoyib manzillardan biri hisoblangan ekoturistik changalzorlarga bo'lgan sayohat barchani qiziqtirishi aniq.

Ekoturizm uchta asosiy mezonni o'z ichiga oladi: asosiy sayyoohlarni jalg qiluvchi joylar, tabiiy manzillar (masalan, flora, fauna, geologik xususiyatlar) bo'lib, sayyoohlар va boshqa ishtirokchilarning faoliyati tashrif buyuradigan mintaqada jismoni va madaniy muhitga yumshoq ta'sir ko'rsatadi [3].

Shuningdek, dunyo bo'yicha Elbo deltasiga tashrif buyuruvchi turistlar juda ko'pdir. 1962-yilda u Evro-Afrika suv-botqoqlari orasida eng yuqori xalqaro ahamiyatga ega hudud sifatida tasniflangan edi [4]. Yevropa ahamiyatiga ega hudud va Qushlar uchun maxsus himoya zonasini nomini olgan.

Jahon sayyoqlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ortiq ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSh dollarini tashkil etadi [5].

Yana shuningdek, dunyoda shunday manzillar borki, bu manzillarga sayohat qilgan inson qaytib kelolmasligi yoki juda katta hodisalarning guvohi bo'lishi tabiiy holdir. Misol uchun, juda ko'plab kinolarda ko'rilganidek hisoblangan "Ilonlar oroli"ga sayohat qilgan kishilar sanoqli qaytib kelgan xolos va bu manzilning diqqatga sazovor qismi ilonlarning turlari va bu ilonlarning orolda qay holda hayot kechirishidir. Bu orolning yana qiziq tomoni, orolda juda chiroyli manzillarning ko'pligida va bu manzillarga borgan kishilar haligacha qaytib kelishgani yo'q. Bu manzillar insoniyatga dronlar olgan videolar orqali tanish va bu videolar kinolardan

agi joy tasvirlarida shakllantiriladi. Bunday manzillarga sayohat qilish, albatta, juda ko‘p kishi uchun qiziq tuyuladi va bunday sayohatlar kishiga anchagina katta adrenalin beradi. Shu hodisalar bilan ekojurnalistika sohasi anchagina qiziq sohadir.

**Xulosa.** Albatta, ekoturizmning rivojlanishiga mamlakatdagi ajoyib manzillarni kiritish mumkin va turizmning rivojlanishiga ekologik maskanlar, ekosanoat, qishloq xo‘jaligi maskanlari ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqorida yozib o‘tilgan milliy parklarga tushadigan mablag‘lardan davlatning rivojlanishi yo‘lida foydalaniladi. Shuni aytish joizki, ekoturizmning davlatlararo rivojlanishi oshib bormoqda. Kelgusida bunday milliy bog‘lar orqali ekoturizm sohasining rivojlanishida kichik-kichik davlatlardagi juda ko‘plab manzillarda joylashgan tarixiy joylar ham tez fursatda sayyoohlar makoniga aylanadi. Xususan, O‘zbekistonning Lashkarak qishlog‘ida ekoturizmning rivojlanishi oqibatida bu joy hozirda “O‘zbekiston Shveysariyasi” nomi bilan mashhur bo‘ldi va bunday joyga turli davlatlardan, jumladan, Angliya, Rossiya va shunga o‘xshash davlatlardan kelgan sayyoohlar soni ortmoqda. Sayyoohlar bu yerning toza havosidan, atrof-muhitning go‘zalligidan haligacha hayron qolishmoqda va sayohatga keluvchilar soni ko‘paymoqda. Kelgusi 10 yil davomida ekoturistik zonalarning oshib borishi davlat rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fake news: soxta xabarlardan qanday saqlanish mumkin?  
Saodat Abdurahmonova  
<https://kun.uz/uz/news/2019/07/02/fake-news-soxta-xabarlardan-qanday-saqlanish-mumkin?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F07%2F02%2Ffake-news-soxta-xabarlardan-qanday-saqlanish-mumkin>
2. Yolg‘on axborot tarqatganlik uchun javobgarlik belgilandi. Bu nimani anglatadi? Abbas Salaydinov  
<https://kun.uz/uz/news/2021/01/05/yolgon-axborot-tarqatganlik-uchun-javobgarlik-bu-soz-erkinligi-uchun-xatarmi>
3. Ekoturizm <https://ferganatourism.uz/ekoturizm>
4. Ebro deltasiga tashrif buyurish uchun beshta sabab. <https://www.actualidadaviales.com/uz/ebro-deltasiga-tashrif-buyurish-uchun-beshta-sabab/>
5. Ekoturizm – iqtisodiy taraqqiyot omili Nodir ABDUVALIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/7138>

## SO`ZLAR SALTANATIGA SAYOHAT

### “Qoruvli”ning loyi qanday qorilgan


Qoruvli... Bolaligimdan bu so`zni ko‘p eshitganman. Epchil, g`ayratli, pishiq yigitlarga nisbatan odamlar shu so`zni ishlatalishardi. “Qoruvli” degan so`zni o‘zimcha “loyi yaxshi qorilgan, loyi yaxshi pishitilgan” deb tushunardim. Surxondaryo qishloqlarida hozir ham bu so`z ko‘p ishlataliladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so`zga, kam qo‘llanilishi ta’kidlanib, “udli-shudli, uddali, gavdali, norg‘ul, qomatdor” deb izoh berilgan. “Qoruv” – ep, udda deb tushuntirilgan. Yaqinda Qurachay-malkar tili lug‘atida ham “karuvli” degan so`zga duch keldim. Unda “karuv” – quvvat, karuvli – quvvatli, kuchli deb izohlangan. Bu so`z juda qadimiyl. Shuning uchun u boshqa qarindosh millatlarning tillarida ham bor.

Eshqobil Shukur,

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

# ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННОГО ЖАРГОНИЗМА НА ИЗУЧЕНИЕ РУССКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА ИНОЯЗЫЧНОЙ МОЛОДЕЖЬЮ



*Муаввара  
КУРБАНБАЕВА,  
Ургенчский  
государственный  
университет*



**Аннотация:** В данной статье будет рассмотрена необходимость правильного использования современных технико-технологических средств, социальных сетей, общения и речи виртуальных друзей при изучении русского языка. Анализируется влияние жаргонизмов и сленга на речевое мышление молодежи.

**Ключевые слова:** современная техника-технология, интернет, социальная сеть, виртуальная дружба, нормы литературного языка, жаргонизм, сленг.

**Аннотация:** Уйбу мақолада рус тилини ўрганишида замонавий техника-технология воситалари, ижтимоий тармоқлар ҳамда виртуал дўстлар мулоқоти ва нутқидан тўғри фойдаланиши лозимлиги ҳақида фикр юритилади. Жаргонизм ва сленгларнинг ёшлар нутқий тафаккурига таъсири масаласи таҳлилга тортилади.

**Калим сўзлар:** Замонавий техника-технология, интернет, ижтимоий тармоқ, виртуал дўстлик, адабий тил нормалари, жаргонизм, сленг.

**Annotation:** this article reflects on the need to properly use the communication and speech of modern techniques-technology tools, social networks and virtual friends in the study of the Russian language. The question of the influence of jargonism and slangs on youth speech thinking is subject to analysis.

**Key words:** modern technology-technology, internet, social network, virtual friendship, literary language norms, jargonism, slang.

**Н**аряду с реформами, проводимыми в условиях нового Узбекистана во всех сферах, большое внимание уделяется изучению языков, в частности языков, признанных средством международного общения. Считается, что каждый человек, который в совершенстве, в полной мере владеющий нормами родного языка, придерживающийся языковой культуры, поднят на определенную ступень совершенства. Кроме того, знание иностранных языков служит для внутреннего обогащения и совершенствования. Изучая язык, отличный от родного, человек духовно и умственно обогащается за счет близкого знакомства с чужой культурой. Также знание населением иностранных языков способствует тому, что страна занимает стабильное место в мировом сообществе, развитию науки, экономики. Ученые отмечают, что способность к изучению языков у всех разная. Об этом Е.Чернявский говорит так: «С точки зрения изучения языков люди разделяются на четыре типа. Первый тип – это те, кто любит языки, для которых занятие ими – не мука, не труд даже, а радость. Ко второму типу отношу людей, которые к самим языкам относятся спокойно, но понимают, что без знания того или иного языка им не добиться поставленной цели, потому готовы регулярно трудиться над его изучением. Третий тип – это те, кто не против позаниматься языком, если только это будет не слишком обременительно, а кроме того, будет результативно. И, наконец, четвёртая группа, к сожалению, самая многочисленная, – необозримое море людей, которые к языкам равнодушны и палец о палец ударить не желают, чтобы чего-нибудь добиться».

Люди первого типа добываются успеха в изучении языков при любых обстоятельствах. Люди четвёртого типа, наоборот, ничего не добываются ни при каких условиях поэтому в деловых советах на мой взгляд нуждаются люди второго и третьего типов» [1].

Исходя из требований времени, мы должны сократить число людей четвертого типа, в основном молодых людей с таким же настроением, а также повысить их энтузиазм в изучении иностранных языков. Для этого мы можем использовать различные методы и новые

подходы к освещению тем уроков, включая информацию с официальных сайтов, блогов, аудиоматериалы, доступные в социальных сетях, время от времени отказываясь от обычных, традиционных уроков в университетах, институтах, даже в старших классах средних школ. Конечно, при этом мы обязаны обращать внимание на формальность, достоверность источника, из которого получаем информацию. Особенно неоценима роль аудиоматериалов в быстром и качественном изучении иностранного языка учащимися. При его использовании учащийся приобретает навыки правильного употребления слов в речи, правильного их произношения, понимания смысла. Кроме того, в сегодняшнюю эпоху глубокой глобализации стало обычным делом, чтобы человечество могло свободно «виртуально» пересекать территориальные границы и свободно общаться с людьми других национальностей. Особенno любознательные и общительные, жаждущие общения молодые люди быстро заводят друзей в виртуальном мире со своими сверстниками, которые являются представителями других языков. В этом есть свои плюсы и минусы. Положительным моментом является то, что человек, изучающий язык, может слышать и общаться именно «живым» языком, непосредственно от самого носителя этого языка. Благодаря этому у него появляется возможность быстрее выучить тот или иной язык. Обратной стороной является то, что именно какова речевая культура человека, с которым он вступает в общение, соответственно таковой и формируется уровень речевой культуры изучающего языка. То есть, сложно однозначно сказать, формируется ли у молодежи культура речи, отвечающая требованиям норм литературного языка того или иного языка. В большинстве случаев, к сожалению, языковая культура формируется неправильно. Потому что, молодежь любой национальности будет склонна использовать жаргон, насыщая свой словарный запас нетрадиционным стилем, чтобы подчеркнуть те черты, присущие молодости – отличаться от других, быть непохожими на других. Современная цивилизация трудна обилием информации, обрушившейся на нас. Новые речевые технологии создают почву для

стилевых обновлений. Типы общения в интернете, по электронной почте, мобильной телефонной связи предлагают существенно новый стиль речи, в том числе и русской. Эта речь не может не основываться на культурной традиции, и сколь бы ни был новаторски и креативно настроен пользователь, он не может не опираться на факты предшествующей культуры. Что касается оценок этой «текущей деятельности», пока не вошедшей в культуру, то они должны быть организованы с опорой на культурную традицию, понятия вкуса, элементарной этики и нравственности. Дурны не сами по себе компьютеры и телевидение, а то, как их использует человек. Современная действительность создает большое разнообразие коммуникативных ситуаций. «Речь современного человека подвержена негативному влиянию жаргонной, вульгарной лексики, которое приводит к оскудению и засорению языка» [2]. Здесь мы считаем целесообразным уточнить слово «жаргон». «Жаргон – разновидность разговорной речи, используемая определённым кругом носителей языка, объединённых общностью интересов, занятий и положения в обществе» [3]. Но стоит отметить, что сегодня в современный русский язык вошел лексический пласт – сленг, являющийся разновидностью молодежного жаргона. Хотя сленг является разновидностью жаргона, он не приобретает полностью негативного значения, как жаргон. «На сегодняшний день есть разные определения, касающиеся слова сленг. Существует вопрос о целесообразности включения в сленг выразительных ироничных слов, представляющих синонимы литературной лексики, а также «вульгарную» лексику, которую в кругу интеллигентных людей не поощряют, а само использование осуждают.

Сленгом считается грубая лексика, которую не следует использовать в повседневной жизни. Однако не стоит и отрицать тот факт, что сленг уже довольно хорошо закрепился в речи изысканного общества, ведь его используют и

врачи, и учителя, и юристы, и инженеры и т. д.»[4]<sup>15</sup>.

Как видим, сленг вошел и закрепился в состав активного лексикона русского языка, а некоторые даже используются в сфере письменных текстов и масс-медиа. В конце XX начале XXI века на страницах прессы появились следующие жаргонизмы и просторечные слова: *бабки, штука, кусок, стольник, лимон, баксы, бухта* и др. Поскольку одной из сфер, в которых сейчас больше всего занимается наша молодежь, является компьютерная сфера, особенно заметно, что больше сленга связано с компьютерной техникой, интернет-индустрией. Этот сленг В.Г.Павленко исследовал и показал в своей научной статье: «Для молодёжной речи характерно широкое употребление сленга компьютерной тематики, познакомиться с которой молодые люди могут при общении в социальных сетях. Среди молодёжного сленга в русском языке популярностью пользуются слова компьютерной направленности, такие как : «тролль» – интернет-противник, «завис комп» – плохо работает компьютер», «мотор» – процессор компьютера, «убивать» – удалять информацию с жесткого диска, «дура» – процессор Duron, «топтать батоны» – нажимать на клавиши, «борщ» – перебор, «моралфаг» – моралист, ханжа, «сяб» – спасибо, «бабасики» – до свидания, «забобрить» – запоминать что-то, «экзешник» – файл, содержащий программу, при запуске, «юзернейм» – имя пользователя, «паблик» – группа в социальной сети, «угуглиться» – запутаться в информации в сети Интернет, «нагибатор» – лидер, превосходящий в игре всех, «жамкать» – кликать мышью, «развиртуализация» – открытие своего реального имени вместо игрового персонажа, «ньюфаг» – новичок, чайник, «хабиби» – друг, «чайка» – неопытный игрок, «крашить» – разрушать, убивать виртуальных игроков[4].

Молодежный сленг также встречается и во многих других областях. На первый взгляд кажется, что сленг служит для того, чтобы речь была красочной, разнообразной, но они могут

<sup>15</sup> Павленко В. Г. Молодёжный сленг как языковое явление (на материале русского и английского языков) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 10 (октябрь). – 0,3 п. л. – URL: <http://e-kon-sept.ru/2018/185030.htm>.

привести к нарушению литературных и даже разговорных норм того прекрасного языка, которые веками шлифовались, и последствия этого могут быть непоправимо опасными. Поэтому мы должны разъяснять и сообщать учащимся и студентам в процессе обучения, что жаргонизмы, сленги делают нашу речь некрасивой и неорганизованной, что они не обогащают, а наоборот, обедняют наш язык.

Мы считаем целесообразным, чтобы родители и педагоги консультировали иноязычную молодежь, изучающую язык, в зависимости от того, насколько они следуют правилам и нормам литературного языка при изучении языка через сети Интернет, что является продуктом современного уровня развития.

Мы считаем, что современные стили преподавания языка в школах и вузах должны иметь риторическо-философское обоснование. Обучая студентов правилам формального языка, мы должны показать, что не только это, но и вся человеческая жизнь состоит из слов. Ведь жизнь никогда не бывает хорошей, если

мы не украшаем, не обогащаем свою жизнь красивыми, добрыми словами.

#### **Список использованной литературы:**

1. Е.Чернявский. Я знаю 38 языков. Русский язык. Изд. Укитувчи, 1994.
2. Кельдиев Т.Т. Молодежный сленг в современном русском языке. // Преподавание языка и литературы, 2004, №2.
3. И.Б.Голуб. Русский язык и культура речи. –Москва: Логос, 2003. – С.259.
4. Павленко В. Г. Молодёжный сленг как языковое явление (на материале русского и английского языков) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 10 (октябрь). – 0,3 п. л. – URL: <http://e-koncept.ru/2018/185030.htm>.

### **МАЊОЛАР МАҲЗАНИ**

#### **“ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ҲИҚМАТЛАРИ**

Хушмуомала кишилар одамларда ўзига мойиллик уйғотади, жоҳиллар марди майдонларни ўзларидан узоклаштирадилар.

Ёмонларни салобат билан ҳайиқтириш, эзгулик билан яхшиларнинг муҳаббатини қозониш керак.

Яхшиларга фақат яхшилик кўрсатиб, уларнинг хурсандчилигини қўзлаш, малол чектирмаслик керак.

Барча халқ яхшиликни истайди, яхшилик кўриб, жон фидо қилишга ҳам тайёр туради.

Одамгарчилик қилганга доим одамгарчилик билан жавоб қил, одамгарчиликнинг туб илдизи мана шундан иборат.

Одамийлик қиласиган ишончли саҳоватли кишилар одамлар олдидағи бурчларини нон-туз ҳақи билан ўтайдилар.

Улуғликка эришмоқчи бўлсанг, еб-ичадиган неъматларни улаш, узоқ умр ҳам ош-сувинг эвазига насиб бўлади.

**Юсуф Хос Ҳожиб**

UDK:372.2.01

## STUDYING THE PEDAGOGIC-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF TEACHING YOUNG CHILDREN TO IMAGING ACTIVITIES



**Raziya  
SEYDABULLAEVA,**  
*Master's  
student of  
the theory and  
methodology  
of education  
and training*



**Annotation:** The article examines the issue of studying the pedagogical and psychological significance of the formation of imaging activity in young children. The method of development of educational psycho-technique was studied by forming the skills of imaging activity in children.

**Key words:** developing preschoolers' creativity, distinguishing colours, teaching how to imagine beauty in surrounding, increasing interest on drawing

In the preschool group, preschool age ends and the child is prepared for the school period. Its main achievements are related to the assimilation of the world of materials as objects of human culture. These young children acquire positive forms of communication with people, sexual identity develops, and the position of the child is formed. By the end of preschool age, the child has a high level of cognitive and personal development, which will allow him to study successfully in school in the future. In role-playing games, seven-year-old children begin to master the complex interaction of people, which reflects the characteristic and necessary life situations, for example, a wedding, the birth of a child, illness, employment and other events. The pictures of the works related to the surrounding life and beautiful literature, which are provided by the child to the imaging activity, are complicated. Drawings will have fuller characters, their color scheme will be enriched. The differences between the pictures of boys and girls will be clear. Girls usually draw pictures of women: princesses, models, bags, dolls, etc. These may include diary plots: mother and daughter, room, etc. Indeed, from a pedagogical point of view, children develop artistic and creative abilities in the activity of painting. The picture of a person in the children of the preschool group becomes complete and proportionate. Fingers, eyes, mouth, noses, eyebrows, chin appeared.

Clothes can be decorated with various details. Features of the imaging activity of children from six to seven years old:

they can develop a stable interest in imaging activity, the enrichment of children's thoughts-feelings, experience, in the process of getting to know objects, the skills of checking them with the help of hand movements on the subject are formed. Imagery, paying attention to the obligation to continue the development of figurative ideas, the formation of aesthetic feelings, to treat the work of friends in a friendly and respectful manner, the pictures drawn by the children themselves and children like them. It is necessary to form an aesthetic attitude to the objects and events of the surrounding world, to art essays, to artistic and creative work. It is necessary to teach using previously learned drawing methods in drawing, modeling and applying expressive means.

It is essential to develop the child's analytical abilities in the topic "Continuing learning to draw from nature scenes". Developing the ability to compare objects with each other, to emphasize the features of each object is also significant to improve the ability to describe objects, to develop the skills of delivering their shape, size, structure, proportion, color, content. What's more, improvement collective creativity in the preschool child is one of vital points. Tasks are given to educate the desire to act independently, who will do which part of the work, and how to integrate individual pictures into a common picture. They should learn to notice the defects of their work (drawing, modeling, painting) and correct them, to make changes and corrections in order to make the created picture clearer.

Children's artistic and creative abilities develop in the types of creative activities of young children. The task of the educator is to form aesthetic mind, sense of rhythm, aesthetic evaluation, artistic imagery, aesthetic attitude to the environment, art and artistic activity through creative activity. It is necessary to continuously continue to form an interest in classical and folk art (music, visual art, fiction, architecture). One of the main tasks of teaching children is to introduce the ability to accurately convey impressions of real life around them in the process of describing specific objects and events. In pre-school educational organizations, the student's ability to describe the environment is limited. Everything mastered in the child's mind cannot serve as a subject for his drawing or modeling. It is

difficult for young children to draw all the characteristic features of the subject, because they do not have sufficiently developed imaging skills. For example, various experiences, the composition of delivering a person's emotions, complex angles, harmonious color combinations, and the incomplete formation of the talent of choosing colors will also require others to know these laws in the future. In addition, the child cannot create a generalized type picture, cannot select and combine the characteristics of a number of objects in one picture. The reason is that the child has not yet developed the complexity or convention of many artistic techniques to depict. The quality of the pictures created by young children is ensured due to the fact that there are several signs that allow to recognize the subject of the depicted object.

The method of painting is of great importance in conveying impressions with reality. Children learn the shape of an object, the coefficients of its sections, the location of objects in space, their colors, etc. Another task of the imaging activity is to develop the skills of imaging several objects combined with the general content. The task of creating a thematic composition involves depicting a group of logically connected objects. In everyday life, the child easily understands the connections and relationships between objects, but to convey these relationships in a picture or model, it is necessary to acquire a number of representational skills that require a lot of thought and reflection. The child needs to determine what is primary and secondary in the picture. Solving compositional problems - determining how all objects should be arranged and seeing the relationship between them, what colors should be painted, and how they should be depicted. Mastering this imaging technique is a complex task that requires the development of thinking. In kindergarten, this is mostly done in large groups.

One of the necessary tasks of an educator is to develop children's ability to create patterns, taking into account rhythm, symmetry, color. Solving this problem is related to the different characteristics of the aesthetic development of a preschool child. For children, it is possible to perform the simplest rhythmic constructions and use bright, con-

trasting combinations of colors to create an expressive composition (for example, painting the shadows of large objects). This task is mainly carried out in decorative painting and application classes. In sculpture, it is the decoration of painted vessels and decorative plates with a pattern made in the manner of painting or painting with molds. One of the necessary tasks of teaching visual arts is mastering the technical methods of working with various materials. Drawing skills consist of the ability to convey the shape of an object, its structure, color and other qualities, to create a pattern taking into account the decorated form. Technical skills are inextricably linked with imaging skills. To describe any object, the child needs to learn to draw lines freely and easily in any direction, and it is the task of the visual art method to convey the shape of the object through these lines.

Acquiring technical skills only at the initial stage of training requires great concentration and active activity of the child's mind. Therefore, gradually, technical skills are automated, the child should be able to perform them without stress. Technical skills include proper use of materials and equipment. For example, the first technical skills in drawing are the ability to hold a pen and pencil correctly and use them freely. Technical skills are very

important, because their lack often leads to a decrease in the interest of children in the work of illustration and causes dissatisfaction in them. It is necessary to use the skill of free and fair use of the material, not in a mechanical way, but on the contrary, taking into account the signs of the subject of the painting. To sum up, the tasks of teaching visual arts are inextricably linked with the different characteristics of this art form, and therefore, at the same time, they help to implement reading tasks and develop children's artistic abilities.

## References:

1. Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига кўйиладиган давлат талаблари. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирининг 2018 йил 18 июндаги 1-мҳ-сон [буйруғига](https://nrm.uz) ИЛОВА. <https://nrm.uz>.
2. “Bolajon” takomillashtirilgan tayanch dasturi. Toshkent, 2016-yil.
3. Sodiqova SH. Maktabgacha pedagogika. To’ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.
4. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. Tafakkur sarchashmalari, T.: 2013-y.

## UMR HIKMATI SAODATI

### Noziklik

Farzandning ota-onadan noroziligi to`satdan paydo bo`lmaydi, balki yillar davomida uning yuragida to`planadi, rivojlanadi va bir kun kelib “portlaydi”. Shunday ekan, ushbu muammoning yuzaga kelmasligi, avvalo, ota-onaning gardanida. Dunyoda mas’uliyatlari ishlar ko`p. Ular orasida muhimlaridan biri – farzand tarbiyasidir. Bunda, albatta, bolaning yoshi, jismoniy va aqliy quvvai hofizasi, didi, intilishi kabi shaxsiy xislat hamda imkoniyatlari inobatga olinishi zarur. Dilbandning pokiza ko`ngil bo`stoniga ana shu tariqa beozor va samimiyat, ehtiyyotkorlik ila kirmoq tavsiya etiladi. Zero, farzandning o`z ko`ngli bor. O`z fikr-u aqli, dunyoqarashiga ega...

*Obiddin MAHMUDOV. Farzandnomasi*

UDK:37.017.92

## TALABA-YOSHLARDA SOG'LOM DINIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarda din va diniy dunyoqarash inson ma'naviyatining muhim ko'rinishlaridan biri ekanligi, shu bilan birgalikda ularda diniy dunyoqarash qanchalik sog'lom bo'lsa, shaxsnинг ma'naviyati ham shu qadar yuksak bo'lishi nazarda tutilib, diniy dunyoqarashni shakllantirish yo'llari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom diniy dunyoqarash, zardushtiylik dini, Qur'on, diniy bag'rikenglik, kasbiy ijtimoiy yetuklik, ma'naviy e'tiqod, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, halollik, haqgo'ylik, saxiyilik, ekstremistik.

**Аннотация:** В статье говорится, что религия и религиозное мировоззрение у студентов является одним из важных проявлений духовности человека, и при этом, чем здоровее религиозное мировоззрение, тем выше будет духовность личности.

**Ключевые слова:** здоровое религиозное мировоззрение, зороастрийская религия, Коран, веротерпимость, профессиональная социальная зрелость, духовная вера, духовно-просветительское воспитание, честность, правдивость, великодушие, экстремизм.

**Annotation:** This article assumes that religion and the religious worldview of students is one of the important manifestations of a person's spirituality, and at the same time, the healthier the religious worldview, the higher the spirituality of the individual.

**Key words:** Healthy religious outlook, Zoroastrian religion, Koran, religious tolerance, professional social maturity, spiritual faith, spiritual and educational education, honesty, truthfulness, generosity, extremism.

Bugun O'zbekistonda din ahliga, ilm ahliga yuksak e'tibor ko'rsatilmoqda. Birinchi va ikkinchi Sharq Renessansi davrida uyg'ongan islom ma'rifati, islom ma'naviyati, qadriyatlari Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yuksalish bosqichiga ko'tarilmoqda. Bu hol



**Gulistan GANIYEVA,**  
Qoraqalpoq davlat  
universiteti,  
yuridika fakulteti  
“Milliy g'oja,  
ma'naviyat  
asoslari va huquq  
ta'limi” kafedrasi  
stajyor-o'qituvchisi



iqtisodiy hamda ijtimoiy, ma'naviy hayotning barha sohasini qamrab olayotir. Mislsiz bu o'zgarishlarga hamohang islom diniga e'tibor tobora kuchayib bormoqda [1].

Bugungi kunda talabalarning diniy sog'lom dunyoqarashini rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, sog'lom diniy dunyoqarash egasigina diniy bag'rikenglik ko'nikmasiga ega bo'ladi. Din haqidagi aniq tushunchalar va tasavvurlardan maqsadga muvofiq holda foydalana oladi. Din haqidagi aniq tasavvurlar diniy bilimlar va tushunchalarni puxta o'zlashtirish negizida vujudga keladi. "Islom ensiklopediyasi"da din tushunchasi quyidagicha tariflangan: Din (arab. – mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish) – Xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar borligiga ishonish. Arab tilida din so'zi keng ma'noda ishlataladi. Qur'onda din so'zi turli ma'nolarda 100 dan ortiq marotaba ishlatalgan bo'lib, o'sha ma'nolarning hammasi ayni vaqtdagi din atamasida ham o'z aksini topgan. Insonning dinka bo'lgan munosabati uning diniy dunyoqarashida o'z ifodasini topadi. Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidiagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan qarashlar tizimi. Shuningdek bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari kiradi. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Diniy dunyoqarash shaxsning o'zi va atrofdagilarning ichki olami, kechinmalari, e'tiqodlarining mazmun mohiyatini anglashga ko'maklashadi. Shunga ko'ra diniy dunyoqarash din bilan bog'liq hodisalar va voqealarning shaxs ongida aks ettirishini anglatadi. Har bir shaxsning dinka bo'lgan individual munosabati diniy dunyoqarashni asosini tashkil etadi. Shuning uchun diniy dunyoqarash jamiyat a'zolarining tafakkur tarzi, xatti-harakatlari mazmunini belgilaydi. Diniy dunyoqarashning qanchalik sog'lom bo'lishi insonning diniy bilimlar, qarashlarni qay darajada egallanganligiga bog'liq. Insonning dunyoqarashi to'rt shaklda

namoyon bo'ladi. 1. Mifologik. 2. Diniy. 3. Turmush bilan bog'langan. 4. Falsafiy. Diniy dunyoqarash barcha voqealarning hodisalar, ular orasida aloqadorlikni ilohiy kuchlar bilan bog'liq holda talqin etadi. Diniy dunyoqarashning muhim ko'rinishlari sifatida diniy e'tiqod, din bilan bog'liq histuyg'ular, kechinmalar, diniy aqidalarga bo'lgan ishonch, ilohiy kuchlarga sig'inishlarni ko'rsatish mumkin. Shunga ko'ra din va diniy dunyoqarash inson ma'naviyatining muhim ko'rinishi hisoblanadi. Diniy dunyoqarash qanchalik sog'lom bo'lsa, shaxsning ma'naviyati ham shu qadar yuksak bo'ladi. Diniy dunyoqarash ma'naviy e'tiqod va ma'naviy xatti-harakatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Sog'lom diniy dunyoqarash insonlarga ma'naviy yuksalish yo'lini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" hamda "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari madaniy hayotimiz ravnaqi, adabiy-badiiy tafakkur rivoji va yoshlar tarbiyasi samaradorligiga xizmat qiladi. Hayot suratinning tezlashuvi deb atalayotgan bugungi globallashuv sharoitida Ma'naviy tarbiya iqtisodiy o'sish, ilmiy tafakkur, ma'rifiy yetuklik kabi tushunchalar qatorida yetakchi o'ringa ega bo'lib turibdi. Chunki, ayni shu sohada yuzaga kelayotgan muammolar boshqa sohalardagi muammolar yechimiga borib taqaladi.

Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy va ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi. Chunki, bu muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shilq, beparvolik bilan bog'liq [2]. Shuning uchun ham talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirish orqali Ma'naviy yuksalish motivlarini hosil qilish nazardautiladi. Xalqimiz ko'p asrlar mobaynida u yoki bu dinka e'tiqod qilib kelgan, ularning e'tiqodi dunyoqarashini ifodalagan. Ajdodlarimiz turli xalqlarning diniy e'tiqodlarini o'rganish natijasida o'zlarining diniy-ma'naviy tasavvurlarini kengaytirishga muvaffaq bo'lganlar. Xalqimizning aksariyat urf-odatlari, qadriyatlarini diniy dunyoqarash mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalarga urf-odatlar, qadriyatlarini o'rgatish jarayon-

ida ular bilan bog‘liq bo‘lgan voqelik haqida ma’lumotlar berish lozim. Har bir dinda jamiyat a’zolaringin ma’naviy dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan g‘oyalalar mujassamlashgan bo‘ladi. Masalan, Zardushtiylik dinida ezgulik va ekologik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Yer, suv va havoni bulg‘amaslik lozimligi, bu ulkan gunoh ekanligi ta’kidlangan. Shuning uchun ham jasadlarni yerga ko‘mish tavsiya etilmagan. Olovga esa poklovchi, yovuz kuchlarni daf etuvchi kuch sifatida baho berilgan. Zardushtiylik dinida behuda qon to‘kish qattiq qoralangan, yovuzlikka qarshi kurash targ‘ib qilingan. Insonlar bunyodkorlikka da’vat etilgan, buzg‘unchilik gunoh hisoblanib, qoralangan. Zardushtiylikda mehnat va mehnatsevarlik ulug‘langanki, bu g‘oya bugungi kunda jamiyat farovonligini ta’minlovchi eng asosiy omil hisoblanadi. Mehnatkash insonning sahovatli bo‘lishi ta’kidlanadi. Inson o‘z vijdoni ezgulik sahovati bilan poklashi ta’kidlangan. Zardushtiylikdagi alohida diqqatga loyiq g‘oyalardan biri insonning axloq-odobi, ma’rifatli bo‘lishiga intilishidir. Zardushtiylikda inson va tabiyatning tozaligiga muhim masala sifatida e’tibor qaratilgan, inson nasl-nasabining pokligi targ‘ib qilingan. Garchand bizning mamlakatimizda zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchilar bo‘lmasa-da, unda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy qarashlar talaba-yoshlar dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham zardushtiylik dinida ma’naviy-axloqiy qarashlar, madaniy yuksalish tamoyillari bilan tala-balarni muntazam tanishtirib borish o‘z samarasini beradi [3].

O‘rta Osiy azaldan madaniyat va ma’naviyat markazi bo‘lib, madaniyatlar turli dinlarning ilg‘or g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan va umuminsoniy madaniyat darajasiga ko‘tarilgan. Shuning uchun ham umumbashariy madaniyat namoyandalari O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan. Ularda diniy dunyoqarashning yuksak namunalari shakllangan. Ma’lumki, IX-XV asrlarda O‘rta Osiyoda madaniyat, ma’rifat, fan yuksak darajada rivojlangan hisoblanib, bunday rivojlanishning asosini diniy dunyoqarash tashkil etgan. Insonlarda shakllangan diniy dunyoqarash dunyoviy bilimlarning ham rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. O‘z navbatida gumanistik dunyoqarash shaxs madaniyati va ma’naviyatini yuksaltirishga poydevor bo‘la

oladigan asarlar va g‘oyalarning dunyoga kelishiga asos yaratdi. Mutafakkir ajdodlarimiz shaxsning diniy dunyoqarashi unga cheksiz imkoniyatlarni baxsh etishi, aql-idroki, qarashlari, intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaganlar. Ajdodlarimiz faqat islomiy e’tiqodlar bilan cheklanib qolmasdan antik davrda yaratilgan madaniy merosga murojaat qilgan holda o‘z madaniyatlarini va ma’naviyatlarini boyitganlar [4].

Ajdodlarimiz o‘zlarining ma’naviy qarashlarini ramziy obrazlar timsolida targ‘ib qilganlar. Natijada yoshlar ezgulik va yovuzlikning o‘ziga xos jihatlarini osongina farqlashga muvaffaq bo‘lganlar. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida islomiy e’tiqodlari va odob-axloq doirasida doston qahramonlari hokim Kuntug‘di – adolat, vazir Oyto‘ldi – baxt, vazirning o‘g‘li O‘g‘dulmish – aql ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib inson kamolotini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida mehnat, ilm, bahs va shaxslararo munosabatlarni ko‘rsatadi. Har bir insonning jamiyat ravnaqi yo‘lida xizmat qilishi, unga foyda keltirishini ta’kidlaydi. Mehnat tufayli inson kamolotga yetishini e’tirof etadi. Bilim esa mehnatning asosi ekanligini asoslashga harakat qilgan. Yusuf Xos Hojib hukmdorni adolatli bo‘lishga, qonunlarga rioya qilishga chaqiradi. Bu esa, diniy dunyoqarashning asosini tashkil etib, barcha davrlar uchun xos, ahamiyatli bo‘lgan davat hisoblanadi. Islomiy e’tiqodga ko‘ra har bir inson adolatli, halol, zulm qilishdan yiroq, odamlarga mehribon bo‘lishi lozim. Yusuf Xos Hojibning ta’kidlashicha, inson qanday mavqega ega bo‘lmasin, o‘zining insoniylik sifatlarini tark etmasligi kerak. Islomiy dunyoqarashning asosiy mezonlaridan biri ilmma’rifatni egallash tufayli jamiyatni rivojlanishga erishish mumkinligini e’tirof etishdan iborat. Ilm inson yolini yorituvchi mash’al hisoblanadi, ilmsizlik esa insoniyatni zulmatga yetaklaydi, de gan g‘oyani tasavvuf ta’limoti namoyandalari ham qayta-qayta ta’kidla-ganlar. Mutafakkir ajdodlarimiz yoshlarni chuqr mushohada qilib so‘zlashga da’vat qilganlar. Ularni tilga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga chaqirganlar. Islomiy tarbiya namoyandalari insonning ichki olami bilan tashqi qiyofasi mutanosib bo‘lishi har bir

shaxs uchun surat va siyrat birligi zarurligini ta'kid-  
laganlar va yoshlarni shunga da'vat qilganlar. Ular  
yolq'onchilikni, munofiqlikni qoralaganlar, ular  
bunday illatlarni insonning o'zi va butun jamiyat  
uchun zararli ekanligini ko'rsatib o'tganlar. Islomiy  
dunyoqarash tarbiyasida Ma'naviy-marifiy yetuk-  
likka da'vat etish yyetakchi o'rinn egallagan. Bu  
g'oya o'sha davrda yashagan ko'plab mutaffakkir-  
lar, shoir va yozuvchilar ijodida yetakchi o'rinn egal-  
lagan. Masalan, XII asr oxiri va XIII asrning  
birinchi yarmida yashab ijod qilgan Ahmad Yugnakiy  
"Hibbat ul haqoyiq" dostonida islomiy dun-  
yoqarashning asosiy tamoyillarini bayon qilgan.  
Ular, boylikka hirs qo'ymaslik, yaxshilik qilishga  
rag'bat uyg'otish, bilimli, ma'rifatli bo'lish, yetuk-  
likka intilish, bilim egallash orqali kamolotga er-  
ishish, yaxshilik bilan hurmat qozonish, bilim bit-  
mas-tuganmas boylik ekanligi, til tarbiyasining mu-  
him ahamiyatga egaligi, u baxt va baxtsizlikning  
sababchisi ekanligi, halollik, haqgo'ylik, saxiylik  
buyuk fazilat ekanligi, kamtarinlik insonni  
ulug'likka yetaklashi, ezgulikning eng yaxshi amal  
ekanligi kabilalar shular jumlasidandir [5].

Xulosa qilib aytganda, diniy dunyoqarash  
tufayli ajododlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tarbi-  
yaning bitmas-tuganmas asoslarini yaratganlar.  
Bugungi kunda butun insoniyat mazkur ma'rifikatdan  
bahramand bo'lib, o'z tafakkurini boyitishga erish-  
moqda. Shuning uchun ham talaba-yoshlarda  
sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish tufayli,  
ularni kasbiy ijtimoiy yetuklikka da'vat qilish  
mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <http://old.muslim.uz/index.php/ar/maqolalar/item/26857-ma-navij-yuksalish-pojdevori>
2. <https://yuz.uz/news/ma'naviyat--milliy-yuksalish-poydevori>
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. N.Jo'raev T.: G'afur G'ulom, 2015 – 699 b.
4. Islom. Ensiklopediya: A-H / Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 672 b.
5. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 344 b

## **УМР ҲИКМАТИ САОДАТИ**

### **Самимият баҳоси**

Ҳаётда ҳақиқий дўст ўз дўстига ҳар доим ҳам ёқиб ёқавермайди, бу бор гап.  
Чунки дўст дўстининг тутган хатти-ҳаракати, одоби, сўзи ва амалига қараб муносабат  
 билдиради. Ганим эса ўзига манфаатли дақиқа ва имкониятлардан унумли фойдалана  
 олиш пайида... Ахир, ўзингиз айтинг, яқин инсонларингиздан биронтаси ҳар гал “Сен  
 доносан”, “Сени жудаям ҳурмат қиласман”, дея тўтидек жонсиз, ҳис-ҳаяжонсиз  
 гапларни тақрорлаганини эшигтганмисиз? Аксинча, у дўстга бўлган меҳр-оқибатини,  
 кўпинча, юрагида пинҳона сақлади. Тўғри, ҳар замонда муносабат билдириб  
 турилади. Лекин жойида, меъёрида ва тъсирили ҳолатда. Зоро, мавридсиз билдирилган  
 лутф устоздан ҳайбатнинг, дўстдан самимиятнинг, қариндошдан меҳрнинг кетишига  
 сабаб бўлади.

**Обиддин МАҲМУДОВ**

UDK: 159.9.371.378.004

## TALABA YOSHLARDA KOMMUNIKATIV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK KOMMUNIKATIV TRENINGLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talaba yoshlarda kommunikativlik va muloqotchanlikni, suhbatdoshiga o'z nutqini yetkaza bilish ko'nikmasini rivojlantrishda psixologik va kommunikativ treninglarning ahamiyati bayon etib berilgan. Shuningdek, maqolada kommunikativ malakalarini rivojlantrishga qaratilgan trening dasturi taqdim etilgan bo'lib, trening dasturi oliv ta'limning dars jarayoni uchun ajratilgan 80 daqiqaga mo'ljallangan holda tuzilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ, psixologik, trening, "buzuq telefon", "hissiy salomlashish", "maktabdag'i bir kun", muloqot, munosabat.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение психолого-коммуникативного тренинга в развитии коммуникативности и коммуникабельности, умения донести свою речь до собеседника. Также в статье представлена программа обучения, направленная на развитие коммуникативных навыков.

**Ключевые слова:** коммуникативный, психологический, тренинг, «сломанный телефон», «эмоциональное приветствие», «день в школе», общение, отношение.

**Annotation:** This article describes the importance of psychological and communicative training in the development of communication and sociability, the ability to convey one's speech to the interlocutor. The article also presents a training program aimed at developing communication skills.

**Key words:** communicative, psychological, training, "broken phone", "emotional greeting", "a day at school", communication, attitude.

Jahonda ta'lif – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini beradigan faoliyat sifatida qaralib, pedagogik kadrlar professional faoliyatining turli bosqichlarida ularning kasbiy mahoratini va kommunikativ malakalarini baholash masalasi muhim muammolardan biriga aylanmoqda.



Ozoda YADGAROVA,  
Samarqand davlat chet  
tillar instituti dotsenti v.b.,  
PhD

Ayniqsa ta’lim muassasalarida ta’lim shaklining o‘zgarishi, yangi sharoit va muhitda ishslash zarurati o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talabning ortishi, ularning funksional majburiyatlarining ko‘payishi va professional-kommunikativ malakalarini kengayishi ehtiyojini keltirib chiqardi.

Dunyo miqyosida o‘qituvchilarini professional faoliyatga tayyorlash va ularni jamiyatdagi nufuzini oshirish, kasbiy-pedagogik faoliyat bilan bog‘liq kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar amalgalashirilmoxda. Xususan, o‘qituvchilarini professional faoliyatga tayyorlash, ularda zaruriy kasbiy sifatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish, kasbiy yetuklikni rivojlantirish, shuningdek o‘qituvchilarning proffesional kompetentligini shakllantirish, ularni professional faoliyatga tayyorlash muammolariga qaratilgan tadqiqot natijalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birgalikda talaba yoshlarni, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarining professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari ta’lim sifati, umumiy va maxsus kompetensiya, instrumental, shaxslararo va tizimli kompetensiyalar mazmunini aniqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Talaba yoshlarni kommunikativ faoliyatga tayyorlashda muloqotli seminarlar qiziqarli va nostandart o‘quv va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda yuqori natijalarni kafolatlaydi, o‘quvchilarning o‘qitish sifatini, qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchidan pedagogik, psixologik va uslubiy, shaxslararo, kommunikativ kompetensiya va treninglar metodikasini bilish talab etiladi. Shu o‘rinda kommunikativ trening tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Kommunikativ trening - bu odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan trening. Kommunikativ trening boshqa odamlar bilan ma’lumot almashish, ma’lumotlarning eng samarali uzatilishi uchun sharoit yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kommunikativ ta’lim ijtimoiy munosabatlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini, ya’ni boshqa odamlar bilan aloqani o‘z ichiga oladi. Kommunikativ ta’limda samarali aloqa jarayonlari rivojlanadi va quriladi, inson qiyofasi va uning

o‘zga shaxslarga munosabati shakllanadi va saqlanadi, rozilik va hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi. Kommunikativ ta’lim shaxsiy munosabatlari va o‘zgalar bilan munosabatlarni uyg‘unlashtirishga, insonlar bilan ijobjiy munosabatlarni o‘rnatishga va uni kengaytirishga qaratilgan. Kommunikativ ta’lim ijtimoiy munosabatlarni, ya’ni boshqa odamlar bilan muloqotni boshqarish nazariyasi va amaliyotini o‘z ichiga oladi. “Kommunikativ ta’lim jarayonida samarali muloqot jarayonlari rivojlantiriladi va quriladi, shaxs qiyofasi va uning boshqa odamlarga munosabati shakllanadi va saqlanadi, kelishuv va hamkorlikka erishish ko‘nikmalari shakllanadi. Kommunikativ ta’lim insoniy munosabatlari va boshqa odamlar bilan aloqalarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan, odamlar bilan ularning maqsadlariga muvofiq aloqalarni o‘rnatish va optimallashtirishga qaratilgan” [1].

Muvaffaqiyatli muloqot uchun odam muloqotning ikkita asosiy yo‘nalishiga egalik qilishi kerak: tashqi va ichki, ya’ni avval odam o‘zini tushunishni o‘rganishi, o‘zini eshitishi, o‘zi bilan muzokara olib borishi, o‘zini boshqarishi kerak, so‘ngra - boshqa odamlar bilan aloqa o‘rnatishi kerak. Shuning uchun, kommunikativ trening, birinchi navbatda, psixologik, ikkinchidan, texnologikdir. Kommunikativ trening so‘zma-so‘z "umumiy" yoki "hamma birgalikda foydalanishi" ni anglatadi. Muloqot deganda odatda aloqa, ma’lumotni odamdan odamga uzatish, odamlar o‘z faoliyati davomida o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos shakli tushuniladi. Amaliy ma’noda, bu ikki yoki undan ortiq odam o‘rtasida o‘zaro tushunishga olib keladigan fikr va ma’lumot almashish jarayoni [3].

Kommunikativ trening mashg‘ulotlari davomida ushbu elementlarning har bir bosqichida ish olib boriladi.

1. Butun aloqa tizimi, odamlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlari, aloqani boshqarish tizimi amalga oshiriladi.

2. Talabalar o‘zini, uning xususiyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini biladi, idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadi, ma’lumotni kodlaydi.

3. Talabalarda o‘zini taqdim etish va so‘zlash qobiliyatları rivojlantiradi.

4. Og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan xabarlarni samarali yaratish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Ma‘lumotni yetkazish vositalari va ularning xususiyatlari ma‘lum vaziyatda mos vositalarni tanlash qobiliyati uchun o‘rganiladi.

6. Boshqa shaxslarni tushunish, xulq-atvorini bashorat qilish sabablari va tushunish, tinglash va eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

7. Teskari aloqa qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1. L.I.Umanskiy [4] tomonidan kommunikativlikning 3 ta yo‘nalishi ajratib ko‘rsatilgan. Bular:

1. “Intellektual kommunikativlik – bu shaxslararo bir-birini idrok etish va bir-birini tushunish jarayoni.

2. Hissiy kommunikativlik – bu shaxslararo aloqada” [2] his-tuyg‘u va guruhda yuqori hissiy kayfiyatning mayjud bo‘lishi.

3. Irodaviy kommunikativlik – bu guruhning qiyinchiliklarga chidamliligi, stresslarga qarshi tura olishi va ekstremal vaziyatlarda ishonchliligi.

*Biz quyida kommunikativ malakalarni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturini taqdim etamiz.* Trening dasturi oliy ta’limning dars jarayoni uchun ajratilgan 80 daqiqaga mo‘ljallangan holda tuzilgan (darsga bog‘liq bo‘lmagan boshqa trening mashg‘ulotlarida esa trening o‘tkazilish vaqtiga tashkil etilayotgan trening vaqtiga moslashtiriladi).

**Treningdan kutilayotgan maqsad:** ishtirokchilarda faol muloqotga kirisha olish va qiyin vaziyatlardan osonlik bilan chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish, muloqotga kirishishdagi to‘sislarni bartaraf etish, ijobjiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish.

#### **Treningning borish tartibi:**

##### **1. Guruhiy normalarni ishlab chiqish:**

Trening jarayonida guruhda ishlarni tashkil qilishga doir normalar (tamoyillar) quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin.

\* Intizomga qat’iy rioya qilish.

\* "Maxfiylik".

\* "Shu yerda va hozir".

\* Fikrni birinchi shaxs tomonidan bayon etish.

\* "Yagona mikrofon" normasi.

\* "Seminarning boshidan oxirigacha qatnashish".

\* "Ixtiyoriylik".

\* "Vaqtni tejash - sarishtalik".

\* "Shaxsni baholamaslik".

#### **2. Ishtirokchilar kutuvlarini aniqlash**

Trener qisqa vaqt mobaynida talabalardan bugungi treningda ishtirok etishdan maqsad va kutilmalarni so‘rab oladi. Zarur hollarda ishtirokchilar kutilmalariga qarab trening dasturiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritadi.

#### **3. Salomlashish mashqi “Hissiyotli salomlashish”**

**Maqsad:** guruh a’zolari o‘rtasida ijobjiy kayfiyatni hosil qilish.

#### **4. Enerjayzer “Atom-molekula” o‘yini.**

**Maqsad:** ishtirokchilarning ishchanlik samaradorligini oshirish va guruh a’zolari o‘rtasidagi taranglikni yumshatish.

#### **5. “Men kimman?” mashqi.**

**Maqsad:** ishtirokchilarda axborotni uzatish va uni qayta ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ulardagagi taranglikni yumshatish maqsadida humoristik obrazlardan foydalanish.

**6. Qaytar aloqa:** Ishtirokchilarning holati va his-tuyg‘ularini anglash maqsadida ularning ayni vaqtdagi kechinmalarini ikki og‘iz so‘z bilan ifodalashlari so‘raladi.

#### **7. “Buzuq telefon” mashqi [5]**

**Maqsad:** ma‘lumotni tarqatishdagi buzilishlarni anglash.

Ma‘lumotni idrok qilish va faol tinglash uslubini tezlashtirish.

#### **8. “Maktabdagi bir kun” o‘yini.**

**Maqsad:** muammoli vaziyatlarda mo‘ljal olish va muammo yechimini topish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### **9. “Chigalni yech” o‘yini.**

**Maqsad:** hamkorlikdagi faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishni o‘rgatadi.

Qatnashchilar doira shaklida turadilar.

#### **Yakunlovchi qism: “Psixologik yordam”**

**Maqsad:** treningni yakunlash va qatnashchilarni bir-birlariga psixologik yordam berishga, bir-birlari haqida ijobjiy taassurotlar uyg‘otishga o‘rgatish.

Bu yakunlovchi qismi mashg‘ulotning oxiri hisoblanadi va trener tomonidan barchaga minnatdorchilik bildiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, psixologik kommunikativ treninglar talaba yoshlarda kommunikativlikni rivojlantirishda ahamiyati katta. Chunki, jamiyatning ijtimoiy va hissiy holati uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat: o‘quvchilarning ma’naviy muvofiqligi, ularning ijtimoiy intilishlari va axloqiy tarbiyasi. Bu tarkibiy qismlar insoniy muomalaning eng nozik jihatlariga, aql-idrok, iroda va his-tuyg‘ularga taalluqli bo‘ladi, ko‘p jihatdan

shaxsning foydalanishiga, ijodiy faoliyatiga, boshqalar bilan hamkorlik qilishi va jipsligiga yordam beradi. Kommunikativ treninglar qo‘llanilganda talabalar jamoasidagi ishchanlik qobiliyati ortishi, nizoli vaziyatlarni hal qilish darajasining osonlashishi, talabalarning stressga chidamliligi ortishi, muloqot jarayoni samaradorligining ortishi, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik sifatlarining ortishiga erishish mumkin.

<b>Nº</b>	<b>Mashg‘ulotning nomi</b>	<b>Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt</b>	<b>Kutilayotgan natijalar</b>
1.	Guruh normalarini ishlab chiqish	5 daqiqa	Guruh normalarini ishlab chiqish treningni tartibli va samarali o‘tishiga yordam beradi.
2.	Ishtirokchilar kutuvlarini aniqlash	3 daqiqa	Trenerga mashg‘ulotning kechishini oldindan prognozlash va zarur holda korreksiyalashga yordam beradi.
3.	Salomlashish mashqi “Hissiyotli salomlashish”	10 daqiqa	Guruh ishtirokchilari bilan tanishish va ularni trening muhitiga olib kirishga yordam beradi.
4.	Enerjayzer “Atom-molekula” o‘yini	5 daqiqa	Ishtirokchilarning ishchanlik samaradorligini oshiradi va guruh a‘zolari o‘rtasidagi taranglikni yumshatadi.
5.	“Men kimman?” mashqi	5 daqiqa	Ishtirokchilarga axborotni uzatish va uni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
6.	Qaytar aloqa	2 daqiqa	Ishtirokchilarning holati va his tuyg‘ularini anglashga yordam beradi.
7.	“Buzuq telefon” mashqi	15 daqiqa	Axborot uzatish ko‘nikmasini shakllantiradi.
8.	“Maktabdagagi bir kun” o‘yini	15 daqiqa	Muammoli vaziyatlarda mo‘ljal olish va muammo yechimini topish ko‘nikmasini shakllantiradi.
9.	“Chigalni yech” o‘yini	10 daqiqa	Hamkorlikdagi faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishni o‘rgatadi.
10.	“Psixologik yordam” o‘yini	10 daqiqa	Treningni tugatish va qatnashchilarning bir-biri haqida ijobjiy xulosa qilishga yordam beradi.

**1. G‘oyaning kelib chiqishi.** Yuboruvchi qanday mazmunli g‘oya yoki xabarni etkazishni xohlaydi. Afsuski, ushbu birinchi bosqichda ko‘plab aloqa urinishlari to‘xtatiladi, chunki jo‘natuvchi g‘oya haqida o‘ylashga etarli vaqt sarflamaydi.

**2.Kodlash va yo‘nalishni tanlash.** Fikrni etkazishdan oldin, jo‘natuvchi uni kodlash uchun ramzlardan foydalanishi, buning uchun so‘zlar, intonatsiya va imo-ishoralardan foydalanishi kerak. Ushbu kodlash g‘oyani xabarga aylantiradi. Samarali kodlash uchun og‘zaki aloqa va og‘zaki bo‘lmagan muloqot tillarini tushunish, ijod va ongsiz jarayonlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish kerak

### Kommunikativ treningni tashkil qilish bosqichlari 4 bosqichdan iborat


**3.O‘tkazish.** Uchinchi bosqichda jo‘natuvchi xabarni qabul qiluvchiga etkazish uchun kanaldan foydalanadi. Muloqot og‘zaki, yozma yoki ko‘rish yoki teginish orqali bo‘lishi mumkin, siz xabarni aloqa yoki jonli efir orqali etkazishingiz mumkin. Bu xabarni jismoniy uzatish haqida, ko‘pchilik aloqa jarayonining o‘zi uchun xato qilishadi.

**4.Kodlash.** Yuboruvchi xabarni yuborganidan so‘ng, qabul qiluvchi uni hal qiladi. Dekodlash - bu jo‘natuvchi belgilarining qabul qiluvchining fikrlariga tarjimasi. Agar jo‘natuvchi tomonidan tanlangan belgilarni qabul qiluvchi uchun aynan bir xil ma’noga ega bo‘lsa, ikkinchisi jo‘natuvchi o‘z g‘oyasi shakllantirilganida nimani yodda tutganligini aniq bilib oladi. Agar g‘oyaga munosabat talab etilmasa, ma’lumot almashtish jarayoni shu erda tugashi yoki mulohazalar bilan davom etishi kerak.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.[https://www.e\\_library.ru/item.asp?id=22877941](https://www.e_library.ru/item.asp?id=22877941)
- 2.<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28410961>
3. Мальханова. И. А. "Коммуникативный тренинг."//Ж. (2006): 160.

4. Уманский Л. И. Параметрическая теория коллектива: история создания и тенденции развития. /Уманский ЛИ, Френкель ИА, Лутошкин АН, Спирин, ЛФ, Чернышев, АС, Полонский, ИС,... & Подорога, В. Я
5. S.N.Alimxodjayeva, F.I.Haydarov “Psixologik treninglar ishlanmasi”. Toshkent-2008.



UDK: 639.2/597.3

## AMUDARYO KATTA VA KICHIK SOXTAKURAKBURUNLARI

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimiz tabiat, milliy boyligimiz, tabiatda yo'qolib borayotgan Amudaryo katta va kichik soxtakurakburunlarini asrab qolishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, tur, baliqchilik, bakra, ilmiy izlanish, Amudaryo.

**Аннотация:** Статья акцентирует внимание на охрану национального богатства - природу, в частности сохранение редчайшего вида рыбы - Амударьинского большого и малого лопатоносов.

**Ключевые слова:** природа, вид, рыбной промысл, лопатонос, научное исследование, Амударья.

**Annotation:** The article focuses on the protection of national wealth - the nature, in particular the preservation rare species of fish - Amudarya shovelnose.

**Key words:** nature, view, fishing, shovelnose, scientific research, the Amu Darya



**Zokir RAJABOV,**  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi  
katta ilmiy xodimi,  
qishloq xo'jaligi fanlari  
bo'yicha falsafa doktori



**Rajabboy PO'LATOV,**  
O'zbekiston Ekologik  
partiyasi  
Xiva shahar Kengashi raisi

**A**mudaryo katta soxtakurakburuni yoki qilquyruq Qizil kitobning maxsus relikt baliqlari ro'yxatiga kiritilgan. Bu tur Amudaryo havzasini uchun endemik bo'lib, dunyoning boshqa mintaqalarida uchramaydi. Amudaryo katta soxtakurakburuni (*Pseudoscaphirhynchus kaufmanni*) va Amudaryo kichik soxtakurakburuni (*Pseudoscaphirhynchus hermanni*) Amudaryoda yashaydi. Amudaryo soxtakurakburunlari yo'qolib ketish xavfi ostida turgan tur sifatida O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston Qizil kitoblariga, Xalqaro IUCN Qizil ro'yxatiga va CITES II ilovasiga kiritilgan. Ovlash butunlay ta'qiqlangan. Amudaryo katta soxtakurakburuni qadim o'tmishdan qolgan tirik qoldiq bo'lib, qadimgi Tetis okeanida yashagan, qoldiqlaridan biri Orol dengizi bo'lgan eng qadimgi baliqlar guruhining vakilidir.

Soxtakurakburun migratsiyasi va ularning urug'lanish joylari haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Bu savollar tushuntirishni talab qiladi, chunki kelajakda sun'iy yo'l bilan olin-gan voyaga yetmaganlarni ozod qilish joylarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sun'iy ko'paytirishda har ikki turdag'i soxtakurakburun turlarining taksonomik holatini

aniqlanmagan. Bu noyob baliq faqat yaqin-yaqingacha Orol dengiziga quyladigan Amudaryoda saqlanib qolgan. Ammo, bu daryo oqimining tartibga solinishi va chekinishi, suv muhitining kimyoviy ifloslanishi va boshqa noqulay antropogen omillar natijasida Amudaryoda bu baliqlar soni halokatli darajada kamayib, hozirda yo'qolib ketish arafasida turibdi.

Xorazm viloyati aholisi bu baliqning shifobaxsh va hatto sirli xususiyatlari borligiga ishonishadi. Xususan, undan maxsus usulda pishirilganda, bepushtlikni davolashda, keksalar va bolalarda immunitetni oshirishda ishlataladi. Qishloqlardagi keksa odamlar ba'zan o'z uylarida yomon ko'zga qarshi talisman sifatida qurigan Amudaryo katta soxtakurakburuni osib qo'yishgan.

Mashhur Xorazmlik faylasuf va adib Tohir Karim otashparastlarning muqaddas kitobi "Avesto"da bu baliq to'g'risida yozib qoldirilganini, rivoyat borligini eslatib o'tgan. "Avesto"ga ko'ra, "bakra (bekre) baliq Sraoshi farishtasining buyrug'i bilan Zardusht dini asoschisining nabirasi Asvat Er etning tug'ilishiga yordam bergen, u iblis Gandarvani o'ldirgan va uning qarindoshlarini ozod qilgan. yorug'lik kuchlari), Kanxa daryosi (ehtimol Amudaryo) oqadigan Kansava ko'li tubida zulmat kuchlari tomonidan ushlab turilgan." - deb yozadi Tohir Karim.

Amudaryo katta va kichik soxtakurakburunilari bo'lib, ularning tabiiy populyatsiyalari obyektiv yoki subyektiv sabablarga ko'ra yo'q bo'lib ketish xavfi ostidadir. Sug'orish va suv ta'minoti uchun Amudaryodan suvning burilishi so'nggi bir necha o'n yilliklarda ushbu daryoning gidrologik rejimining o'zgarishiga olib keldi, bu esa tabiatdagi soxtakurakburunlarning ko'payish sikliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu noyob baliqlarning tabiiy populyatsiyasini saqlab qolish uchun, sun'iy ravishda olingan balog'atga yetmagan bolalarni majburiy sun'iy ko'paytirish va Amudaryo va uning irmoqlariga keng miqyosda qo'yib yuborish kerak. Daryolar oqimining tartibga solinishi va chekinishi, suv muhitining kimyoviy ifloslanishi va boshqa noqulay antropogen omillar natijasida Amudaryo soxtakurakburunining tur oraliqlari qisqardi, har ikki turning populyatsiyasi sezilarli darajada kamaydi. Kichik Amudaryo

soxtakurakburuni, kuzatishlarimizda Amudaryoning Xonqa tumanidan oqib o'tuvchi hududida yagona namunalarda uchratdir. Amudaryo soxtakurakburunlari tekis va tog' oldi daryo oqimlarining tez oqadigan loyqa suvlari sharoitida hayotga moslashgan tipik reofillardir. Suvning kimyoviy va organik ifloslanishiga juda sezgirligi sababli, turg'un suvli suv omborlaridan va kanallarning uchastkalarida uchramaydi. Tabiiy sharoitda soxtakurakburun sekin o'sadigan kichik o'lchamdag'i baliq, bentik hayot tarzini olib boradi. Tashqi tuzilishi bosh qismini tumshug'i ustki tomonidagi Amudaryo katta soxtakurakburunning umurtqa pog'onasi 9 tagacha orqaga egilganligi, dum suzgichining yuqori bo'lagi uzun kaudal filamentga cho'zilgan. Amudaryo kichik soxtakurakburunida umurtqa pog'onasi va dum filamenti yo'q. Amudaryo katta soxtakurakburuni ikkita katta va kichik shakli bor. Katta shakli keng burunli, kichik - mitti yoki tor burunli deb ataladi. Keng tumshug'li shaklida tana uzunligi (dumsiz) 50 sm ga, vazni – 1,2 kg ga etadi. Urg'ochisining urug'dorligi katta shaklda 20-30 ming dona tuxum bo'ladi.

Amudaryo kichkina soxtakurakburuni - eng mayda baliqlardan biri. Tana uzunligi 23-24 sm dan oshmaydi, vazni esa 50-55 g, tana uzunligi 20-25 sm, vazni 40-50 g bo'lib, ular 4-5 yoshda jinsiy yetuklikka erishadi. Urug'dorligi 1-2 ming dona tuxum. Amudaryo kichkina soxtakurakburunining taksonomik holati o'r ganilmagan. Amudaryo soxtakurakburun bahorda, aprel-may oylarida daryo tubining toshli (toshli) substratiga tuxum qo'yib ko'payadi. Katta soxtakurakburun bentik umurtqasizlar, chivinlar, ninachilar va lichinkalar bilan oziqlanishadi. Yirik Amudaryo soxtakurakburuning yirik keng tumshuqli shakli ulg'aygan sari mayda baliqlar, asosan o'tkir boshli baliqlari bilan oziqlanishadi.

O'tgan yillar davomida Life-on-earth.ru loyihasi rahbari va Yevroosiyohududiy hayvonot bog'lari va akvariumlar assotsiatsiyasi (EARAZA) Yevroosiyoning eng nodir baliqlarini saqlash dasturi kuratori Aleksey Chernyak bilan hamkorlikda, Amudaryoning quyi oqimida Amudaryo kurakburunlarining har ikkala turi (katta Amudaryo kurakburunning ikkala shakli (*Pseudoscaphirhynchus kaufmanni*), shuningdek, ayniqsa kam

uchraydigan kichik Amudaryo kurakburun (*Pseudoscaphirhynchus hermanni*) yashash muhitida o‘rganildi. Xorazm Milliy tabiat bog‘ negizida Xorazm Ma’mun akademiyasi ishtirokida baliqchilikni asrash bo‘yicha eksperimental o‘t baliqlarini ko‘paytirish laboratoriyasini tashkil etish va foydalanishga mo‘ljallangan uzoq muddatli loyihalarni chet ellik ixtiolog olimlar bilan hamkorlik amalga oshirish nazarda tutilgan. Rejalashtirilgan laboratoriyanı Amudaryo kurakburunlarining har ikki turi yashaydigan hududga yaqin joylashgan milliy bog‘ning obodonlashtirilgan markaziyma’muriy binosiga joylashtirishga qaror qilindi, bu esa logistika muammolarini (ovlangan baliqlarni yetkazib berish va suv yetkazib berish) ancha onsonlashtiradi.

Bugungi kunga qadar Amudaryo kurakburunlarini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq o‘ta og‘ir vaziyatni hisobga olib, biz Amudaryo kurakburunlarining urug‘lanish joylarini izlash bo‘yicha birinchi qadamlarni tashladik, hech bo‘lma ganda Amudaryoning O‘zbekistonning ichki qismida (Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonda) joylashgan, tadqiqotchilar uchun ochiq sharoit yetarli. Ushbu tadqiqotlarning davom etishi bizga ushbu noyob baliqlar populyatsiyasining hozirgi holatini baholash imkonini beradi.



#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. L.S. Berg. SSSR va qo‘shni mamlakatlarning chuchuk suv baliqlari. 1-qism. Rossiya Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1948-y.
2. Kovalev K.V., Balashov D.A., Cherniak A.L., Lebedeva E.B., Vasileva E.D., Vasilev V.P. “Amudaryo o‘troq baliqlarining kariotipi *Pseudoscaphirhynchus kaufmanni* (Actinopterygii: Acipenseriformes: Acipenseridae). Acta Ichthyologica et Piscatoria (2014) 44 (2).
3. O.I. Shmalxauzen. Katta Amudaryo kurakning oldingi lichinkalarining rivojlanishi. Ontogenet, 22-jild, 5-son, 1991-yil.
4. B.F.Goncharov, O.I. Shubravy, V.K. Utesshev. Yirik Amudaryo kurak (*Pseudoscaphirhynchus kaufmanni* Bogd.)ning sun’iy sharoitda ko‘payishi va erta rivojlanishi. Ontogenet, 22-jild, 5-son, 1991-yil.

## ХОРАЗМ ВИЛДЯТИ ТУПРОҚ-ИҚЛИМ ШАРОИТИДА ЎТКИР БАРГЛИ САНО (CASSIA ACUTIFOLIA DEL.) ВА ТОР БАРГЛИ САНО (CASSIA ANGUSTIFOLIA VAHL.) ТУРЛАРИНИНГ ТРАНСПИРАЦИЯ ЖАДАЛЛИГИ



**Умарбек  
АБДУРАХИМОВ,  
биология фанлари  
бўйича  
фалсафа доктори  
(PhD),  
Хоразм Маъмун  
академияси  
катта илмий ходими**

**Аннотация:** В данной статье приводятся сведения об интенсивности транспирации видов лекарственного растения кассии (кассия остролистная и кассия узколистная). Из полученных результатов научных исследований можно сделать выводы, что у всех двух изученных видов кассии на всех стадиях развития вегетации интенсивность транспирации в два раза понизилась и повысилась.

**Ключевые слова:** кассия остролистная, кассия узколистная, особенности водного обмена, интенсивность транспирации, фотосинтез.

**Аннотация:** Уибу мақолада сано ўсимлиги турларининг (ўткир баргли сано ва тор баргли сано) транспирация жадаллиги ҳақида маълумотлар келтирилган. Ўтказилган илмий тадқиқот ишлари бўйича шундай хуносаларга келиш мумкинки, ўрганилаётган сано ўсимлигининг иккита турида ҳам, яъни, ўткир баргли ва тор баргли сано турларида ривожланиши фазаларининг барча босқичларида транспирация жадаллигининг икки марта ошиб камайганлиги кузатилди.

**Калим сўзлар:** ўткир баргли сано, тор баргли сано, сув алмашиниши хусусиятлари, транспирация жадаллиги, фотосинтез.

**Annotation:** This article provides information on the intensity of transpiration of cassia medicinal plant species (*Cassia acutifolia* Del. and *Cassia angustifolia* Vahl.). From the obtained results of scientific research, it can be concluded that in all two studied species of cassia at all stages of the development of vegetation, the intensity of transpiration was observed to decrease and increase twice the curve.

**Key words:** *cassia acutifolia* Del., *Cassia angustifolia* Vahl, features of water metabolism, transpiration intensity, photosynthesis.

**Муаммонинг долзарблиги.** Табиий ва ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликлар турларини интродукция қилиш ҳамда иқлимлаштириш масалалари жуда долзарб бўлиб қолмоқда. Ушбу муаммони ҳал қилиш усусларидан бири янги доривор ўсимлик турларини қишлоқ хўжалигига киритишдир. Маълумки, ўсимликларни интродукция қилишнинг муваффакияти кўп жиҳатдан иқлимий мухит омилларининг уларнинг ўсиш ва ривожланиш таъсирига боғлиқ. Ўсимликларни интродукция қилишдаги асосий муаммо – бу ўсимликнинг янги мухитга кўниши, шунингдек, унинг турли стрессли вазиятларга муносабати билан баҳоланади [3].

Кўпчиликка маълумки, барглардаги сувнинг интенсив буғланиши ҳам уларнинг хужайраларида сув потенциалининг пасайишига ва уларга поя ва илдиздан сув киришига олиб келади. Транспирация натижасида сувнинг ўсимлик бўйлаб ҳаракатланиши транспирация оқими деб аталади. Илдиз босими, сув молекулалари орасидаги ёпишиш ва транспирация кучларининг комбинацияси туфайли сув ўсимлик бўйлаб ўнлаб метрларга кўтарилиши мумкин (дараҳт турларида бу жараёнда тирик илдиз хужайралари мухим роль ўйнайди). Сувнинг ўсимлик танасида ҳаракатланиш тезлиги кундузи айниқса юқори бўлади [7].

Ўсимликларнинг сув режими умумий метаболик жараённинг бир қисми бўлиб, ўсимлик организмида сув режимини тартибга солишининг энг мухим усусларидан бири транспирация ҳисобланади [6].

Сув алмашинуви хусусиятлари газ алмашинуви каби ўсимликлар ҳаётида мухим ўрин тутади. Ўсимликлардаги деярли барча физиологик ва биокимёвий жараёнлар сув иштироқида содир бўлади. Сув алмашинув хусусиятларини тасвирловчи асосий кўрсаткичларга ўсимлик баргларидаги транспирация жадаллиги, сув танқислиги ҳамда сув сақлаш қобилияти киради. Шунинг учун ҳам бу кўрсаткичнинг қийматига қараб, ўсимликларнинг кургоқчилик ва шўрликка

чиdamлилигини аниқлашда кенг фойдаланиш мумкин [1].

Доривор ўсимлик турларини илмий жиҳатдан етиштириш агротехнологиясини ишлаб чикиш, амалиётга жорий қилиш учун нафақат уларнинг экологик ва биологик эҳтиёжларини билиш, балки ўсимлик сув билан оптималь таъминлангандағина нормал давом этадиган физиологик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳам ҳисобга олиш керак [5].



**1-диаграмма. Сано турларининг транспирация жадаллиги (г/соат, хўл оғирлик ҳисобида)**

**Тадқиқот мақсади ва услублари.** Бизнинг илмий ишимизда тадқиқотларимиздан келиб чиқиб, Хоразм вилояти тупроқ-иклим шароитида сано (*Cassia acutifolia* Del ва *Cassia angustifolia* Vahl) турларидан – ўтқир баргли сано ва тор баргли санони транспирация жадаллигини тадқиқ қилиш мақсад қилинган. Жумладан, Хоразм вилояти тупроқ-иклим шароитида Хоразм вилояти учун бир мунча янги доривор ўсимлик – ўтқир баргли ва тор баргли санонинг транспирация жадаллиги тадқиқ қилинди.

Мазкур доривор ўсимлик республикамизнинг бошқа худудларида ўрганилган бўлишига қарамай, хусусан Хоразм вилояти шароитида сув алмашинув хусусиятлари тўғрисидаги маълумотлар умуман йўқ. Илмий изланишлар 2021-2022 йиллар давомида Хоразм вилоятининг Хива туманида,

Хоразм Маъмун академиясининг экспериментал тажриба базаси тупроқ-иклим шароитида ўтказилди.


Транспирация жадаллиги торзион тарозида баргларнинг тезлик билан тортиб олиш усули бўйича аниқланди (Иванов ва бошқалар, 1950) [4]. Тажриба кунига 7 марта, эрталаб соат 8 дан кеч соат 20 гача 3 карра такрорийлик асосида олиб борилди. Баргларни ҳар бир тортиб олишдан аввал Асман психрометри ёрдамида ҳаво ҳарорати ва нисбий намлиги ўлчаб борилди.

Илмий изланишлар натижалари статистик қайта ишлаш В.А.Доспехов (1985) методига асосан амалга оширилди [2].

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Тажрибаларда сано (*Cassia acutifolia* Del. ва *Cassia angustifolia* Vahl.) турларидан – ўткир баргли сано ва тор баргли сано турларини вегетация жараёнининг 2-3 чинбарг чиқариш, шоналаш, шоналаш ва гуллаш фазаларида сув алмашинуви хусусиятларидан транспирация жадаллиги ўрганилди.

2021 йилда ўткир баргли сано турида баргларнинг транспирация жадаллиги шоналаш фазасида 1,7 г/соат; гуллаш фазасида 1,6 г/соат; мева туғиши фазасида 0,8 г/соат ва дуккакларнинг пишиш фазасида 0,5 г/соат ни ташкил қилди. Тор баргли сано турида шоналаш фазасида 2,4 г/соат; гуллаш фазасида 1,7 г/соат; мева туғиши фазасида 1,0 г/соат ва дуккакларнинг пишиш фазасида 0,7 г/соат эканлиги аниқланди (1-диаграмма).

2022 йилдаги ўтказилган тадқиқот натижаларига асосан сано турлари баргларида транспирация жадаллиги ўткир баргли сано турида шоналаш фазасида 1,8 г/соат; гуллаш фазасида 1,6 г/соат; мева туғиши фазасида 0,8 г/соат ва дуккакларни пишиш фазасида 0,6 г/соат эканлиги кузатилган бўлса, тор баргли сано турида эса шоналаш фазасида 2,5 г/соат; гуллаш фазасида 1,8 г/соат; мева туғиши фазасида 1,1 г/соат ва дуккакларни пишиш фазасида 0,8 г/соат эканлиги аниқланди (2- диаграмма).



**2-диаграмма. Сано турларининг транспирация жадаллиги (г/соат, хўл оғирлик ҳисобида)**

Сано турлари вегетациясининг бошида, яъни шоналаш фазасида ўткир баргли сано турининг транспирация жадаллиги ўртача 1,8 г/соатни, тор баргли сано тури эса 2,41 г/соат ни ташкил қилди. Худди шунингдек, Панацея навида 2,4 г/соат эканлиги аниқланди. Кунлик диапазон эса ўткир баргли санода – 2,5 г/соат ва тор баргли санода – 3,3 г/соатни ташкил қилди.

Гуллаш фазасида эса транспирация жадаллиги мос равишда ўртача 1,6 г/соат ва 1,7 г/соат эканлиги кузатилди. Кунлик диапазон ўткир баргли сано турида – 2,2 г/соат ва тор баргли санода – 2,4 г/соат эканлиги аниқланди.

Вегетация даврининг ўрталарида келиб, мева туғиши фазасида транспирация жадаллиги ўткир баргли санода 0,8 г/соат ни ташкил қилган бўлса, бу кўрсаткич тор баргли санода ўртача 1,0 г/соат эканлиги аниқланди. Бу даврда кунлик диапазон мос равишда 1,1 г/соат ва 1,3 г/соат га эга бўлди.

Сано турлари вегетация даврининг охирига келиб, яъни дуккакларнинг пишиш фазасида транспирация жадаллиги ўртача кўрсаткич мос равишда 0,6 г/соат (ўткир баргли сано) ва 0,7 г/соат (тор баргли сано) эканлиги кузатилди. Кунлик диапазон эса ва ўткир баргли сано турида – 0,8 г/соат ва тор баргли сано турида – 0,9 г/соатни ташкил қилди (1-жадвал).

**Хулоса ва тавсиялар.** Доривор ўсимликларни маданий ўсимликлар қаторига киритиш, уларнинг энг истиқболли навларини яратиш ва тўғри районлаштириш учун иқтисодий баҳолаш борасида сано турлари биологияси, физиологияси ва сув алмашинув хусусиятлари бўйича ўтказиладиган экспериментал тадқиқотлар долзарб масалалар қаторига киради.

Ўтказилган илмий тадқиқот ишлари бўйича кўйидаги хулосаларга келиш мумкин: ўрганилаётган санонинг иккита турида ҳам,

яъни, ўткир баргли ва тор баргли сано турларида ривожланиш фазаларининг барча босқичларида транспирация жадаллигининг икки марта ошиб камайганлиги кузатилди.

Амалга оширилган илмий-тадқиқот натижаларига кўра, сано турларидан – ўткир баргли ва тор баргли санонинг физиологик ва биологик хусусиятлари асосида ушбу экин турларини Хоразм вилояти тупрок-иклим шароитида етиштириш ва кенг майдонларга экиш мумкинлиги исботланди.


## 1-жадвал

### Сано турлари баргларининг транспирация жадаллиги (г/соат, хўл оғирлик ҳисобига)

Сано турлари	Соат							Кунлик ўртача	Кунлик диапазон
	8 <sup>00</sup>	10 <sup>00</sup>	12 <sup>00</sup>	14 <sup>00</sup>	16 <sup>00</sup>	18 <sup>00</sup>	20 <sup>00</sup>		
Шоналаш фазаси									
Ўткир баргли сано	1,66	2,53	1,68	1,98	1,85	1,44	1,36	1,8	2,5
Тор баргли сано	1,96	2,72	2,35	2,88	3,02	2,14	1,81	2,4	3,3
Гуллаш фазаси									
Ўткир баргли сано	1,43	2,08	1,47	2,12	1,51	1,40	1,28	1,6	2,2
Тор баргли сано	1,58	2,08	1,60	2,18	1,76	1,52	1,36	1,7	2,4
Мева тугиш фазаси									
Ўткир баргли сано	0,65	1,31	0,72	1,27	0,86	0,60	0,46	0,8	1,1
Тор баргли сано	0,75	1,23	0,88	1,29	1,12	0,92	0,48	1,0	1,3
Дуккакларнинг пишиш фазаси									
Ўткир баргли сано	0,49	0,97	0,55	0,83	0,65	0,40	0,27	0,6	0,8
Тор баргли сано	0,38	0,84	0,46	1,20	0,91	0,66	0,32	0,7	0,9

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Горохова С.В. Интенсивность транспирации у некоторых представителей рода *Corylus* L. // Научные ведомости. Серия: Естественные науки, 2011. № 3 (98). Вып. 14 (1). С. 248-253.
2. Доспехов В.А. Методика полевого опыта// - 5-е изд. переработ. и доп. - М.: Колос, 1985. С.-415.
3. Дустов Н.Ш. Дневной и сезонный ход интенсивности транспирации листьев персика (*Pérsica vulgaris* Mill.) в условиях западного Памира // Доклады Академии наук Республики Таджикистан, 2013. Т. 56. № 1. С. 65-71.
4. Иванов Л.А., Силина А. А., Цельникер Ю. Л. О методе быстрого взвешивания для определения транспирации в естественных условиях// Ботанический журнал. - 1950. - Т. 35. - № 2. - С. 171-185.
5. Мушинская О.А., Рябинина З.Н., Мушинская Н.И. Транспирация как составная часть водного режима растений и ее изучение у видов рода *Populus* L. // Вестник ОГУ, 2007. № 6. С. 95-99.
6. Солодовникова М.П. Дневная динамика интенсивности транспирации растений в засушливых условиях среды участка «Буртинская степь» госзаповедника «Оренбургский» // Вестник ОГУ, 2009. № 6. С. 351-353.
7. Феклистов П.А. Транспирация хвои сосны скрученной и обыкновенной в условиях Архангельской области // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Естественные науки, 2007. № 2. С. 86-90.



# SO‘Z TURKUMLARIGA ASOSLANGAN Q‘QUV

## LUG‘ATLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada grammatik o‘quv lug‘atlarni yaratishda morfologiyaning o‘rni, grammatik shakllar ham lингвистик tadqiqotning, ham nutqiyl kompetentsiyani rivojlantirishning asosi ekanligi, o‘zbek tilining o‘timli va o‘timsiz fe’llar, fe’l nisbatlari o‘quv lug‘atlari, o‘quv lug‘ati tarkibida yangi so‘z-atamalarni qayd etilishi, o‘zbek tilining o‘z qatlamiga oid so‘zlarning, atoqli otlarning ham nutq, muloqot tarkibida o‘ziga xos o‘rni va vazifasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** morfologiya, grammatik shakllar, o‘quv lug‘atlari, yangi so‘z-atamalar, terminologiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль морфологии в создании грамматических учебных словарей, обоснование того, что грамматические формы являются основой как лингвистического исследования, так и развития речевой компетенции, переходные и непереходные глаголы узбекского языка, соотношения глаголов учебные словари узбекского языка, учет новых слов-терминов в учебной лексике, учет слов, относящихся к собственному пласту узбекского языка, именитых существительных, как в речевом, так и в специфический было задумано место и функция.

**Ключевые слова:** морфология, грамматические формы, учебные словари, новое слово-термины, терминология.

**Annotation:** This article examines the role of morphology in the creation of grammatical educational dictionaries, the rationale that grammatical forms are the basis of both linguistic research and the development of speech competence, transitive and intransitive verbs of the Uzbek language, the relationship of verbs to the educational dictionaries of the Uzbek language, accounting for new words-terms in the educational vocabulary, accounting for words related to their own layer the Uzbek language, famous nouns, both in speech and in a specific place and function were conceived.

**Key words:** morphology, grammatical forms, educational dictionaries, new word-terms, terminology.



**Adiba BOTIROVA,**  
*Navoiy innovatsiyalar  
instituti dotsenti*

O‘zbek tili agglyutinativ tillar oиласига мансуб, унинг морфологик таркibi бирор морфологик шакл qo‘shilgandan со‘ng о‘згаради. O‘zbek tili milliy korpusining асосини, poydevorini ham morfologiya tashkil etadi. Shu ma’noda grammatic o‘quv lug‘atlarni yaratishda morfologiya, xususan, muloqot uchun nihoyatda muhim bo‘lgan ot va fe’l so‘z turkumlari qamrab olinadi. Zero, mazkur grammatic shakllar ham lingvistik tadqiqotning, ham nutqiy kompetentsiyani rivojlantirishning асоси hisoblanadi.

O‘zbek tili va uning zamonaviy keng miqyosli tadqiqi davlatimiz rahbari tomonidan ham alohida ta’kidlanmoqda: “O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy resurslar va mablag‘larni aslo ayamasligimiz kerak. ... ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish lozim, buning uchun o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug‘atlarni yaratish kerak” [1]. Ayni paytda o‘zbek mакtab o‘quvchilar uchun turli xil izohli lug‘atlar yaratish zarurati tug‘ilmoqda. Bu o‘zgarishlar so‘z birikmalarining ayrim qatlamlarini pasivlashtirishga, shuningdek, o‘rtा maktab o‘quvchilar uchun tegishli bo‘lgan leksik qatorning begonala什uviga olib keldi.


O‘zbek tili grammaticasi yuzasidan o‘quv lug‘atlarini yaratish zarurligini e’tirof etgan mutaxassis olimlar ushbu turdagи lug‘at qurilishi uchun tegishli ilmiy asos yo‘qligini ta’kidlaydilar.

Professor B.Mengliyev o‘rinli ta’kidla ganidek, “O‘quv lug‘atlari zarurligi haqida ko‘p gapirib va yozib kelinmoqda. O‘quv lug‘atlari yaratilmas, o‘quvchilarining stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko‘plab o‘quv lug‘atlari turmas, buning uchun o‘quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo‘lga qo‘yilmas ekan, ona tili ta’limi o‘zining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi”[2].

Ot so‘z turkumi bilan bog‘liq grammatic lug‘atlar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin bo‘ladi (1-diagramma).

Nutq, muloqot uchun ot so‘z turkumi qanchalik muhim vazifa bajarsa, fe’llar ham undan kam bo‘lmagan vazifalarni bajaradi. O‘zbek tilining

o‘ziga xos



xususiyatlaridan biri ham shuki, gapda ko‘pincha ega tushirilib, ifodalanmay qoladi va asosiy yuk fe’l bilan ifodalangan kesimga tushadi. Shu ma’noda, tadqiqotchi hamda o‘quvchilarining ham bu ikki mustaqil so‘z turkumiga aloqador grammatic o‘quv lug‘atiga ko‘p ehtiyoj seziladi.

Fe’llar bilan bog‘liq grammatic o‘quv lug‘atlar tarkibida, xususan, o‘timli va o‘timsiz fe’llarning grammatic o‘quv lug‘atining o‘rni va ahamiyati katta. Shuningdek, fe’l nisbatlarini qo‘llash bilan bog‘liq muammolar ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilining o‘timli va o‘timsiz fe’llar, fe’l nisbatlari o‘quv lug‘atlarini dolzarb lug‘atlar sirasida ko‘rsatish mumkin:

O‘timli va o‘timsiz fe’llar o‘quv lug‘ati

Fe’l nisbatlari o‘quv lug‘ati

Fe’l mayllari o‘quv lug‘ati

Leksik qatlarning o‘ziga xos xususiyatlari yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar bilan ham belgilanadi. Shu bois har qanday til korpusida yangi o‘zlashma so‘zlar alohida e’tiborni taqozo qilishi tabiiy.

Shu o'rinda tadqiqotchi H.Bakiyevaning o'quv lug'atlaridan foydalanishning ijobiy natijalarini ta'minlovchi omillar xususidagi fikrlariga e'tibor qaratib o'tish lozim: "Kuzatishlar boshlang'ich sinfnинг ona tili darsliklariga kiritiladigan mashq materiallarini quyidagi mezonlar asosida tanlash ijobiy natijalar berishini ko'rsatdi:

- mashq materiallarining bog'lanishli matn xarakterida bo'lishi;
- o'rganilayotgan til bilimini o'zlashtirishni ta'minlashi va mustahkamlashi;
- o'quvchilar hayoti bilan bog'liq va yo-shiga mos bo'lishi;
- davr taraqqiyotini o'zida aks ettirishi;
- ta'limning shu bosqichida o'qitiladigan fanlar bilan bog'lanishi"[3].

Grammatik lug'atlar elektron shaklida ham yaratilmoqda, bu o'quv jarayonida, keyingi ish faoliyatlarida bir qator qulayliklar yaratishi mumkin. V.Dubichinskiy elektron lug'atni ushbu avtomatlashtirilgan tizim ishlaydigan yoki tayanadigan sohadagi tushunchalarning to'plangan va ma'lum bir tarzda buyurtma qilingan nomlari bilan intellektual maqsadning avtomatlashtirilgan tizimining bir qismi deb ataydi. Olimning fikricha, elektron lug'atlar, odatda, terminlar va terminologik iboralar majmuasini o'z ichiga oladi, tizimlashtirilgan va jadvallar, semantik tarmoqlar yoki semantik daraxtlar ko'rinishida taqdim etilgan [4].

Ko'pgina rivojlangan mamlakatda o'quv leksikografiysi o'z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdag'i yangi avlod antropotsentrik o'quv lug'atining yangi-yangi janrini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanmoqda [5]

V.V.Morkovkin ham lug'atning maqsadi, lingvodidaktik xarakterga ega bo'lishi, ya'ni ta'limga yo'nalgan bo'lishiga diqqatni qaratadi. Shunga asosan u o'quv lug'atchiligini alohida lingvometodik yo'nalish, an'anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida paydo bo'lgan fan ekanini ta'kidlaydi [6]. Uning fikricha, o'quv leksikografiyasining asosiy bo'limlarini:

- a) o'quv lug'atini tuzish nazariyasi va amaliyoti;
- b) leksik minimumni tuzish nazariyasi va amaliyoti;

v) o'quv leksikostatistikasi nazariyasi va amaliyoti;

g) leksika bo'yicha lug'at tipidagi o'quv qo'llanmalarini yaratish nazariyasi va amaliyoti;

d) darslikka ilova qilingan va muayyan mavzu uchun beriladigan lug'atda til leksikasining taqdim etilishi va semantizatsiyasi nazariyasi va amaliyoti tashkil etishi lozim [7].

Grammatik lug'atlar – so'zning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan lug'atlar. Grammatik lug'atlarga to'g'ri yoki teskari alifbo tartibida joylashtirilgan so'zlar kiradi. Tanlash tamoyillari va so'z haqida ma'lumot miqdori har bir grammatik lug'atning maqsadi va manziliga qarab farq qiladi. O'zbek tilshunosligida ta'limiy korpusda foydalanish uchun bir qator lingvistik va o'quv lug'atlar yaratilgan. Jumladan, o'zbek tilining so'zlar darajalanishi bo'yicha o'quv lug'ati bunga yaqqol misol bo'ladi. Lug'at tarkibida o'zbek tili lug'aviy birliklarining ikki xil asosli darajalanish qatorini hosil qilgan birliklar darajalanishiga ko'ra tavsiflangan: 1) denaotativ asosga ko'ra darajalanuvchi so'zlar qatori; 2) konnotativ asosli darajalanish qatori. Quyida so'zlarning konnotativ asosli darajalanish qatoriga namunalarni keltirib o'tamiz. Keltirilgan misollarda asosan so'zlar ifoda belgisining kuchli-kuchsizligi, ortiq-kamligi darajalanish qatorini hosil qilish omili bo'lib xizmat qilgan:

### **"Bo'yog'iga ko'ra**

Noiloj - nochor – ilojsiz (*belgini kuchli ifodalashiga ko'ra*)

Nola qilmoq - oh urmoq - faryod solmoq – afg'on aylamoq

(*bo'yoqdorlik belgisining oshib borishiga ko'ra*)

Nam – ho'l - shilta – shalobbo (*belgini kuchli ifodalashiga ko'ra*)

Nazar tashlamoq - termulmoq - tikilmoq - qaramoq

(*qo'llanish doirasining tor-kengligiga ko'ra*)

Nazr - ehson – qurbanlik (*belgini kuchli darajada ifodalashiga ko'ra*)

Noyob - nodir - taqchil – aziz (*belgini kuchli darajada ifodalashiga ko'ra*)

Nola - nolish - oh – fig‘on - faryod - zor -  
dod – afg‘on

(bo ‘yoqdligining oshib borishiga ko ‘ra)

Naridan-beri - apil-tapil - shosha-pisha  
(qo ‘llanish doirasining oz-ko ‘pligiga ko ‘ra)

Notekis - baland - past - uydim-chuqur  
(ifoda bo ‘yog ‘ining kuchiga ko ‘ra)

Nafis – nozik – latif (bo ‘yoqdligining  
ortib borishiga ko ‘ra) ” [8].

Yuqorida qayd qilingandek, elektron grammatik lug‘atlarning samaradorligi til korpusi bilan uzviy bog‘liq. Shu bois til korpusi va uning turlari, imkoniyat hamda xususiyatlariga ham e’tibor qaratib o‘tish joiz. Birinchi til korpusi 1960-yillarda AQShning Braun universitetida ishlab chiqilgan. Statistiklar matnlarni olib, ularni teng qismlarga ajratdilar va natijada olimlarning amaliy vazifalari uchun ishlataladigan kichik ingliz korpusini oldilar. O‘sha paytda boshqa korpuslar paydo bo‘ldi, ammo ularni hech kim jiddiy qabul qilmadi, chunki o‘sha paytdan beri ular foydali bo‘lishi mumkin emas, deb ishonishdi. Ammo, vaqt o‘tishi bilan kompyuterlarning imkoniyatlari o‘sdi va shu bilan birga, til korporatsiyasining hajmi o‘sdi. Nima uchun tilshunoslar korpusni juda qadrlashi ham shunga bevosita bog‘liq. Haqiqat shundaki, ish yordamida olinadigan materialning miqdori va sifati korpusgacha bo‘lgan davrda olinishi mumkin bo‘lgan narsalar bilan taqqoslanmaydi. Ko‘pgina hollarda, tilshunoslar tilga boshqacha qarashni boshladilar: agar ilgari mutaxassislar ma’lum bir so‘zning qanday ma’nolarda ishlatalishini tushunish uchun o‘nta misol yetarli deb o‘ylashgan bo‘lsa, unda korpusning paydo bo‘lishi bilan o‘n mingta misol juda ko‘p narsani ko‘rsatishi aniq bo‘ldi.

Xulosa sifatida aytish kerakki, o‘zbek tilining o‘quv grammatik lug‘atlari o‘quvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, umuman, o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun juda muhim bo‘lib, ularni yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, uning ta’limiy korpusga integratsiya qilish yo’llarini aniqlash kabi dolzarb vazifalar oldinda turibdi. Bu borada monografik va jamoaviy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish davr talabidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Бахриддина Б. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 23.

2. Бархударов С.Г., Новиков Л.А. Каким должен быть учебный словарь? Русский язык за рубежом. 1971, №3; Бархударов С.Г., Новиков Л.А. Актуальные проблемы и задачи учебной лексикографии//Русский язык за рубежом. – 1975. – № 6. – С. 54-58.

3. Бакиева Х. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. Тошкент, 2019. – Б. 12.

4. Бобоҷонов Ш., Исломов И. Ўзбек тилининг сўзлар даражаланиши ўқув луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 38 бет.

5. Дубичинский В.В. Искусство создания словарей: Конспекты по лексикографии [Текст] / В.В.Дубичинский. – Харьков: ХГПУ, 1994. – 102 с.

6. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқ) // “Халқ сўзи” газетаси. Тошкент, 2019. – № 218.

7. Менглиев Б.Р. “Она тили”мизни тилшунослик исканжасидан кутқарайлар! [Электрон ресурс]. URL: <https://sogлом.uz>

8. Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М.: Русский язык, 1977. – С. 28-37; С.31.



## RESUME

In the "Political Science" column of our magazine, you will get acquainted with the articles of A. Bayrieva, N. Siydarullaeva on current topics.

"Sociology" column contains an article by Shogida Sodikova, professor of the Academic Academy of Uzbekistan, Doctor of Sociology.

In the "History" column, D. Abdullaev and A. Gurbanov present the known and unknown information of history with their interesting articles.

A. Allaberdiev, I. Shermatov, N. Jumaniyazova, D. Abdullaeva, N. Sa'dullaeva, O. Uralova, B. Rakhmonkulova, F. Kenjaev, Sh. Norkulova, H. Zo'raeva, M. Kurbanbaeva, A. Botyrova "Philology" they delight magazine readers with interesting articles in their column.

Articles by R. Seydarullaeva, G. Ganieva are covered under the column "Pedagogy".

In the column "Psychology" you will get acquainted with the article of O. Yadgorova.

In this issue, in the "Agriculture" column, you will get acquainted with the article co-authored by Z. Rajabov and R. Polatov.

U. Abdurahimov's article is covered under the "Biology" column.

In the following excerpts, you will get to know one of our spiritual heritages, "Kutadgu Bilig", which has come down to us from our ancestors.